

O'QUV-USLUBIY
MAJMUA

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK
UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YURIDIK KADR LARNI
XALQARO STANDARTLAR
BO'YICHA PROFESSIONAL
O'QITISH MARKAZI



HUQUQSHUNOSLIK

2022

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI YURIDIK
KADRLARNI XALQARO STANDARTLAR BO'YICHA PROFESSIONAL
O'QITISH MARKAZI**

HUQUQSHUNOSLIK

qayta tayyorlash va malaka oshirish
yo'nalishi

"OILA VA BIZNES HUQUQI"

moduli bo'yicha

O'QUV-USLUBIY MAJMUА

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga
muvofiq ishlab chiqilgan.**

Tuzuvchilar:

- M.Tadjibaeva – TDYU “Biznes huquqi” kafedrasи o‘qituvchisi
- G.Mamaraimova – TDYU Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrasи o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

- L.Achilova – TDYU Biznes huquqi kafedrasи kafedrasи o‘qituvchisi
- D.Xabibullaev – TDYU Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrasи professori

MUNDARIJA:

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	14
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	23
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	77
V. KEYSLAR BANKI	83
VI. GLOSSARIY.....	92
VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI	108
VIII. TAQRIZLAR.....	111

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2017 yil 27-iyuldagagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, shuningdek Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son qarorilarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Modulning maqsad va vazifalari

Tinglovchilarga oila va biznes huquqiga oida fanlarni o‘qitish metodikasi, ta’lim-tarbiya vazifalari, mazmuni, metod va usullarini tahlil etish ko‘nikmasini shakllantirish, uning o‘ziga xos xususiyatlari, metodlari, vositalari, dars va uning turlari va tuzilishini o‘rgatish hisoblanadi.

Modulning vazifasi – tinglovchilarda ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish, ta’lim jarayoning samaradorligini oshirish, zamon talablari, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida huquqiy fanlarni o‘qitish metodikasiga bo‘lgan munosabatlarni shakllantirishdan iborat.

Shuningdek, tinglovchilarga oliy ta’lim tizimida huquqiy fanlarni zamonaviy pedagogik usul, uslub va vositalarini qo‘llash samaradorligi;

tinglovchilarning olgan nazariy bilimlarini dasr mashg‘ulotlarida qo‘llash shart-sharoitlarini tadqiq etish;

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Oila va biznes huquqi” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari, faoliyatning tashkiliy-huquqiy asoslarini;
- tadbirkorlik faoliyatida shartnomalar, ruxsat berish tartib-taomillarini;
- tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish, raqobat va monopoliya, tadbirkorlik sub’ektlarinining huquq va majburiyatlarini;
- bankrotlik, oila, nikoh, aliment masalalarini;
- fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish masalalari sohasiga oid qonunchilikdagi so‘nggi islohotlarni;
- davlat ta’lim standarti, dastur va darsliklarning tuzilishi va mazmunini **bilishi** kerak;

Tinglovchi:

- zamonaviy axborot texnologiyalarini dars mashg‘ulotlarida qo‘llash;
- nazariy savollar tuzish, huquqshunos-pedagoglar tajribasidan foydalanish;
- huquq fanlarini o‘qitishda normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish;
- dars mashg‘ulotlarining ta’lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish;
- huquqni o‘qitishda manbalar bilan ishlash **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim;

Tinglovchi:

- interfaol usullar, ayniqsa “case study” metodini qo‘llash bilan bog‘liq masalalarni tahlil etish;
- amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish texnologiyasidan foydalanish;
- dars berishda kuzatilishi mumkin bo‘lgan muammolarini aniqlash, tahlil etish, baholash va umumlashtirish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- huquq darslari mavzularining uzviyligi va didaktik jihozlanish **malakalariga** ega bo‘lishi zarur.

Tinglovchi:

- oila va biznes huquqi fanlaridan dars berishda nazariy va amaliy bilimlarni uyg‘unlashtirishni samarali joriy etish;

- talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, huquqiy, siyosiy madaniyatini va huquqiy ongini oshirish, ularda vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish;
- o‘quv jarayonida ta’lim berishning modulli tizimini qo‘llagan holda tizimli mushohada yuritish, vaziyatni baholay bilish;
- ta’lim berish jarayonida kuzatilayotgan konseptual o‘zgarishlarni qabul qilish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bilan bog‘liq muammolar va ularni hal etish yo‘llarini shakllantirish **kompetensiyalarini** egallashi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Oila va biznes huquqi” moduli ma’ruza, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan bo‘lib, o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlari, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, “flip learning system”, “case-study”, kollokvium o‘tkazish va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Oila va biznes huquqi” moduli o‘quv rejadagi “Davlat va huquq nazariyasi”, “Yuridik xizmat” kabi modullar bilan o‘zaro bog‘liq hamda uslubiy jihatdan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliv ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar huquqni o‘qitish metodikasi muammolarni aniqlash, ularni tahlil etish, darslarni interfaol usulda olib borishga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Umumiy o'quv yuklamasi soatlari			
		Jami	Auditoriya o'quv yuklamasi		
			Nazariy	Amaliy	Ko'chma Mashg'ulot
1.	Tadbirkorlik faoliyatni sub'ektlari, faoliyatning tashkiliy-huquqiy asoslari	2	2		
2.	Tadbirkorlik faoliyatida shartnomalar, ruxsat berish tartib-taomillari	4	2	2	
3.	Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish, raqobat va monopoliya, tadbirkorlik sub'ektlarining huquq va majburiyatları	4		2	2
4.	Bankrotlikni huquqiy tartibga solish, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tugatishning huquqiy asoslari	4	2	2	
5.	O'zbekiston Respublikasida oila munosabatlarini tartibga solishning umumiy qoidalari	2	2		
6.	Nikoh tuzish, bekor qilish va uni haqiqiy emas deb topish asoslari	4		2	2
7.	Ota-onha hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatları, aliment masalalari	4		2	2
8.	Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish masalalari sohasiga oid qonunchilikdagi so'ngi islohot va ilmiy izlanishlar	2		2	
Jami		26	8	12	6

BAHOLASH MEZONI

Mazkur modul yuzasidan tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari nazorati belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

NAZARIY VA AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari, faoliyatning tashkiliy-huquqiy asoslari

Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari – huquqiy asoslar. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Texnologiya va metodika. Ta’lim texnologiyasi va o‘qituvchi. Darsning texnologik kartasi. Ta’lim jarayonida interfaol usullar. Guruhlarda ishslash. “Case-study”, “flipped classroom” texnologiyalari.

2-mavzu. Tadbirkorlik faoliyatida shartnomalar, ruxsat berish tartib-taomillari

Tadbirkorlik faoliyatida shartnomalar. Ruxsat berish tartib-taomillari. O‘qituvchining darsga tayyorgarlanishi. Dars va uning tarkibiy qismlari. Ma’ruza mashg‘ulotlarining ta’lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejallashtirish qoidalari. Huquq darsligi bilim manbai va ta’lim vositasi sifatida. Huquq fanlarini o‘qitishda normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish.

3-mavzu. Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish, raqobat va monopoliya, tadbirkorlik sub'ektlarining huquq va majburiyatlari

Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish. Raqobat va monopoliya. Tadbirkorlik sub'ektlarinining huquq va majburiyatlari. Muammoli savol tuzishda amaliyot materiallaridan foydalanish. Savollar tuzish uchun tegishli manbalardan foydalanish metodikasi.

4-mavzu. Bankrotlikni huquqiy tartibga solish, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tugatishning huquqiy asoslari

Bankrotlikning huquqiy tabiat. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tugatishning huquqiy asoslari. Huquqshunos-pedagoglar tajribasidan foydalanish metodikasi. Bankrotlikni huquqiy tartibga solish, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tugatishning huquqiy asoslari mavzusida nazariy savollar tuzishda e’tiborga olish zarur bo’lgan masalalar.

5-mavzu. O‘zbekiston Respublikasida oila munosabatlarini tartibga solishning umumiy qoidalari

Oila va biznes fanini o‘qitishda sohada ilmiy yutuqlarga ega olimlar va pedagoglar tajribasini o‘rganish metodikasi. Amaliyotdagi huquqshunoslar faoliyatini tahlil qilish. Fan doirasida muammoli savollar tuzish. Muammoli savol tuzishda amaliyot materiallaridan foydalanish. Savollar tuzish uchun tegishli manbalardan foydalanish metodikasi.

6-mavzu. Nikoh tuzish, bekor qilish va uni haqiqiy emas deb topish asoslari

Nikoh tuzish. Nikohni bekor qilish. Nikoxni haqiqiy emas deb topish. Muammoli savol tuzishda amaliyot materiallaridan foydalanish. Savollar tuzish uchun tegishli manbalardan foydalanish metodikasi. Dars mashg‘ulotlariga tayyorlarlik ko‘rishda amaliyotdan materiallar yig‘ish, hujjatlar jildini tayyorlash metodikasi. Dars mashg‘ulotlariga amaliyotdan mutaxassis jalb qilish, darsning effektivligini baholash, talabani amaliyot bilan tanishtirish orqali bilimini oshirish.

7-mavzu. Ota-onha hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatları, aliment masalalari

Ota-onha hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatları. Aliment. Ta’limiing texnikaviy vositalari huquq o‘qitish samaradorligini oshirishning muhim omili. Ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash samarali usullardan biri. O‘rganishda masofali o‘qitishning o‘rni. Elektron o‘quv darsliklari va o‘quv metodik komplekslarni yaratish, prezentatsiyalarini ishlab chiqish. Kompyuter orqali o‘quvchilar bilimini rivojlantirish va baholash.

8-mavzu. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish masalalari sohasiga oid qonunchilikdagi so‘ngi islohot va ilmiy izlanishlar

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish masalalari sohasiga oid qonunchilikdagi so‘nggi islohotlar. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish masalalari sohasiga oid ilmiy izlanishlar. O‘quvchi-talabalarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini tekshirib, baholab borishning maqsadi va vazifalari. O‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini baholash shakllari va mezonlari kundalik, oraliq, yakuniy va o‘quv yili oxirida baholash metodlari. Test, yozma ishlar, og‘zaki so‘rov va reyting tizimi orqali o‘quvchilar bilimini tekshirish va baholash mezonlari.

KO‘CHMA MASHG‘ULOT MAZMUNI

Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish, raqobat va monopoliya, tadbirkorlik sub’ektlarining huquq va majburiyatları.

Nikoh tuzish, bekor qilish va uni haqiqiy emas deb topish asoslari. Ota-onha hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatları, aliment masalalari

O‘QITISH SHAKLLARI

Quyidagi shakllarda ta’lim berish ko‘zda tutilgan:

- binar ma’ruza, bit dars, debatlar, vebinar;
- devorsiz maktab;
- On-line ma’ruza;
- trening, videotrening
- mini-ma’ruzalar va suhbatlar;
- aqliy hujum va bumerang, tanishuv usullarida;
- diskussiya va disputlar (dallil va argumentlar asosida fikrini asoslashga o‘rganadi, tinglash va eshitishga moslashadi);

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: “O'zbekiston”, 2011. –440 b.
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.: “O'zbekiston”, 2015. – 302 b.
3. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: “O'zbekiston”, 2016. – 56 b.
4. Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: “O'zbekiston”. – 2017.– 102b.
6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018 y., 15-son, 406-modda.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat, 2014. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborothnomasi, 1996 y., 2-songa ilova.
3. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Rasmiy nashr. –Toshkent: Adolat, 2018.
4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi –T.: Adolat, 2018 y. – 568 b.
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Xususiy mulkni, tadbirkorlik sub'ektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 33-son, 439-modda.

6. O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 27 apreldagi “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-327-son qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019 y., 03/19/531/2799-son.

7. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida” // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 9-son, 170-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 y., 31-32-son, 315-modda; 2011 y., 51-son, 542-modda; 2014 y., 20-son, 222-modda.

8. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 2 yanvardagi 2008 yil 7 yanvardagi ‘Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-139-son qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son.

9. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 2 yanvardagi “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi O‘RQ-364-son qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son.

10. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish haqida”gi // O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 y., 5-6-son, 140-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.–2012. 18-son 201-modda.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Tadbirkorlik (bizne) huquqi. Dasrlik. Mas’ul muharrir: yu.f.n., dos. X.Azizov. -T.:TDYuU, 2018. -296 b.

2. Xo‘jalik (tadbirkorlik) huquqi (lotin alifbosida). Mualliflar jamoasi. Otaxonov F.X.ning umumiyl tahriri ostida -Toshkent: Adolat, 2007. – 466 b.

3. Oila huquqi. Mualliflar jamoasi. –Toshkent: TDYuU, 2017. 182 b.

4. Otaxonov F., Qodirov K., Otaxonov S., Xajiev N. Fuqarolik-huquqiy shartnomalar. -T.: “Print Media”, 2011. – 560 s.

5. Oila huquqidan o‘quv-uslubiy qo’llanma. Yuldasheva Sh.R., U.Sh.Shoraxmetova, B.R.Topildiev. –Toshkent: TDYuI, 2011.

6. Do‘stov U.N., Yuldashev J.I., Isakov T.U., Xaitbaev M.M. Xo‘jalik shartnomalari. O‘quv qo’llanma. –T.: TDYuI. 2009. – 158 b.

IV. Elektron ta'lim resurslari

7. <http://www.lex.uz>
8. <http://www.senat.uz>
9. <http://www.gov.uz>
10. <http://www.my.gov.uz>
11. <http://www.parliament.gov.uz>
12. <http://www.ziyonet.uz>

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Materialni og'zaki bayon qilish metodi

Tinglovchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish o'qituvchining tushuntirishini faol qabul qilish va puxta o'ylash evaziga amalga oshiriladi. Bilimlarni uzatish vositasi sifatida o'qituvchi nutqi muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda o'qituvchining tinglovchilar faoliyatiga rahbarligi mavzuni qo'yish, rejani e'lon qilish, tinglovchilar faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi.

Suhbat metodi

Tinglovchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jaraèni: ular e'tiboriga havola etilaètgan savolning mohiyatini anglash, mavjud bilimlar va tajribani safarbar qilish, savolga oid ob'ektlarni o'zaro taqqoslash, puxta o'ylash va savollarga to'g'ri javob tayèrlashdan iborat. O'qituvchining rahbarligi: mavzuni qo'yish, savollarni ifodalash, berilgan javoblarni tuzatish, to'ldirish va umumlashtirish kabi holatlarda namoèn bo'ladi. Suhbat metodi yordamida bilimlarni o'zlashtirishda tinglovchilar mavjud bilimlari va tajribalariga tayanadilar

"SWOT-tahlil" metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostonart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi


Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar muammoli xarakterdagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi

- 1 • Trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi
- 2 • Trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirishgach, har bir guruh umumiyl muammoni tahlil qilishlari zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materallarni tarqating;
- 3 • Har bir guruh o'ziga berilan muammosini atroflicha tahlil qilib o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;
- 4 • Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqsimotlarini o'tkazadilar, Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruruiy axborotlar bilan to'diriladi va mavzu yuklanadi

"Keys-stadi" metodi

"Keys-stadi" - inglizcha so'z bo'lib, ("case" – aniq vaziyat, hodisa, "stadi" – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqe-a-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).



“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi:



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

“Insert” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“_” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, tinglovchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izoh-lanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“Blis-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalahtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va tinglovchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa “0”, mos kelsa “1” ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridaan pastga qarab qo‘sib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridaan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.
6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

“Munozara” metodi

Ta’lim tizimida tizimlarda nutq o‘qitish, o‘z fikrini mustaqil va asosli bayon qilib, xulosalar chiqarish vositasi sifatida g‘oya muhim o‘rin egallaydi. Bu bajariladigan ishning bir turi bo‘lib, o‘zaro tortishish jarayonini keltirib chiqaradi va unga aniqlik kiritadi. Tinglovchilar tomonidan “o‘z so‘zi” o‘ziga xos uslub asosida izchil, savol fikr yuritiladi.

Munozara vaqtida tinglovchilar o‘zlariga ishongan holda savollarni munozara qilishadi. Munozara uchun shunday sharoit yaratishi kerakki, unda tinglovchilar o‘z fikrlarini ishonch bilan ochiq aytish, kamchiliklari uchun aybga qo‘ymasliklariga ishongan holda bayon etishlari lozim.

Masalan: Ma’muriy ixtiyoriylik ma’muriy hujjat qabul qilishga qanday ta’sirqiladi?

MUNOZARA USULIDA QUYIDAGI MAQSADLARDA FOYDALANISH MUMKIN

- 
- Yangi bilimlarni shakllatrirish
 - Og’izaki va yozma nutq ko’nikmalarini rivojlantirish
 - Mavzu yuzasidan fikr almashish asosida tegishli bilimlarga ega bo’lish

“Pinbord” metodi

Pinbord inglizchadan: pin – mustahkamlash, board –doska ma’nosini bildiradi. Bu usulda munozara yoki suhbat amaliy usul bi-lan bog‘lanib ketadi. Metod maqsadi rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazi-fasini bajarish. Bunda tinglovchilarda muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o‘z fikrini nafaqat og‘zaki, balki yozma ra-vishda bayon etish mahorati, mushohada qilish va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi.

“Portfolio”metodi

“Portfolio” – (ital. rortfolio – portfel, ingl.hujjatlar uchun pap-ka) ta’limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o‘quv-metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig‘in-disi sifatida aks etadi. Jumladan, tinglovchi yoki tinglovchilarining modul yuzasidan o‘zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshi-rish mumkin bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy
Ta’limiy faoliyat	Tinglovchilar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Tinglovchilar guruhi, tinglov-chilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O‘qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

Muammoli metod

Muammoli metodning mohiyati mashg‘ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishdan iborat bo‘lib, uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo‘li shu bilan birga o‘quv yo‘li hamdir.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1. Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari, faoliyatning tashkiliy-huquqiy asoslari

Reja:

1. Tadbirkorlik sub'ekti tushunchasi, belgilari va tasnifi
2. Tadbirkorlik sub'ekti sifati jismoniy shaxslar (YaTT)
3. Tadbirkorlik sub'ekti sifati yuridik shaxslar va ularning tasnifi
4. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan buyon davlatimiz tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yangi ichki mahsulot ishlab chiqarishda nafaqat hal qiluvchi mavqe egallashi, balki uning aholi farovonligi va daromadlarini orttirishda, ishsizlik muammosini yechishda ham muhim omilga aylantirishga erishish yo'lida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Tadbirkorlik huquqining subektlari – bu tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga vakolatli bo'lgan shaxslardir. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi 2012 yil 2 maydagi yangi tahrirdagi Qonunning 4-moddasiga muvofiq tadbirkorlik faoliyati subektlari (tadbirkorlik subektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarda subekt har doim tavakkal qilib, o'z javobgarligini zimmasiga olib, foyda olishni maqsad qilgan holda faoliyat yuritadi.

Biroq davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi qonun hujjatlarida man etilgan boshqa shaxslar tadbirkorlik faoliyati subektlari bo'lishi mumkin emas.

Masalan, quyidagi mansabdor shaxslarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqilanadi:

– davlat hokimiysi va boshqaruvi organlarining, huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari;

– davlat banklari rahbarlari va ularning o'rribbosarlari, xizmat yuzasidan pul belgilariga va pul (bank) hujjatlariga bevosita aloqasi bo'lgan mansabdor shaxslar;

– davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari rahbarlari va ularning bank hujjatlariga imzo qo'yish huquqiga ega bo'lgan o'rribbosarlari;

– davlat ta'minot va savdo-sotiq korxonalari va tashkilotlarining rahbar xodimlari;

– tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni hal qilish yoki bunday faoliyatni nazorat qilish o'z vazifasiga kiruvchi davlat organlarining rahbar xodimlari va mutaxassislari.

[O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 6-martdagи "Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish taqiqlangan mansabdar shaxslar ro'yxati to'g'risidagi" 103-sonli Qarori]

Shaxsning foyda ko'rish maqsadida, tavakkal qilib tovar ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) bilan shug'ullanish ixtisoslashgan faoliyatga aylangan taqdirdagina bunday faoliyatning ishtirokchilarini tadbirkorlar deb hisoblash mumkin. Agar fuqaro bunday harakatlarni alohida hollardagina (vaqtiga vaqt bilan) foyda ko'rishni o'z oldiga maqsad qilib qo'y may amalga oshirgan taqdirda, masalan, o'zidagi ortiqcha qishloq xo'jalik mahsulotlarini yoki keraksiz bo'lган boshqa ashyolarni sotishi yoki ishlarni bajarib berish uchun shartlashib va u bajarilganligi uchun haq olinadigan bo'lsa, bunday faoliyatni tadbirkorlik faoliyati deb bo'lmaydi, chunki bu kabi munosabatlardan fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadi. Shuningdek, bank muassasalariga foiz olish maqsadida jamg'arma qo'ygan fuqarolar, qimmatli qog'ozlar sotib olgan shaxslar ham tadbirkorlar hisoblanmaydi.

Tadbirkorlik huquqi subektiga quyidagicha tushuncha berish mumkin: tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi, o'zining mulkiga, tadbirkorlik huquq va majburiyatlariga ega bo'lган, o'z faoliyati yuzasidan mustaqil davogar va javobgar bo'la oladigan va o'zining huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qila oladigan (yuridik shaxs maqomini olgan) turli mulk shakllariga mansub korxonalar va ularning tuzilmalari hamda yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi – yakka tadbirkor maqomiga ega bo'lган fuqarolar, shuningdek tadbirkorlik huquqiy munosabatlarda ishtirok etayotgan davlat va uning vakolatli idoralari hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagilarni tadbirkorlik huquqining subektlarining o'ziga xos belgilari hisoblanadi:

- davlat ro'yxatidan o'tganligi;
- muayyan faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari uchun, albatta, ruxsatnomalar (litsenziya)ga ega bo'lishligi;
- o'z mol-mulkiga ega bo'lishligi;
- tadbirkorlik huquq va majburiyatlariga ega bo'lishi;
- o'z mol-mulki doirasida mustaqil javobgarligi;
- o'zlarining buzilgan huquqlarini va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish imkoniyatiga ega ekanligi hisoblanadi.

Tadbirkorlik huquqi subektlari tasnifi

Tadbirkorlik huquqi subektlarini bir necha turlarga ajratish mumkin. Subektlarni turkumlash ularning mulkchilik shakliga (masalan, fuqarolarning xususiy mulki, jamoa mulki yoki davlat mulkiga asoslangan), vakolatlariga (ya'ni bevosita tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar yoki boshqaruvni amalga oshiruvchi subektlar kabi), shaxslarga (jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar) hamda faoliyat turiga (tijoratchi va notijorat tashkilotlar) qarab belgilanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq jismoniy shaxslarga tadbirkorlik maqomiga ega bo‘lish imkoniyati berilib, ular ham tadbirkorlik huquqining subektlari doirasiga kiritilgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirishdir. [Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun (yangi tahrir) 2012-yil 6-modda]

Qonunga binoan har qanday fuqaro ham tadbirkor shaxs hisoblanmaydi, balki faqat belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan, o‘tib, tadbirkor maqomini olgan fuqarolargina e’tirof etilishi mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkor O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda xodimlarni yollashga haqli. [*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 31-iyuldaggi 219-soni qarori bilan tasdiqlangan “Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi.*]

Masalan, hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlar tayyorlash (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) uchun ko‘pi bilan uch nafar shogirdni ularga tegishlicha haq to‘lagan holda jalb etishga haqlidir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotinning umumiyligida mol-mulkidan foydalanadigan hollarda, agar qonunda, nikoh shartnomasida yoxud er-xotin o‘rtasidagi o‘zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, arning (xotinning) roziligi talab qilinadi.

Demak, yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati subektlarining shakllari qonunda quyidagi tarzda mustahkamlangan:

- yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash huquqi asosida, mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq tufayli o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlik;
- er-xotinning umumiyligida mol-mulk negizida ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik;
- ikki yoki undan ortiq yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan foyda olish yoki qonunga zid bo‘lmagan boshqa maqsadga erishish uchun o‘z hissalarini qo‘sish va yuridik shaxs tuzmasdan, birgalikda ish qilish majburiyatini olgan oddiy shirkat;
- yuridik shaxs tashkil etmagan holda dehqon xo‘jaligini yuritish.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish (davlat ro‘yxatidan o‘tishi) uchun shaxs 18 yoshga to‘lgan bo‘lishi lozim.

Oilaviy tadbirkorlik. Gap oilaviy tadbirkorlikni amalga oshirish to‘g‘risida ketar ekan, er-xotindan biri er-xotinning umumiyligida mol-mulkidan foydalanadigan hollarda vujudga keladigan munosabatlarni huquqiy

tartibga solish masalasi muhimdir. Chunonchi, qonunlarda, nikoh shartnomasida yoki er-xotin o'rtasidagi o'zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, bunday holda er(xotin)ning roziligi talab qilinadi. Bunday rozilik notarial tasdiqlangan bo'lib, qaysi mol-mulkdan foydalanishga kelishilgan bo'lsa, ushbu mol-mulkka tegishli ma'lumotlar qayd etilishi lozim.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tadbirkorlikning er-xotinning umumiyligi mol-mulki negizida ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik turida (ish muomalalarida) er-xotin nomidan arning yoki xotinning roziligi bilan ulardan biri ishtirok etadi, bu rozilik yakka tartibdagi tadbirkor ro'yxatdan o'tkazilayotganda tasdiqlanishi lozim.

Oilaviy tadbirkorlikda er-xotinning umumiyligi birgalikdagi mol-mulkidan foydalanishda qonun oilaning voyaga yetgan boshqa a'zolarining manfaatlarini inobatga olgan, xususan, agar tadbirkorlik faoliyati obekti sifatida uy-joydan foydalanish bilan bog'liq oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganda uy-joy mulkdorlaridan birining ish muomalalariga kirishishi oilaning voyaga yetgan boshqa azolarining notarial tasdiqlangan roziligi bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik va oilaviy tadbirkorlik faoliyatining negizi, mulkning shakllanish holati bir-biridan farq qiladi. Yakka tartibdagi tadbirkor mulk huquqi asosida faqat o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq tufayli o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida faoliyat ko'rsasa, oilaviy tadbirkorlik mol-mulk negizida umumiyligi birgalikdagi mulk asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, oilaviy tadbirkorlikni yuridik shaxs tashkil etmagan holda olib borish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 29.07.2009 216-sonli qarorida ham ko'rsatilgan.

Tadbirkorlik huquqining subekti sifatida davlat bir vaqtning o'zida boshqa tadbirkorlik huquqining subektlaridan farq qiladi.

Masalan: Davlat iqtisodiy munosabatlarga kirishar ekan, boshqa subektlar kabi o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun ruxsatnoma olishi talab etilmaydi. Shu bilan birga, iqtisodiyotga rahbarlik qilishni yuridik kuchga ega bo'lgan normativ hujjatlar asosida amalga oshirilishi ham unga xos bo'lgan xususiyatlardan bo'lib hisoblanadi.

Davlat mulki bo'lgan maxsus obekt davlat xazinasiga O'zbekiston Respublikasi nomidan tushadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha davlat kreditor hisoblanadi. Shuningdek, davlat nomidan tuzilgan shartnomalar bo'yicha g'azna mablag'lari hisobidan javobgar hisoblanadi. Davlatning vakolati tadbirkorlik subektlariga nisbatan boshqaruv faoliyati hisoblanadi.

Davlat insonlarning moddiy va manaviy ehtiyojlarini qondirishdek ulkan vazifani bajarish maqsadida erkinlik asosidagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bir vaqtda hisob-kitob yuritish, moliya, soliq, subektlar imtiyozlari

kabi institutlarni tartibga solish ishini olib boradi va ular yagona dastur sifatida ko‘rinadi.

Tadbirkorlik faoliyatida davlatning ta’siri – bu tadbirkorlik subektlarini tuzish, bekor qilish, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishni nazorat qilish faoliyatidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning quyidagi shakllarini ajratish mumkin:

- normativ-huquqiy hujjatlar chiqarish;
- davlat buyurtmalari;
- davlat kontrakti;
- davlat tomonidan tartibga solishni belgilovchi hujjatlar.

Tadbirkorlik huquqining subekti sifatida davlatning iqtisodiyotga ta’sir etishining yana bir usuli bu bozor mexanizmini tashkil etib, unda monopoliyaga yo‘l qo‘ymaslik, soliq tizimi orqali va har bir subektining huquqini himoya qilish, iqtisodiy erkinliklarining kafolatlashni belgilashdan iborat.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslarni quyidagi asosiy mezonlarga qarab tasniflash mumkin:

- qo‘sghan ulushiga qarab (ma’suliyati cheklangan jamiyat, qo‘s Shimcha ma’suliyatli jamiyat, aksiyadorlik jamiyati);
- tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etishiga qarab (to‘liq va kommandit ishtirokchilik);
- o‘z mehnati bilan shaxsan ishtirok etishiga ko‘ra (ishlab chiqarish kooperativi, dehqon xo‘jaligi);
- boshqaruvda ishtirok etishiga ko‘ra (xususiy korxona, fermer xo‘jaliklari).

Aksiyadorlik jamiyati – ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti. (“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun 2014-yil 6-may O‘RQ-370-son)

Aksiyadorlik jamiyatining asosiy ustunligi uning yirik ishlab chiqarishni tashkil etishdagi roli va shu asosdagi faoliyatining barqarorligidadir.

Masalan, to‘liq shirkatdan to‘liq sherikni chiqib ketishi shirkatni tugatilishiga, mas’uliyati cheklangan jamiyatdan esa uning ishtirokchisini chiqib ketishi ustav kapitalining sezilarli darajada kamayishiga sabab bo‘ladi. Aksiyador esa jamiyatdan chiqib ketayotganda jamiyatdan hech qanday mol-mulk talab qilmaydi, balki o‘ziga tegishli bo‘lgan aksiyani boshqa shaxsga sotib yuborib, o‘z ulushini oladi.

Aksiyadorlik jamiyatida ishtirokchilarni jamiyat majburiyatları bo‘yicha javobgarligining o‘ziga xos ko‘rinishi mavjud. Agar jamiyat zarar ko‘rsa, aksiyador faqatgina aksiya sotib olish uchun sarflagan mablag‘ini yo‘qotadi, xolos. Ishtirokchining cheklangan javobgarligi hamda aksiyalarni sotib yuborish

orqali aksiyadorlik jamiyatidan erkin ravishda istalgan vaqtida chiqib ketishi aksiyadorlik jamiyatiga kapitalni jalg etishni osonlashtiradi.

Aksiyadorning mulki aksiyadorlik jamiyatining mulkidan butunlay ajratilgan. Shuning uchun aksiyadorning kreditorlari va uning majburiyatlari bo'yicha talabni jamiyat mulkiga qarata olmaydi, biroq aksiyadorning aksiyasiga qaratishlari mumkin.

Aksiyadorning jamiyat majburiyatlari bo'yicha javobgarligini cheklanganligi mas'uliyati cheklangan jamiyat kabi ularning kreditorlari manfaatlari himoyasini asosiy kafolati bo'lgan ustav fondining ahamiyatini oshiradi.

Aksiyadorlik jamiyatida aksiyadorlarni jamiyatning kundalik boshqaruva faoliyatida ishtirok etishi talab etilmaydi. Aksiyadorlik jamiyatida xo'jalik shirkatidan farqli ravishda mulk bilan boshqaruva bir-biridan ajratilgan. Aksiya egasi jamiyatning kundalik boshqaruvida ishtirok etishi uchun vaqtি bo'lmasligi yoki yetarli darajada malakaga ega bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham jamiyat maxsus bilim hamda malakaga ega bo'lgan shaxslar tomonidan boshqariladi.

Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlar oлган jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi.

Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdori jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha to'rt yuz ming AQSh dollariga teng summadan kamni tashkil etmasligi kerak.

Aksiyadorlik jamiyatining boshqaruva organlari "Aksiyadorlik jamiyatlari" va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuniga asosan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi, va ijroiya organi hisoblanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi jamiyatning yuqori boshqaruva organidir. Jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish vakolati jamiyatning ustavida belgilanadigan ijroiya organi bo'l mish direktor yoki jamiyat boshqaruvi tomonidan amalgalash oshiriladi.

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 82-moddasiga ko'ra minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida jamiyatda ularning orasidan minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi tashkil etilishi mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. (Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risidagi qonunning 3-moddasi).

Mas'uliyati cheklangan jamiyat hozirda eng ko'p tarqalgan tashkiliy-huquqiy shakldagi tadbirkorlik subekti hisoblanadi. Nima uchun tadbirkorlar aynan ushbu yuridik shaxs shaklini tanlashyapti?

Avvalambor, mas'uliyati cheklangan jamiyatda:

– jamiyat muassislarning majburiyatlari bo'yicha javobgar emas;

– jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar. Mazkur qoidaga ko'ra kreditorlar o'z hissasini to'liq qo'shmagan ishtirokchilardan ustav fondiga qo'yilmagan miqdordagi ulushini talab qilishga haqli.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining soni ellik nafardan ortib ketmasligi lozim. Agar ishtirokchilarning soni yuqoridaq miqdordan ortib kesa, jamiyat bir yil ichida aksiyadorlik jamiyatiga yoki ishlab chiqarish kooperativiga aylantirilishi lozim. Agar belgilangan muddatda jamiyat qayta tashkil etilmasa yoki undagi ishtirokchilarning soni kamaytirilmasa, jamiyat sud orqali tugatiladi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat bilan bir qatorda **qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyat ham mavjud**. Qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatning faoliyati asosan mas'uliyati cheklangan jamiyatga oid huquq normalari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 63-moddasiga muvofiq qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "qo'shimcha mas'uliyatlari" degan so'zлами o'z ichiga olishi kerak.

Qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatning o'ziga xos xususiyati uning ishtirokchilarini jamiyat majburiyatlari bo'yicha javobgarligi ularning ustav kapitaliga qo'shgan ulushlari bilan cheklanmaganligidadir, ya'ni jamiyatining ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha o'z mol-mulkleri bilan qo'shgan hissalarini qiymatiga nisbatan hamma uchun bir xil bo'lgan, jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilanadigan, karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladilar.

Ishtirokchilardan biri nochor (bankrot) bo'lib qolganida, uning jamiyat majburiyatlari bo'yicha javobgarligi, agar jamiyatning ta'sis hujjatlarida javobgarlikni taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lmasa, boshqa ishtirokchilar o'rtaida ularning qo'shgan hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Xo'jalik shirkatining xo'jalik jamiyatlaridan farqi shundaki, shirkat shaxslarning birlashuvini hamda ularni shirkat faoliyatida faol ishtirokini talab qilsa, xo'jalik jamiyatlarida mablag' (kapital) birlashtiriladi va unda ishtirokchilarning jamiyat faoliyatida shaxsan ishtiroki talab qilinmaydi.

Xo'jalik shirkatida ustav kapitali uning ish faoliyatini boshlash uchun zarur bo'lsa, xo'jalik jamiyatida ustav kapitali uning kreditorlari oldidagi javobgarligining kafolatidir. Xo'jalik shirkatining ustav kapitali uning ta'sis hujjatlari ro'yxatga olish uchun berilgan vaqtida eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan kam bo'lmasligi zarur.

Qonun xo'jalik shirkatining ustav fondini uning asosiy aktivlari bilan bevosita bog'lab qo'ygan. Agar shirkatning zarar ko'rishi natijasida uning asosiy aktivlari qiymati ustav kapitali miqdoridan kamayib kesa, shirkat tomonidan

olingan daromad uning a'zolari o'rtasida taqsimlanmaydi. Asosiy aktivlarning qiymati ustav kapitali miqdoridan oshgandagina daromadlar uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanishi mumkin. Shirkat kreditorlari manfaatlarining asosiy kafolati uning ishtirokchilarining o'zlariga tegishli bo'lgan butun mol-mulkular bilan bo'lgan javobgarligidir.

Xo'jalik shirkati **to'liq shirkat** bo'lish uchun, uning ishtirokchilari o'z o'rtalarida tuzilgan shartnomaga muvofiq shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari hamda uning majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli butun mol-mulki bilan javob berishlari lozim. To'liq shirkatning holati ishtirokchilarning soni uncha ko'p bo'lmasagan tijorat tashkilotlariga ko'proq mos keladi. To'liq shirkatda uning ishtirokchilarining soni cheklanmagan, biroq uni ta'sis etish uchun kamida ikki ishtirokchi bo'lishi shart. Agarda qandaydir sabablar tufayli to'liq shirkat faqatgina yagona ishtirokchidan iborat bo'lib qolsa, mazkur holat yuz bergan vaqtdan boshlab olti oy muddat ichida mazkur to'liq shirkatga yangi to'liq sheriklar qabul qilinib, u saqlab qolinishi yoki unga hissa qo'shuvchi a'zo topilib, u kommandit shirkatga aylantirilishi yoxud tugatilishi lozim. Mazkur holatda to'liq shirkat yagona ishtirokchi bilan xo'jalik jamiyatiga aylantirilishi mumkin. To'liq shirkatni ta'sis etish xo'jalik jamiyatini ta'sis etishdan ko'ra birmuncha osonroqdir, ammo to'liq shirkatning o'ziga xos "kamchiligi" mavjud. Bu shirkat ishtirokchilarini shirkat majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli bo'lgan butun mol-mulkular bilan solidar tarzda, subsidiar tarzda javobgar bo'lishidir. Demak, to'liq shirkatning qarzini qoplash uchun mol-mulki yetarli bo'lmasa, undiruv shirkat ishtirokchilarining mulkiga qaratilishi mumkin. Xo'jalik jamiyatlarida esa ishtirokchilar uning majburiyatlari bo'yicha faqatgina ustav kapitaliga qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

To'liq shirkat ishtirokchilari javobgarligining solidar xususiyati shundan iboratki, bunda shirkatning kreditori mulkiy talabni shirkat ishtirokchilarining barchasiga yoki bo'lmasa ularning istalgan biriga qo'yishi mumkin.

To'liq shirkatning ishlarini boshqarish barcha ishtirokchilarning o'zaro kelishuviga muvofiq amalga oshiriladi. Shirkatning ta'sis shartnomasida boshqa qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, shirkat faoliyati bilan bog'liq masalalarni hal etishda har bir ishtirokchi bitta ovozga ega bo'ladi, ya'ni ishtirokchilar ustav kapitaliga qancha hissa qo'shganligidan qati'y nazar ular boshqaruvda tengdirlar.

Shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan hamda shirkatning majburiyatlari bo'yicha o'zlarining butun mol-mulkular bilan javob beradigan ishtirokchilar (to'liq sheriklar) bilan bir qatorda shirkat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlarini qo'shgan hissalar doirasida javobgar bo'ladigan hamda shirkat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda qatnashmaydigan bir yoki bir necha ishtirokchilar (hissa qo'shuvchi, kommanditchi) mavjud bo'lsa, bunday shirkat **kommandit shirkat** hisoblanadi.

Kommandit shirkatni ham to'liq shirkat kabi ishtirokchilarning soni uncha ko'p bo'lmasagan tijorat tashkilotlariga o'xshatish mumkin. Bunda ishtirokchilarning eng kam miqdori ikki shaxs (bitta to'liq sherik, bitta kommanditchi)dan iborat, eng ko'p miqdori esa qonun bilan cheklanmagan.

Kommandit shirkatdagi to‘liq sheriklar to‘liq shirkatdagidek shirkatning nomidan xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishadi.

Kommanditchilar shirkat faoliyatini boshqarishga hamda uning nomidan faoliyat ko‘rsatishga haqli emaslar. Shirkat nomidan vakolatnoma berilgan hollar esa bundan mustasno, shuning uchun ham kommanditchilar shirkat faoliyatida passiv ishtirok etadi. Biroq kommanditchi to‘liq shirkatga nisbatan muayyan ustunliklarga ega, ya’ni birinchidan, uning shirkat majburiyatlari bo‘yicha javobgarligi qo‘shgan hissasi bilan cheklangan bo‘lsa; ikkinchidan, shirkat tugatilayotganda kreditorlarning talabi qondirilgach, kommanditchilarning ham talabi qondiriladi.

Kommandit shirkat kommanditchilarning barchasi undan chiqib ketganda yoki to‘liq shirkatni tugatish uchun asos bo‘lgan holatlar vujudga kelganda tugatilishi mumkin. Kommandit shirkatda kommanditchilar qolmaganda, u to‘liq shirkatga aylantirilishi mumkin.

Unitar korxona – o‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot. (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 70-modda)

Unitar korxonaning mol-mulki bo‘linmasdir va u qo‘shilgan hissalar (ulushlar, paylar) bo‘yicha, shu jumladan korxona xodimlari o‘rtasida ham taqsimplanishi mumkin emas.

Unitar korxonaning firma nomida uning mol-mulkining egasi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Unitar korxonani boshqarish organi uning rahbari bo‘lib, bu rahbar mulkdor tomonidan yoki mulkdor vakil qilgan organ tomonidan tayinlanadi hamda ularga hisob beradi. Unitar korxona o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi. Unitar korxona o‘z mol-mulki egasining majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydi.

Unitar korxonaning mol-mulki unga xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida tegishlidir.

Fuqarolik kodeksining 72-moddasiga muvofiq davlat organining qaroriga muvofiq davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida operativ boshqaruvi huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi (davlat korxonasi) tashkil etilishi mumkin.

Davlat korxonasining mol-mulki yetarli bo‘lmanida davlat uning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgar bo‘ladi.

Fermer xo‘jaligi - ijara berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda, qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi sub’ekt. Fermer xo‘jaligi O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy subekti hisoblanadi. [30-aprel 1998 yil “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonun 3-modda]

Fermer xo‘jaligi o‘z ustavida va yer uchastkasini ijara olish shartnomasida nazardautilgan ixtisoslashuvga muvofiq faoliyati yo‘nalishlarini, ishlab chiqarish tuzilmasi va hajmlarini mustaqil ravishda belgilaydi. Fermer xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining qonunlarda taqiqilanmagan har

qanday turi bilan, shuningdek qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlash va realizasiya qilish bilan shug‘ullanishga haqli.

Fermer xo‘jalingining boshlig‘i fermer xo‘jalingining mol-mulki yetarli bo‘lмаган тақдирда fermer xo‘jalingining majburiyatları bo‘yicha o‘ziga qarashli mol-mulk bilan qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo‘лади.

Dehqon xo‘jaligi - oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga beriladigan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizasiya qiladi. [30-aprel 1998 yil “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunning 1-moddasi]

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi, hamda dehqon xo‘jaligi a’zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin. Dehqon xo‘jaligi o‘z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas.

Dehqon xo‘jaligi a’zolari jumlasiga birgalikda yashayotgan va dehqon xo‘jalingini birgalikda yuritayotgan oila boshlig‘i, uning xotini (yeri), bolalari, shu jumladan farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olgan bolalari, ota-onalari, mehnatga qobiliyatli yoshga yetgan boshqa qarindoshlari kiradi.

Dehqon xo‘jaligi boshlig‘i qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi berilgan oila boshlig‘i yoki oilaning muomalaga layoqatli a’zolaridan biridir.

Dehqon xo‘jaligi ixtiyoriylik asosida tuziladi hamda fuqaroga belgilangan tartibda yer uchastkasi berilganidan va dehqon xo‘jaligi davlat ro‘yxatiga olinganidan keyin tashkil etilgan hisoblanadi.

Dehqon xo‘jaligi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda va dovdaraxtlar bilan qoplanmagan o‘rmon fondi yerlarida, shuningdek zaxira yerlarda tashkil etiladi.

Dehqon xo‘jaligiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan tomorqa yer uchastkalari xususiy lashtirilishi va oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash ob‘ekti bo‘lishi mumkin emas. Yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi kredit olish uchun garovga qo‘yilishi mumkin.

Dehqon xo‘jaligiga berilgan tomorqa yer uchastkasi bo‘linishi mumkin emas.

Dehqon xo‘jaligi o‘z majburiyatları bo‘yicha qonunlarga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo‘lgan mol-mulki bilan javob beradi. Dehqon xo‘jaligi a’zolari dehqon xo‘jaligi mol-mulki yetarli bo‘lмагандага, qonun hujjatlariga muvofiq dehqon xo‘jalingining majburiyatları bo‘yicha o‘zlariga tegishli mol-mulk bilan solidar ravishda subsidiar javobgar bo‘лади.

Xususiy korxona tadbirkorlik subektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy korxona to‘g‘risida”gi 2003 yil 11 dekabrdagi N 558-II sonli Qonuniga muvofiq mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot xususiy korxona deb e’tirof etiladi.

Xususiy korxona mulkdori korxonani rahbar sifatida yakka boshqaradi, korxona nomidan ishonchnomasiz ish ko‘radi, uning manfaatlarini ifodalaydi, xususiy korxonaning pul mablag‘larini hamda boshqa mol-mulkini tasarruf etadi, shartnomalar, shu jumladan mehnat shartnomalari tuzadi, ishonchnomalar beradi, banklarda hisobvaraqlar ochadi, shtatlarni tasdiqlaydi, korxonaning barcha xodimlari uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi.

Xususiy korxonaning foydasi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan so‘ng korxona mulkdorining tasarrufiga o‘tadi hamda unga soliq solinmaydi.

Kichik tadbirkorlik subektlari va mikrofirmalar

“Tadbirkorlik” faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida” 2012 yil 2-maydagi O‘RQ-328-soni yangi tahrirdagi Qonunning 5-moddasida kichik tadbirkorlik subektlariga ham to‘liq izoh berilgan bo‘lib, unga ko‘ra kichik tadbirkorlik subektlari quyidagilardir:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar;

2) ishlab chiqarish tarmoqlaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan yigirma kishi, xizmat ko‘rsatish sohasidagi va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa tarmoqlardagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan o‘n kishi, ulgurji, chakana savdo hamda umumiylis ovqatlanish tarmoqlaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan besh kishi bo‘lgan mikrofirmalar;

3) quyidagi tarmoqlardagi:

yengil va oziq-ovqat sanoatidagi, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog‘ochsozlik, mebel sanoati, qurilish materiallari sanoati, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 200 kishi;

mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-yenergetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash, qurilish hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan ellik kishi;

fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohalari (sug‘urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiylis ovqatlanish hamda ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa sohalardagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan yigirma besh kishi bo‘lgan kichik korxonalar.

Kichik tadbirkorlik subektlari xodimlarining o‘rtacha yillik soni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda belgilanadi. Bunda o‘rindoshlik, pudrat shartnomalari va fuqarolik-huquqiy xarakterdagi boshqa shartnomalar bo‘yicha ishga qabul qilingan xodimlarning, shuningdek unitar (sho‘ba) korxonalarda, vakolatxonalar va filiallarda ishlayotganlarning soni ham hisobga olinadi.

Ishlab chiqarish kooperativi va shirkat xo‘jaligi

Ishlab chiqarish kooperativi xo‘jalik shirkati kabi shaxslarning hamda ularning mulk bilan qo‘shiladigan pay badallarini ixtiyoriy birlashmasi bo‘lib, unda uning a’zolarini kooperativ faoliyatida shaxsan ishtiroy etishi talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida aholining mahsulotlar, ishlar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun, shuningdek foyda (daromad) olish maqsadida tuziladigan matlubot, ishlab chiqarish va aralash ishlab chiqarish matlubot kooperativlari amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida kooperasiya jismoniy va yuridik shaxslarning iqtisodiy hamda ijtimoiy faoliyatning turli sohalarida umumiy maqsadlarga erishish uchun tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilgan, mulkning shirkat (jamoa) shakliga asoslangan ixtiyoriy birlashmalaridan (kooperativlaridan) iboratdir.

Kooperasiya, shuningdek o‘z a’zolarining uy-joy, maishiy va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan kooperativlarni (uy-joy qurish, uy-joy kooperativlarini, garaj qurish, chorbog‘ qurish va shu kabi kooperativlarni) ham o‘z ichiga oladi.

Kooperativ - yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan, jamoa mulki huquqi asosida o‘ziga qarashli mulkka egalik qiladigan, undan foydalanadigan va uni tasarruf etadigan mustaqil xo‘jalik yurituvchi subekt.

Ishlab chiqarish kooperativida a’zolarning shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishi kooperativning asosiy belgisi hisoblanadi. Agar kooperativning ustavida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, daromad ham aynan a’zolarning qilgan mehnatiga muvofiq taqsimlanadi. Chunki xo‘jalik jamiyatidan farqli ravishda ishlab chiqarish kooperativida birinchi o‘rinda kapital emas, balki mehnat turadi.

Kooperativlar tarmoq, hududiy va boshqa belgililar bo‘yicha xo‘jalik uyushmalariga ixtiyorilik asosida birlashishlari va yakka hokimlikka qarshi qonunlarning talablarini hisobga olgan holda ish olib borishlari mumkin.

Ishlab chiqarish kooperativida ham xo‘jalik shirkatidagidek, a’zolarning o‘zgarishi qattiq nazorat qilinadi, ammo ishtirokchilar tarkibining o‘zgarishi uni tugatish uchun asos bo‘lmaydi. O‘z majburiyatlarini bajarmagan yoki to‘liq bajarmagan kooperativ a’zosi umumiy majlis qarori bilan a’zolikdan chiqarib yuborilishi mumkin. A’zolikdan chiqarish to‘g‘risidagi qaror ishtirokchilarning oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Tadbirkorlik subektlarining uyushma va ittifoqlari

Tijorat tashkilotlari o‘z tadbirkorlik faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek mushtarak mulkiy manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida notijorat tashkilotlar hisoblanuvchi uyushmalar (ittifoqlar) va o‘zga birlashmalarga birlashishlari mumkin.

Agar ishtirokchilarning qaroriga muvofiq uyushmaga (ittifoqqa) va o‘zga birlashmaga tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish vazifasi yuklatilsa, bunday uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashma belgilangan tartibda xo‘jalik shirkati yoki jamiyatiga aylantirilishi kerak yoxud tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun xo‘jalik jamiyatlari tuzishi yoki ularda ishtirok etishi mumkin.

Uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashmalar yuridik shaxs hisoblanadi. Uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashmalarning a’zolari o‘z mustaqilliklarini va yuridik shaxs sifatidagi huquqlarini saqlab qoladi. Uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashmalar o‘z a’zolarining majburiyatları bo‘yicha javob bermaydi. Uyushma

(ittifoq) va o‘zga birlashmalarning a’zolari ularning majburiyatlari bo‘yicha uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashmalarning ta’sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorda va tartibda subsidiar javobgar bo‘ladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xo‘jalik boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2003 yil 22 dekabrda qabul qilingan PF–3366-sonli Farmoniga ko‘ra tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil etiladigan xo‘jalik birlashmalari xo‘jalik boshqaruvi organlari hisoblanadi:

tarkibiga kiruvchi korxonalarning xo‘jalik birlashmasiga tegishli bo‘lgan aksiya paketlari orqali ana shu korxonalarning xo‘jalik boshqaruvini amalga oshiruvchi aksiyadorlik kompaniyalari, shu jumladan davlat-aksiyadorlik kompaniyalari;

muassis-korxonalar tomonidan ular faoliyatiga ko‘maklashish uchun muassis-korxonalarning aksiyalari paketlarini boshqarish huquqisiz ayrim umumiyl vazifalarni ularga topshirish yo‘li bilan ixtiyorilik asosida tashkil qilinadigan uyushmalar.

Xo‘jalik birlashmalarining asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagicha belgilab qo‘yilgan:

- tarmoq va iqtisodiyot sohalarini barqaror rivojlantirishning istiqbolli strategiyasini belgilash;
- marketing tadqiqotlarini tashkil etish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishni (ishlar, xizmatlarni) o‘zlashtirish, ularning jahon bozorlariga kirib borishiga ko‘maklashish;
- korxonalarni modernizasiya qilish va texnologik jihatdan qayta qurollantirish, ushbu maqsadlarga xorijiy investisiyalarni keng jalb qilishda yordam berish;
- ular tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarga axborot xizmatlari ko‘rsatish;
- kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish.

Nazorat savollari:

1. Tadbirkorlik (biznes) huquqi sub’ektlari kimlar bo‘lishi mumkinligi va ular qanday belgilarga ega bo‘lishi kerakligi haqida qonun hujjatlari asosida ma’lumot bering.
2. Davlat ham tadbirkorlik sub’ekti bo‘lishi mumkinmi, agar shunday bo‘lsa u tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi qanday?
3. Aholining alohida toifalariga tadbirkorlik bilan shug‘ullishlari uchun tegishli imtiyolar berilganmi va bu nimalarda ko‘rinadi?
4. Qachondan boshlab fuqaro tadbirkorga aylanadi va fuqarolarni tadbirkor sifatida ro‘xatga olishning zarurini izohlang.

5. Tadbirkorlar davlat tomonidan qanday tasniflanadi va ular faoliyatini nazorat qilish qanday amalga oshiriladi?
6. Chet el fuqarolari va yuridik shaxslarining O‘zbekistonda tadbirkor sifatida e’tirof etilishi qay tartibga amalga oshiriladi?

2. Tadbirkorlik faoliyatida shartnomalar, ruxsat berish tartib-taomillari

Reja:

1. Tadbirkorlik shartnomalarining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Tadbirkorlik shartnomalarini rasmiylashtirish.
3. Tadbirkorlik shartnomalarida talabanoma.
4. Tadbirkorlik shartnomalarida javobgarlik masalalari.
5. Tadbirkorlik faoliyatida ruxsat berish tartib taomillari.
6. Ruxsat olinishi lozim bo‘lgan faoliyat yo‘nalishlaridagi asosiy talab va shartlar.
7. Ruxsat berish tartib taomillarini erkinlashtirish.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda shartnomalar tuzish, o‘zgartirish va bekor qilish masalalarini chuqur bilish talab qilinadi. Sababi tadbirkor ish faoliyatini boshlash, yuritish va to‘xtatish jarayonida shartnomalar tuzishga har doim ehtiyoj sezadi.

Shuning uchun ham unga quyidagicha munosabat bildiriladi: “Shartnoma – bu bozor munosabatlari sharoitida barcha mulk shaklidagi korxonalar, shuningdek qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda boshqaruв organlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni o‘rnatuvchi asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi”

“Man Sin” korporasiyasi ijro organi rahbari Manjid Sing korporasiyaning yuridik departamenti boshlig‘i Ranjit Singxga o‘z hamkorlari bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishdan oldin O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik shartnomalariga bo‘lgan munosabat, ularning huquqiy tartibga solinishi, shartnomaviy munosabatga kirishishning o‘ziga xosligi haqida ma’lumotlar taqdim qilishni so‘radi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi sub’ektlar o‘z faoliyatida turli xil shartnomalarni tuzadilar: ta’sis shartnomalari, mehnat shartnomalari, tadbirkorlik shartnomalari va h.k.

Tadbirkorlik shartnomasi — taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to‘lash majburiyatini oladigan kelishuv.

Tadbirkorlik faoliyati shartnomasi to‘rt qismdan tashkil topadi:

- 1) kirish;
- 2) shartnoma predmeti, taraflarning huquq va majburiyatları;
- 3) shartnomaning qo‘shimcha shartları;

4) shartnomaning boshqa shartlariga ajratish mumkin.

Tadbirkorlik shartnomasining kirish qismida quyidagilar: shartnomaning nomi (mahsulot yetkazib berish, kredit, transport vositalari ijarasi, qurilish pudrati va hokazolar); shartnomani imzolash vaqt va joyi; shartnoma taraflarining to‘liq nomi, taraflarning shartnoma bo‘yicha nomlanishi (masalan, “litsenziat”, “kreditor” va shu kabilar); shartnomani imzolayotgan shaxsnинг to‘liq nomi va mansabi, shuningdek unga shartnomani imzolash huquqini beruvchi hujjat (ustav, nizom yoki ishonchnoma) ko‘rsatilishi lozim.

Tadbirkorlik shartnomasining ikkinchi qismida shartnoma predmeti; taraflarning shartnoma bo‘yicha huquq va majburiyatları; taraflarning o‘z majburiyatlarını bajarish muddatlari; taraflar majburiyatlarını bajarish joyi; taraflar majburiyatlarını bajarish usullari (harakatlar tartibi, ketma-ketligi va h.k.) ko‘rsatiladi.

Tadbirkorlik shartnomasining uchinchi qismi barcha shartnomalar uchun majburiy emas. Ammo bunday shartlar mavjud bo‘lgan taqdirda taraflar huquq va majburiyatlariga, shuningdek ularni bajarish tartibiga ta’sir qiladi.

Tadbirkorlik shartnomasining qo‘sishimcha shartlariga shartnomaning amal qilish muddati, taraflarning javobgarligi, majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usullari; shartnomani bir taraflama bekor qilishning asoslari va oqibatlari, shartnoma bo‘yicha ma'lumotlarni sir saqlash, nizolarni hal qilish tartibi kabilar kiradi.

Taraflarning shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarını bajarish muddatlari ko‘rsatilgan taqdirda ham tadbirkorlik shartnomasining amal qilish muddati ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq. Bu holat shartnomaning amal qilish muddati qachon tugashini bilish va taraflar shartnomani bajarishdan bosh tortganlik uchun talabnama va da’vo qilish muddatining boshlanishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Tadbirkorlik shartnomasining qo‘sishimcha shartlaridan yana biri, bu majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usullaridir. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, tadbirkorlik shartnomasining bajarilishi neustoyka, garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat hamda qonun hujjalarda yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ta’minlanishi mumkin.

Odatda, tadbirkorlik shartnomalari faqat taraflarning kelishuviga muvofiq bekor qilinishi mumkin, ammo taraflar shartnomada uni bir tarafning tashabbusi bilan ham bekor qilish to‘g‘risidagi shartlarni kiritishlariga yo‘l qo‘yiladi. Shuningdek, shartnomada uning qaysi shartlari sir saqlanishi va taraflar tomonidan oshkor qilinishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilishi mumkin.

Tadbirkorlik shartnomasining to‘rtinchi qismi o‘z ichiga taraflar o‘rtasidagi munosabatlar shartnomadan tashqari yana qanday meyorlar bilan tartibga

solinishini; taraflar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish haqidagi maylumotlarni; shartnoma tuzishdan oldin olib borilgan ishlar va ularning shartnoma imzolangandan keyingi natijalarini; taraflarning rekvizitlarini; shartnoma nusxalari soni haqidagi ma'lumotlarni; shartnoma matniga o'zgartirishlar kiritish tartibini; taraflar vakillarining imzolarini oladi.

Taraflar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish haqidagi shartlarda axborot berish va shartnomaning bajarilishiga taalluqli bo'lgan masalalarini hal qilishga vakolatli shaxslar (nomlari yoki mansabi), shuningdek aloqa turlari (telefon, faks va h.k.) ko'rsatiladi.

Taraflarning rekvizitlariga — pochta indeksi, manzili, hisob-kitob raqami, bank muassasasining nomi, kodi, MFO, soliq to'lovchining identifikasiya raqami, yuklash rekvizitlari kiradi va ular tadbirdorlik shartnomasida aniq ko'rsatilishi lozim. Shartnomada uning nusxalari soni va ularning haqiqiyligi ko'rsatiladi. Shartnoma matniga o'zgartirishlar kiritish tartibining belgilanishi shartnoma qalbakilashtirilishining oldini oladi.

Har bir shartnoma uni tuzgan taraflar yoki ularning to'liq vakolatga ega bo'lgan vakili tomonidan imzolanadi, shuningdek shartnoma yuridik xizmat xodimi yoki advokat tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi, muayyan holatlarda shartnoma yuzasidan yuridik xulosa berilishi talab qilinadi.

Shartnoma ikki va undan ortiq taraflar o'rtasida tuziladigan bitim bo'lganligi sababli u oferta, aksept, yuridik ekspertizadan o'tkazishi va shartnomaning imzolash bosqichlaridan iborat. Taklif oferta, taklifni kiritgan shaxs esa oferent deb ataladi. Taklifning qabul qilinishi aksept, taklifni qabul qilgan shaxs esa akseptant deb ataladi.

Shartnomaning tuzish ofertadan boshlanadi. Ofertalar ikki turga bo'linadi.
Bular: Akseptlash muddati ko'rsatilgan oferta

Odatda ofertada unga berilishi kerak bo'lgan javob muddati ko'rsatilgan bo'lsa, oferent shu muddat ichida o'z ofertasiga javob kutishi lozim. Aks holda agar u muddatning oxirigacha kutmay turib boshqa shaxs bilan shartnoma tuzsa, ofertani birinchi qabul qilgan va shu bilan shartnoma tuzgan deb hisoblangan tarafga yetkazilgan zararni qoplashga majbur bo'ladi.

Akseptlash muddati ko'rsatilmagan oferta

Ofertada javob muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda muzokaralar qanday usulda olib borilayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Muzokaralar orali shartnomaning shartlari shakllantirilishi mumkin.

Og'zaki berilgan oferta, muzokaralar yuzma-yuz muloqot, telefon yoki radio orqali olib borilayotganligidan qat'i nazar, agar u darhol akseptlansa, oferentni "bog'lab" qo'yadi. YOzma berilgan oferta esa avval uning matni bilan tanishib chiqishni, javob matni tuzishni va uni oferentga topshirishni talab qiladi.

Shuning uchun oferent javob yetib kelishi uchun zarur bo‘lgan muddat ichida oferta bilan “bog‘langan” bo‘ladi.

Ofertada ko‘rsatilgan yoki javob yetib kelishi uchun zarur bo‘lgan muddat ichida aksept yetib kelganligi shartnoma tuzilganligi bilan teng. Aksincha, agar ko‘rsatilgan muddat ichida aksept kelmasa, u holda ofertaning oferentni “bog‘lab” turgan kuchi yo‘qoladi va oferent avval o‘zi bergen taklifdan kelib chiqqan majburiyatlardan ozod bo‘ladi.

Shartnomani tuzish uchun berilgan taklifda quyidagilar mavjud bo‘lsagina oferta deb hisoblanadi:

1. bo‘lg‘usi shartnomaning barcha muhim shartlari;
2. oferta yuborilayotgan shaxs aniq ko‘rsatilganligi.

Agar berilgan taklifda bu bandlardan bittasiga rioya qilinmagan bo‘lsa ham, u oferta deb emas, balki ofertaga da’vat deb hisoblanadi va uni bergen shaxsga hech qanday majburiyatlarni yuklamaydi. Bunday da’vatga turli javoblar kelishi mumkin. Balki ulardan ba’zilarida shartnomani tuzish uchun zarur bo‘lgan barcha shartlar sanab o‘tilgan va ofertaga dayvat etgan shaxs nomiga yuborilgan bo‘lishi ham mumkin. Bunday javob oferta kuchiga ega bo‘ladi, lekin uni shartnomaning tuzilishiga olib keladigan aksept deb bo‘lmaydi, chunki u huquqiy ma’nodagi shartnoma tuzish haqidagi taklifga kelgan javob emas.

Shartnomaviy munosabatlarga kirishish uchun oferta va akseptning mavjudligi majburiy shart emas. Ularsiz ham shartnoma tuzish mumkin. Tadbirkorlik shartnomalarini huquqiy (yuridik) ekspertizadan o‘tkazish shartnoma taraflarining yuridik xizmati yoxud shartnoma asosida jalb etilgan advokatlar, advokatlik tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik shartnomalari borasida yuridik xizmat:

- tadbirkorlik shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilishning belgilangan tartibiga rioya etilishini, shuningdek talabnoma bildirish va uni ko‘rib chiqish tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;
- shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar yuzasidan dayvo ishlarini olib boradi;
- shartnomalari bajarilish ustidan o‘zaro tekshiruvlar o‘tkazilishini nazorat qiladi;
- tadbirkorlik sub’ekti rahbariga imzolash uchun taqdim etilayotgan tadbirkorlik shartnomalari loyihibarining va ular bilan bog‘liq huquqiy tusdagi boshqa hujjatlarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini tekshiradi;
- tayyorlangan xo‘jalik shartnomasi va u bilan bog‘liq huquqiy tusdagi boshqa hujjat loyihasi qonun hujjatlari talablariga mos emasligi aniqlangan taqdirda o‘z e’tirozini asoslagan holda uni qo‘sishimcha ravishda ishlab chiqish uchun qaytaradi;

— shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishda bevosita ishtirot etadi.

Tadbirkorlik shartnomalari ularni imzolashga tayyorlash jarayonida qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan tekshirib ko‘rilishi kerak. Shartnomalarni huquqiy ekspert imzosisiz tuzishga yo‘l qo‘ymaydi.

Xulosada quyidagilar ko‘rsatiladi:

- tadbirkorlik shartnomasida ko‘rsatilgan munosabatlar qaysi qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi;

- tadbirkorlik shartnomasi shartlarining qonun hujjatlari talablariga mos kelish-kelmasligi;

- taraflarning javobgarligi me’yori va nizolarni hal etish tartibi qonun hujjatlari talablariga mos kelish-kelmasligi.

Quyidagilar yirik bitimlar (shartnomalar) hisoblanadi:

- Aksiyadorlik jamiyatatlari uchun jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog‘liq bitim yoki o‘zaro bog‘langan bir nechta bitim, boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati jamiyat so‘f aktivlari miqdorining o‘n besh foizidan ortig‘ini tashkil etgan bitim.

- Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘sishimcha mas’uliyatli jamiyatlar uchun jamiyat mol-mulki qiymatining yigirma besh foizidan ortiq qiymatga ega bo‘lgan mol-mulkni jamiyatning olishi, tasarrufidan chiqarishi yoki jamiyat bevosita yoxud bilvosita mol-mulkni tasarrufidan chiqarishi ehtimoli bilan bog‘liq bo‘lgan bitim yoki o‘zaro bog‘liq bir nechta bitim.

- Oilaviy korxonalar yirik bitimni o‘z ustavida belgilab qo‘yadi.

Tadbirkorlik shartnomasi odatda yozma shaklda tuziladi. Amaliyotda shartnomaning oddiy, yozma shakli keng tarqalgan bo‘lib, u taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo‘li bilan rasmiylashtiriladi.

Tadbirkolik shartnomasi qonunda ko‘rsatilgan hollarda va taraflardan birining talabi bo‘yicha notarial tasdiqlanishi shart. Shartnomani notarial tasdiqlash notarius yoki bunday notarial harakatni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan boshqa mansabdor shaxs tomonidan shartnomada tasdiqlovchi ustxat yozib qo‘yish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Amaldagi qonun hujjatlarida ayrim tadbirkorlik shartnomalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish belgilab qo‘yilgan. Masalan, yer uchastkalari va boshqa ko‘chmas mol-mulk bilan bog‘liq tadbirkorlik shartnomalari (boshqa shaxsga berish, ipoteka, uzoq muddatli ijara v.b.) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi kerak. Shartnomaning notarial shakliga yoki uni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talabiga rioya qilmaslik xo‘jalik shartnomasining haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi. Bunday shartnoma o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaydi.

Tadbirkorlik shartnomalari taraflari, ularning huquq va majburiyatları

YUridik shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar tadbirkorlik shartnomalarining sub'ekt (taraf)lari bo'ladi. Tadbirkorlik shartnomasida davlat manfaatlarini ko'zlab, davlat organlari yoki u vakolat bergen boshqa tashkilotlar ishtirok etishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 1998-yil 29-avgustdagi O'RQ-670-I-son Qonuniga muvofiq xo'jalik shartnomalari qu'yidagi huquq va majburiyatlarga ega.

Tadbirkorlik shartnomasi tarafining huquqlari

- shartnomalarni tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni so'rash va olish;
- shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq masalalar yuzasidan ekspertlarning yozma xulosalarini so'rash va olish, mutaxassislar bilan maslahatlashish;
- davlat organlari va boshqa organlarga, mansabdar shaxslarga iltimosnomalar bilan murojaat etish hamda shiko'atlar berish va ulardan asoslantirilgan yozma javoblar olish;
- boshqa tarafning iqtisodiy ahvoli, nufuzi va ishchanlik jihatlari xususidagi ma'lumotlarni to'plash;
- o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonunda nazarda tutilgan vositalari va usullarini qo'llash.

Tadbirkorlik shartnomasi tarafining majburiyatları

- shartnomalar to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga rioya etishlari;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda shartnomalarining o'z vaqtida tuzilishini ta'minlash;
- tuzilgan shartnomalar bo'yicha zimmalariga olingan majburiyatlarni o'z vaqtida va tegishli tartibda bajarishlari shart.

Tadbirkorlik shartnomasi tarafining majburiyatları

- shartnomalar to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga rioya etishlari;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda shartnomalarining o'z vaqtida tuzilishini ta'minlash;

— tuzilgan Tadbirkorlik shartnomasining taraflarni shartnomaviy munosabatga kirishayotganda shu sohani tartibga soluvchi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo‘ladi.

Misol uchun, 2009 yil 22 avgustdagি O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 245-son qarori bilan tasdiqlangan Elektr energiyasidan foydalanish qoidalariga ko‘ra sanoat iste’molchilariga elektr energiyasini tejash bo‘yicha (yillik va uzoq istiqbol uchun) tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish majburiyati ham yuklanadi. Yoki O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 maydagi O‘RQ-328-son “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra tadbirkorlik sub’ektlari o‘z tovarlarini (ishlarini, xizmatlarini), ishlab chiqarish chiqindilarini bozor konyyunkturasidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilanadigan narxlar va tariflar bo‘yicha yoki shartnoma asosida realizasiya qilishga haqli.

Bulardan tashqari, taraflar shartnomaviy munosabatga kirishishda o‘z huquq va majburiyatlarini qonun doirasida mustaqil belgilashlari mumkin. Misol uchun, shartnoma yuzasidan to‘lovlarni oldindan to‘liq to‘lash majburiyati belgilanishi mumkin.

bo‘yicha zimmalariga olingan majburiyatlarni o‘z vaqtida va tegishli tartibda bajarishlari shart.

Tadbirkorlik shartnomasi majburiyatları yuzasidan javobgarlik

Fuqaroviylar (shartnomaviy) javobgarlik. Shartnomaning muhim shartlaridan biri unda ishtirok etuvchi taraflar majburiyatlarining belgiladi. Bundan tashqari, taraflar qonun hujjatlarida va ish muomalasidan kelib chiqadigan majburiyatlarga ham ega bo‘ladi. Muayyan taraf sifatida ishtirok etuvchi sub’ekt tomonidan ushbu majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida boshqa tarafga zarar yetkazilsa, ushbu zararni qoplash majburiyati vujudga keladi.

Misol uchun, mahsulot yetkazib berish shartnomasiga ko‘ra yetkazib beruvchi (sotuvchi) shartnomada nazarda tutilgan mahsulotni o‘z vaqtida yetkazib bermagan hollarda mazkur mahsulot yetkazib berish majburiyati bilan birga kechiktirilganlik tufayli olinmasdan qolning foydani ham qoplab beradi.

Bundan tashqari, shartnoma shartlarini o‘z vaqtida lozim darajada bajarilishi ta’minalash maqsadida taraflar shartnomada har bir holat yuzasidan boshqa fuqarolik javobgarlik choralarini belgilashlari mumkin.

Misol uchun, sifatsiz mahsulotni yetkazish evaziga yetkazilgan ziyonni qoplash bilan bir qatorda qo‘srimcha to‘lovlarni amalga oshirish, xaridorning boshqalar oldidagi nufuzini saqlash maqsadida raddiyalar berish.

Shartnomada nazarda tutilmagan hollarda majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik tufayli qo'llaniladigan fuqaroviylar javobgarlik choralari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 1998 yil 29 avgustdagagi O'RQ-670-I-son Qonunida shartnoma majburiyatlarining buzilish holatlariga quyidagicha javobgarlik choralari belgilangan.

Shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun mansabdor shaxsning ma'muriy javobgarligi. Taraflarning shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarini buzganlik uchun mansabdor ma'muriy javobgarlikka ham tortiladilar.

Shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun mansabdor shaxsning jinoiy javobgarligi. Taraflarning shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarini buzganlik uchun mansabdor jinoiy javobgarlikka ham tortilishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatida hisob-kitob munosabatlarini huquqiy ta'minlash

Fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlari bilan bog'liq bo'lmasa ular o'rtaqidagi hisob-kitoblar va fuqarolar ishtirokidagi hisob-kitoblar naqd pullar bilan yoki naqd pulsiz summasi cheklanmagan holda amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sod Farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlar (xizmatlar) uchun xorijiy valyutada to'lovlarни amalga oshirish taqiqlangan, xalqaro tajribaga muvofiq xalqaro to'lov kartalari orqali amalga oshiriladigan to'lovlar bundan mustasno.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar bank plastik kartalaridan foydalangan holda ham amalga oshirilishi mumkin.

Bank hisobvarag'i shartnomasida boshqa muddatlar belgilab qo'yilgan bo'lmasa, bank tegishli to'lov hujjati bankka kelib tushgan kunda mablag'larni mijozning hisobvarag'iga kirish qilishi yoki mablag'larni uning hisobvarag'idan hisobdan chiqarishi shart.

Mablag'larni to'lovchining hisobvarag'ida unga qo'yilgan talablarni qondirish uchun yetarli miqdorda mablag'lar bo'lmasa taqdirda mablag'larni hisobdan chiqarish Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi Nizom bilan tartibga solinadi.

Mazkur nizom naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshiradigan, O‘zbekiston Respublikasining barcha yuridik va jismoniy shaxslariga (“mijozlarga”) - rezidentlari va nerezidentlariga taalluqli.

Yuridik shaxslar o‘rtasidagi hisob-kitoblar, shuningdek fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog‘liq holda ular ishtirokidagi hisob-kitoblar naqd pulsiz tartibda amalga oshiriladi. Ko‘rsatib o‘tilgan shaxslar o‘rtasidagi hisob-kitoblar agar qonunda boshqacha tartib belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, naqd pulda ham amalga oshirilishi mumkin.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar amalga oshirilganda to‘lov topshiriqnomalari, akkreditivlar, cheklar bilan hisob-kitob qilishga, inkasso bo‘yicha hisob-kitob qilishga, shuningdek qonunda, qonunga muvofiq chiqariladigan bank qoidalarida hamda bank amaliyotida qo‘llanilayotgan ish muomalasi odatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda hisob-kitob qilishga ham yo‘l qo‘yiladi.

Mablag‘larni to‘lovchi va mablag‘larni oluvchi tomonidan tuzilgan shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun to‘lanishi zarur bo‘lgan penyani hisoblash va undirish bo‘yicha banklar javobgar bo‘lmaydi.

Mijoz hisob-kitob operasiyalariga doir barcha masalalar bo‘yicha unga xizmat ko‘rsatuvchi bankka murojaat qiladi. Bank va mijoz o‘rtasidagi nizolar ular o‘rtasida tuzilgan bank hisobvarag‘i shartnomasiga muvofiq hal qilinadi. O‘zaro kelishuvga erishilmagan taqdirda masalalar sud orqali hal etiladi.

Inkasso topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar

Inkasso topshiriqnomasi — mablag‘larni oluvchining inkasso topshiriqnomasida ko‘rsatilgan summani mablag‘larni to‘lovchining hisobvarag‘idan so‘zsiz ravishda hisobdan chiqarish bo‘yicha topshirig‘i nazarda tutilgan hisob-kitob hujjati. Inkasso topshiriqnomasi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning faqat asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga taqdim etilishi mumkin.

Inkasso topshiriqnomasini topshirish yoki jo‘natishda u bankning bosh buxgalteri va mijozning hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatuvchi buxgalterning imzosi va bankning muhri bilan tasdiqlanadi hamda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan holda ustxat yoziladi:

- inkasso topshiriqnomasining bankka kelib tushgan sanasi;
- inkasso topshiriqnomasi bo‘yicha mablag‘ qisman to‘langan bo‘lsa, undirib olingan summaning miqdori;
- inkasso topshiriqnomasini topshirish yoki jo‘natish sanasi.

Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari hisob va hisobotni qonun hujjatlariga muvofiq yuritadi. Hisobot tadbirkorlik sub'ektining xohishiga ko'ra qog'ozda va (yoki) elektron shaklda tayyorlanishi mumkin. Tadbirkorlik sub'ektlarining elektron shaklda taqdim etilgan hisoboti tadbirkorlik sub'ektining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi. Davlat tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan elektron shaklda hisob yuritilishini dasturiy ta'minotni imtiyozli shartlarda yoki bepul tarqatish orqali rag'batlanadiradi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari faqat davlat statistika organlari va davlat soliq xizmati organlariga, yakka tartibdagi tadbirkorlar esa davlat soliq xizmati organlariga belgilangan shakllarda hisobot taqdim etadi.

Tadbirkorlik faoliyatida ruxsat berish tartib taomillari

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish va erkin bozor munosabatlarini ta'minlovchi tamoyillarni yanada takomillashtirish uchun tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini qo'llab quvatlash hamda ushbu faoliyatni rivojlantirish yo'lidagi ortiqcha byurokratiyani oldini olish, tadbirkorlarning erkin faoliyatiga yetkaziladigan to'siqlarni bartaraf etish, tadbirkorlar bilan davlat oганлари о'rtasidagi munosabatlarni qonun doirasidagina amalga oshirilishini ta'minlash dolzarb ahamiyatga ega sanaladi. Bu o'rinda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga ruxsat berish tartibi va taomillarining murakkablashuvi va ko'payishini oldini olish, tadbirokorlik faoliyatiga ruxsat berish tartibini soddallashtirish muhim masalalardan biridir.

Ruxsat berish tartib taomillari nima?

O'zbekiston Respublikasi "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida ruxsat berish tartib taomillari tushunchasiga ta'rif berilgan. Ushbu moddada tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomili (ruxsat berish tartib-taomili) — harakatlarni bajarish va (yoki) muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berish to'g'risidagi arizaning topshirilishi va ko'rib chiqilishi, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning berilishi, amal qilish muddatining uzaytirilishi, to'xtatib turilishi, qayta tiklanishi, tugatilishi, qayta rasmiylashtirilishi va bekor qilinishi jarayoni bilan bog'liq tadbirlar majmui ekanligi belgilangan. YA'ni, tadbirkorlik sub'ektining tadbirkorlik bilan bog'liq muayyan faoliyatini amalga oshirishi uchun vakolatli davlat organi tomonidan uning ushbu faoliyatni amalga oshirga nicbatan huquqlarini tan olgan holda ushbu huquqlarni xujjatlashtirish orqali ruxsat berishga qaratilgan huquqiy harakatlar majmui nazarda tutiladi.

Ruxsat berish tartib taomillarining ahamiyati shundaki, ushbu tizim tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlariga va qonuniy manfaatlariga, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga, jamoat xavfsizligiga ziyon hamda atrof-muhitga zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan tadbirkorlik faoliyati turlariga nisbatan joriy etilib, mazkur faoliyatni amalga oshirishda alohida tartib va qoidalarga qat'iy rioxva etilishi nazarda tutiladi. Shu bilan birga belgilanayotgan ruxsat berish tartib taomili tadbirkorlik faoliyatidagi raqobatni cheklamasligi, tushunarli, ochiq va oshkora bo'lishi, tadbirkorlik sub'ektlarining qonuniy huquqlari ustuvorligini ta'minlashi zarurdir.

Ruxsat olinishi lozim bo'lgan faoliyat yo'nalishlaridagi asosiy talab va shartlar nimalardan iborat?

Ruxsat olinishi lozim bo'lgan faoliyat yo'nalishlaridagi asosiy talablar sifatida Tadbirokorlik sub'ektlarining biznes faoliyatini olib borishida qonun hujjatlariga qat'iy tartibda amal qilishi, ekologik, sanitarni-gigienik va jamiyat manfaatlariga putur yetkazmay faoliyat olib borishi, shuningdek, Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarda ko'rsatilgan muayyan doiradagi faoliyatni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Ruxsat berish tartib taomillarini erkinlashtirishning zarurati nimada?

Tadbirokorlik sub'ektlarining faoliyatini erkinlashtirish, ularning faoliyatiga asosiz aralashuvlarga barham berish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanib, bunday chora-tadbirlar tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga ruxsat berish tartib taomillariga nisbatan ham qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu sohada olib borilayotgan huquqiy islohotlar tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati erkinligini asossiz cheklashga qarshi kurashish, byurokratiyaga yo'l qo'ymaslik, ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirishga doir bir talay normativ huquqiy hujjatlarni qabul qilinishida o'z aksini topmoqda.

Lekin ruxsat olish holatlarining me'yorida ortiq joriy etilishi, ruxsat berish jarayoning murakkab tartib va mexanizmlarga ega ekanligi tadbirkorni ayrim mansabdor shaxslar tomonidan turli bahonalarni ro'kach qilgan holda ovora va sarson bo'lishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida korrupsiyaning keng avj olishiga, tadbirkorlarning huquq va erkinliklarining poy mol bo'lishiga va bu orqali mamlakatimizda tadbirokorlik, ishbilarmonlik va investisiya muhitiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

I. Faoliyatning ayrim turlarini lisenziyalash

➤ **Litsenziya** — litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so‘zsiz rioya etilgani holda faoliyatning lisenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (huquq);

➤ **litsenziya da’vogari** — litsenziyalovchi organga faoliyatning lisenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziya berish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat etgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

➤ **litsenziyat** — faoliyatning lisenziyalanadigan turini amalga oshirish litsenziyasi bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

➤ **litsenziya shartnomasi** — faoliyatning lisenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziyatning litsenziya olishi va undan foydalanishi borasidagi litsenziyalovchi organ bilan lisenziya da’vogari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan va ular o‘rtasida tuziladigan shartnomasi;

➤ **litsenziyalar reestri** — berilgan, to‘xtatib turilgan, qayta tiklangan, qayta rasmiylashtirilgan, bekor qilingan litsenziyalar, shuningdek amal qilishi tugatilgan litsenziyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan litsenziyalovchi organlarning ma’lumotlar bazalari majmui.

Lisenziyalash sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda litsenziyalovchi organlar amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

✓ litsenziyalovchi organlarni va faoliyatning ayrim turlarini lisenziyalash tartibini belgilash, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

✓ O‘zbekiston Respublikasi hududida litsenziyalar reestrini yuritish tartibini belgilash;

✓ faoliyatning ayrim turlarini lisenziyalash sohasidagi qonun hujjatlariga lisenziyalovchi organlarning rioya etishlarini nazorat qilish;

✓ litsenziyalashning ayrim turlarini amalga oshirish.

Lisenziyalovchi organlarning vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

✓ faoliyatning ayrim turlarini qonun hujjatlariga muvofiq lisenziyalash;

✓ qonunda nazarda tutilgan hollarda faoliyatning tegishli turlarini lisenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash;

✓ litsenziya talablari va shartlariga litsenziyatlar rioya etishini nazorat qilish;

- ✓ litsenziyalarni qayta rasmiylashtirish;
- ✓ litsenziyalarning amal qilishini to‘xtatib turish, qayta tiklash;
- ✓ litsenziyalarning amal qilishini tugatish;
- ✓ litsenziyalarni bekor qilish;
- ✓ litsenziyalar reestrini yuritish.

Litsenziyalovchi organlar shu organlar litsenziyalaydigan faoliyat turlari bilan shug‘ullanayotgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tuzishga yoki ular faoliyatida muassislar (qatnashchilar) sifatida ishtirok etishga haqli emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Faoliyatning litsenziyalanadigan turlari jumlasiga amalga oshirilishi fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, sog‘lig‘iga, jamoat xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan hamda tartibga solib turilishi litsenziyalashdan tashqari usullar bilan amalga oshirilishi mumkin bo‘limgan faoliyat turlari kiradi.

Amalga oshirilishi uchun litsenziya talab qilinadigan faoliyat turlari qonunlar bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar (yakka tartibdagи tadbirkorlar) faoliyatning litsenziyalanadigan ayrim turlarini amalga oshirishini taqiqlab qo‘yishi mumkin, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Nazorat savollari:

1. Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning asosiy prinsiplari mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
2. Tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va majburiyatlarini nimalardan iborat bo‘lishi mumkin?
3. Tadbirkorlik shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish, bajarish va bekor qilish tartiblarini tushuntirib bering.
4. Tadbirkorlik shartnomalari bo‘yicha talabnomalar va da’volar bildirishning huquqiy jihatlarini yoritib bering.
5. Tadbirkorlik shartnomalari bo‘yicha yuridik xizmat ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Tadbirkorlik shartnomalari bo‘yicha javobgarlikni belgilash tartibini tushuntiring.
7. Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari mohiyatini yoriting, zarurati va huquqiy asoslarini sanang.

8. Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillarining asosiy prinsiplarini sanang.
9. Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillariga oid faoliyat olib boradigan vakolatli organlarni sanang va vakolatlarini aytib bering.
10. Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar nimalardan iborat?

3. Bankrotlikni huquqiy tartibga solish, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tugatishning huquqiy asoslari

Reja:

1. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini erkin amalga oshirish.
2. Tadbirkorlik faoliyatini fuqarolik-huquqiy normalar bilan tartibga solish.
3. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida insofsiz raqobat.

Konstitusiya bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyat yuritish asoslarini nazarda tutadigan va mukammal kafolatlar tizimini o‘z ichiga olgan ustuvor qonundir. Shuningdek, jamiyatda umumbashariy qadriyatlar inson omili va ijtimoiy, siyosiy va huquqiy faolligini kafolatlaydigan hamda aholining davlat va jamiyat ishlarida bevosita qatnashishini ta’minlaydigan huquqiy asosdir.

Konstitusiyaviy me’yorlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati erkinligining huquqiy kafolatlari ham belgilab berilgan. Shu bois, bosh qomusimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati erkinligining konstitusiyaviy kafolatlari yaratilganligi bir tomondan, undagi normalarning bevosita hayotga tatbiq etilayotganlidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan esa uning normativ qoidalari qonunchilik hujjatlari, xususan, qonunlar, Prezidentning farmon, farmoyish va qarorlarida va boshqa davlat organlari tomonidan qabul qilinayotgan me’yoriy hujjatlarda izchil va tizimli tahlil qilish asosida amaliyotdagi muammolarni tadbirkorlar huquq va manfaatlari nuqtai-nazaridan hal etilayotganligi, ularning erkin faoliyat yuritishning shart-sharoitlari yaratilayotganligi, jamiyatda ushbu sub'ektlarning tutgan o‘rni va obro‘sining oshishida muhim omil bo‘lmoqda.¹

Tadbirkorlik sub'ektlarining o‘z faoliyatini erkin amalga oshirishlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi bilan kafolatlab qo‘yilgan. Bosh Qomusimizning 53-moddasida bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi, davlat iste’molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqlilagini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlashi belgilangan.

¹ Qarang: Berdiyarov R.T. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish masalalari. – T.: TDYuI, 10 bet.

Konstitusiyamizda, mulkdorlarning, shu jumladan tadbirkorlik sub'ektlarining mulkdor bo'lishga haqli ekanligi kafolatlab qo'yilgan (36-modda).

Tadbirkorlik sub'ektlarining xususiy mulklari daxlsiz bo'lib, davlatning himoyasida bo'lishi Konstitusiya darajasida kafolatlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 53-modasiga ko'ra xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

Bozor mexanizmi samarali ishlashi uchun tegishli shart - sharoitlarni ta'minlash, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini jadalashtirish zarurligidan kelib chiqib, xususiy mulkni himoya qilish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 1994-yil 21-yanvarida «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmon qabul qilinishi bilan xususiy mulkning shakllanishi tezlashdi, davlat mulki bo'lgan korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib, ularning o'rnila xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari tashkil qilinishi natijasida sanoatda tadbirkorlikni rivojlanishiga turki bo'lgan keng imkoniyatlar, istiqbollar ochilishi bilan birgalikda chet el investisiyalarining kirib kelishi jadallahshdi. Bu o'z navbatida mahsulotlar ishlab chiqarilishini jadallashtirib, aholining iste'mol talablarini qanoatlantirish bilan birgalikda, tovarlarni xorijiy davlatlarga ham sotib, qat'iy valyutada foyda olish imkonini yaratdi.

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1994-yil 11-mayda qabul qilingan "Xususiy mulk va tadbirkorlikni korrupsiya, reket va uyushgan jinoyatchilikning boshqa turlaridan himoya qilishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi 247-sonli qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi.²

Respublika aholisini tadbirkorlik sohasiga keng ko'lamba jalb etishni ta'minlash, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida xususiy biznesning rolini sifat jihatidan oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish va uni rag'batlantirish to'g'risida»gi 1995-yil 5-yanvardagi PF-103-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 14-fevraldagi «Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish va uni rag'batlantirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora – tadbirlar to'g'risida»gi 55-sonli, 1995-yil 28-avgustdagi «Kichik biznes

² Tadbirkorlik huquqi. Darslik. Maxsus qism. Sh.N.Ro'zinazarov va boshqalar. – T.: Konsauditinform, 2002. 94-95 – betlar.

va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat dasturi to‘g‘risida»gi qarorlari qabul qilindi.

Tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasining «Xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari to‘g‘risida»gi (1992 yil 9 dekabr, ushbu qonun 2001-yil 6-dekabrda o‘z kuchini yo‘qotgan) va «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi (1996 yil 26 aprel, ushbu qonun 2014-yil 6-mayda yangi tahriri qabul qilingan), «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi (2000 yil 25 may, ushbu qonun 2012 yil 2 mayda yangi tahrirda qabul qilingan), «Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘sishimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida»gi (2001 yil 6 dekabr) qonunlari qabul qilindi.

Fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratish, ularning ishchanlik faolligini oshirish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida 2000-yil 25-mayda “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi.

Qonunda kichik tadbirkorlik sub’ektlari hamda yakka tartibdagagi tadbirkorlarning huquqiy maqomi, tadbirkorlik sub’ektlarining huquq va majburiyatları, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish asoslari, tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining huquq va kafolatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Mazkur Qonunda tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining huquqlarini himoya qilishga bag‘ishlangan alohida bob mavjud bo‘lib, unda tadbirkorlik faoliyati sub’ektining ishchanlik obro‘sini, intellektual faoliyat natijalarini, sub’ektlarning tijorat siri va oshkor etilmagan axborotini himoya qilish, tadbirkorga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash, tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini tekshirishlarning cheklanganligi hamda bunday tekshirishni amalga oshirayotgan mansabdor shaxslarning xattiharakatlarini amalga oshirishga doir talablar, tadbirkorlik sub’ektlariga nisbatan ularning faoliyatini cheklovchi choralarни qo’llashga bag‘ishlangan alohida moddalar ko‘rsatib o‘tilgan.

Biroq, ushbu Qonun normalari hozirgi zamon talablariga javob bermas edi. Xususan, Qonun 11-moddasining birinchi qismida tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tegishli davlat organi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshirilishi belgilangan edi. Informasion-kommunikasion texnologiyalar barcha sohalarga, shu jumladan, davlat ro‘yxatiga olish sohasiga shiddat bilan kirib borayotgan bir paytda Qonunning ushbu normasi mazmunan eskirganligini ko‘rsatdi.

Bundan tashqari, Qonunda tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar ajratish, davlat buyurtmalarini olish, o‘zлari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni sotishning, hisobotlarni topshirishning noqulay tartibi joriy etilgandi.

Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2010 yil 12 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi” nomli ma’ruzasida “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahririni qabul qilish zarurligi ko‘rsatildi. Bu qonunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil qilish yo‘llarini soddalashtirish, ularning faoliyati uchun ko‘proq erkinliklar berishni ko‘zda tutish lozimligi, ushbu sektorni kreditlash, resurslardan foydalanish, davlat buyurtmalarini olish, tadbirkorlik sub'ektlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni sotish uchun yangi imtiyozlar berish, xalqaro amaliyotga muvofiq daromadlarning yillik deklarasiyasi shakliga bosqichma-bosqich o‘tish, moliya va statistika hisobotlari tizimini yanada soddalashtirish, jumladan, bunday hisobotlarni vakolatli davlat organlariga elektron shaklda taqdim etish kabi mexanizmlar hisobidan qo‘llab-quvvatlash masalalari ham qonunda o‘z aksini topishi darkorligi ko‘rsatib o‘tildi³.

2012 yil 2 mayda “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. YAngi tahrirdagi Qonunda mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ilgari surilgan barcha masalalar o‘zining huquqiy yechimini topdi.

Tadbirkorlik faoliyatini fuqarolik-huquqiy normalar bilan tartibga solish va uni yanada uyg‘unlashtirish, xususiy mulkka keng kafolatlar berish bilan belgilanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi “Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlishtirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3618-sonli, 2005 yil 14 iyundagi “Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3619-sonli, 2005 yil 24 iyundagi “Tadbirkorlik sub'ektlarining xo‘jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarlikni erkinlashtirish to‘g‘risida”gi PF-3622-sonli farmonlari hamda 2009 yil 15 maydagagi “Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash va

³ Karimov I.A. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi”. – T.: “O‘zbekiston”, 2010. 51-52–betlar.

rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g“risida”gi PQ-1112-sonli Qarori shular jumlasidandir.

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizasiyalash, nazorat organlarining tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatiga aralashuvini kamaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minalash, tadbirkorlik faoliyati asossiz cheklanishiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 53-moddasi talablariga so‘zsiz rioya etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub’ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g“risida” 2005 yil 14 iyundagi PF-3619-sonli Farmoni qabul qilingan.

Mazkur Farmon bilan 2005 yilning 1 iyulidan boshlab tadbirkorlik sub’ektlariga nisbatan huquqiy ta’sir choralarini faqat sud orqali qo‘llanish tartibi joriy etildi.

Ta’kidlash kerakki, mazkur Farmon qabul qiliganiga qadar tadbirkorlik sub’ektlariga nisbatan huquqiy ta’sir choralarini nazorat qiluvchi organlarning qarorlari asosida qo‘llanilgan. Bu esa o‘z navbatida nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik sub’ektlarining huquqi va qonuniy manfaatlarining buzilishiga olib kelgan.

2005 yilning 1 iyulidan boshlab tadbirkorlik sub’ektlariga nisbatan huquqiy ta’sir choralarini faqat sud orqali qo‘llash tartibining joriy etilishi munosabati bilan ushbu yo‘nalishda nazorat qiluvchi organlar hamda tadbirkorlik sub’ektlarining tengligiga erishildi. Endilikda nazorat qiluvchi organlar tadbirkorlik sub’ektiga nisbatan biron bir huquqiy ta’sir chorasini qo‘llash lozimligini mustaqil sud oldida isbotlanishi kerak. Bir so‘z bilan aytganda, Prezidentimizning mazkur Farmoni tadbirkorlik sub’ektlarining himoyasiga qaratilgan huquqiy tizimda muhim ahamiyat kasb etdi hamda uning qabul qilinishi ushbu yo‘nalishdagi islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 24 mayda qabul qilingan “Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatiga olish va hisobga qo‘yishning xabardor qilish tartibini joriy etish to‘g“risida”gi PQ-357-sonli Qarori tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish uchun ma’muriy sarf xarajatlarni kamaytirish, tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatiga olish va hisobga qo‘yishdagi byurokratik to‘sinq va g‘ovlarni bartaraf etish bilan birga tadbirkorlik sub’ektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldag‘i PQ-1474-son qarori bilan tasdiqlangan «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» Davlat dasturi doirasida tadbirkorlarga ko‘proq erkinlik berish, davlat nazorat funksiyalari va ruxsat berishga oid normalarning qisqartirilishiga, davlat va nazorat organlarining tadbirkorlik sub’ektlari moliya-xo‘jalik faoliyatiga aralashuvini keskin qisqartirish, kichik korxonalar tashkil qilish hamda kichik korxonalar va tadbirkorlarni ro‘yxatdan o‘tkazish tartib-qoidalarini yanada soddallashtirish, hisobotlar tizimi hamda moliya, soliq va statistika organlariga hisobotlar berish mexanizmini takomillashtirish va unifikasiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda.⁴

Ishbilarmonlik muhitini tubdan yanada yaxshilash, bozor islohotlarini liberallashtirish va chuqurlashtirish yo‘lidan jadal harakat qilish, tadbirkorlikka ko‘proq erkinlik berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2011 yil 24 avgustdag‘i PF-4354-sonli Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmonga muvofiq tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining barcha darajadagi davlat boshqaruvi idoralari, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, tijorat banklari bilan o‘zaro munosabatlarda tadbirkorlar huquqlarining ustuvorligi prinsipi belgilandi. Mazkur prinsipga muvofiq, me’yoriy-huquqiy hujjatlardagi bartaraf etib bo‘lmaydigan barcha ziddiyat va noaniqliklar tadbirkorlar foydasiga talqin etiladigan bo‘ldi.

Farmoning 4-bandida 2011 yilning 1 oktabridan boshlab yuridik shaxslar tekshirishlar natijalari bo‘yicha qo‘sishimcha hisoblangan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarini, shuningdek moliyaviy sanksiyalarni undirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan boshlab olti oy mobaynida teng ulushlarda to‘lash huquqiga egaligini joriy etuvchi tartib qo‘llanila boshlandi.

Prezidentimiz I.Karimov qayd etganidek, “...Soha rivoji uchun mustahkam qonunchilik va huquqiy baza shakllantirilgani va muntazam takomillashtirilib borilayotgani, biznes uchun imtiyoz va preferensiyalar berish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash hamda modernizasiya qilish masalalarida

⁴ Tadbirkorlik sohasida ma’muriy tartib-qoidalar bo‘yicha qo‘llanma. G.Xidoyatov va b. – T.: Sharq, 2011. 17-18-betlar.

davlat tomonidan tizimli ravishda yordam ko'rsatilayotganligini ta'kidlash lozim”⁵.

YAngicha mazmunda tahrir qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri 8-moddasida ko‘rsatilganidek, tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari:

- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirishga;
- yuridik shaxs bo‘lgan boshqa tadbirkorlik sub’ektlarining muassislari (ishtirokchilari) bo‘lishga;
- mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulkka egalik qilishga, undan foydalanish va uni tasarruf etishga;
- o‘z faoliyati yo‘nalishlarini, tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilarni va o‘z tovarlarining (ishlarining, xizmatlarining) iste’molchilarini mustaqil ravishda tanlashga;
- tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olishga, bundan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bozorida ustun mavqeni egallab turgan tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari mustasno;
- o‘z tovarlarini (ishlarini, xizmatlarini), ishlab chiqarish chiqindilarini bozor kon'yunkturasidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilanadigan narxlar va tariflar bo‘yicha yoki shartnoma asosida realizasiya qilishga, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- barcha ishlab chiqarish xarajatlarining o‘rni qoplanib, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan keyin qolgan daromadni (foydani) erkin tasarruf etishga, sud tartibidagi majburiy undiruv hollari bundan mustasno;
- kreditlar olishga, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini hamda o‘zga mol-mulkini shartnoma shartlari asosida jalb etishga, shu jumladan binolarni, inshootlarni, uskunalarni va o‘zga mol-mulkni olishga va (yoki) tekin, ijaraga (lizingga) olishga hamda ularni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga yo‘naltirishga;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishga haqli. Shuningdek, ular qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Qonunning 11-moddasida tadbirkorlik faoliyati sub’ekti huquqining ustuvorligi prinsipi ilk bor belgilandi. Unga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek banklar bilan o‘zaro munosabatlarida tadbirkorlik faoliyati sub’ekti huquqlarining ustuvorligi prinsipi amal qilib, unga

⁵ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. –T.: O‘zbekiston, 2010. – 49 bet.

muvofig qonun hujjatlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo‘lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik faoliyati sub’ektining foydasiga talqin etiladi.

Shuningdek, unda insofsiz raqobatga yo‘l qo‘yilmasligi ular huquqlarini himoya qilishga qaratildi. YA’ni, tadbirkorlik sub’ektlarining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda afzalliklar olishga qaratilgan, qonun hujjatlariga, ish muomalasi odatlariga zid bo‘lgan va boshqa tadbirkorlik sub’ektlari bo‘lgan raqobatchilarga zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan yoxud ularning ishchanlik obro‘siga putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo‘lgan harakatlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yangi tahrirdagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 4-bobi “Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining huquqlarini himoya qilish” deb nomlanib, 35 – 42-moddalarni o‘zida birlashtirgan. Ularda tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining ishchanlik obro‘sini himoya qilish, intelektual faoliyat natijalarini himoya qilish, ularning tijorat sirini va oshkor etilmagan axborotini muhofaza qilish, unga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash, ular faoliyatini tekshirishlarni cheklash, ularga nisbatan moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilmasligi, ular faoliyatini tekshirishlarni amalga oshirayotgan mansabdor shaxslarga qo‘yiladigan talablar, ularga nisbatan huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash bilan bog‘liq normalar belgilangan.

“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi”da Prezidentimiz “...boshqaruva tizimini takomillashtirish, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida “Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to‘g‘risida”gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun zarur bo‘lgan ruxsat berish tartib-qoidalalarining qat’iy cheklangan ro‘yxati va turlarini aniq belgilab qo‘yish, qonunda nazarda tutilmagan ortiqcha ruxsatnomasi va ruxsat berish tartib-qoidalalarining yangi turlari kiritilishini qonun bilan keskin taqiqlash zarur”⁶ deb ko‘rsatgan edi.

Davlatimiz rahbarining ushbu konseptual g‘oyasidan kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda hisobotlar va faoliyat yuritish uchun ruxsat berish tartib-qoidalalarini belgilashda Prezidentning 2012 yil 16 iyuldagি

⁶ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. –T.: O‘zbekiston, 2010. – 49 bet.

“Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, lisenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2012 yil 18 iyuldagи “Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bozor iqtisodiyoti talablariga, xalqaro me’yorlar va standartlarga muvofiq, byurokratik g‘ovlarni bartaraf etish, lisenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish hamda soddalashtirish hisobiga ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik faoliyati uchun maksimal darajada qulay shart-sharoitlarni vujudga keltirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 16 iyulda “Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, lisenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4453-sonli Farmoni qabul qilindi.

Farmonda 2012 yil 1 avgustdan boshlab ruxsat berishga oid 80 ta tartib-taomilni (ularning umumiy miqdoriga nisbatan 26 foiz), shuningdek lisenziyalanadigan faoliyat turlarining 15 tasini (umumiy miqdoriga nisbatan 20 foiz) bekor qilish va birlashtirish hisobiga bekor qilish nazarda tutilgan.

Shuningdek, Farmonda 2012 yilning 1 avgustidan boshlab noshirlik faoliyati, qurilish loyihalarining ekspertizasini o‘tkazish, arxitektura-shaharsozlik hujjatlarini yaratish, magistral gaz quvurlari, neft quvurlari va neft mahsulotlari quvurlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularni ta’mirlash faoliyat turlarini amalga oshirish uchun lisenziyalar amal muddati cheklanmagan holda berilishi nazarda tutilgan. Bunda mazkur faoliyat turlarini amalga oshirish uchun avval berilgan lisenziyalarning amal qilish muddati cheklanmagan, deb hisoblanishi ko‘rsatilgan.

Shu bilan birga 2012 yilning 1 avgustidan boshlab tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan ilgari ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda arizalar takroran taqdim etilgan taqdirda yangi asoslar bo‘yicha lisenziya va ruxsatnomalar berishdan bosh tortish ta’qiqlanishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2012-2016 yillar mobaynida ariza beruvchilarga arizalarning o‘tish jarayonini interaktiv kuzatish imkoniyatini yaratgan holda lisenziya va ruxsatnomalarni olish uchun internet tarmog‘i orqali arizalarni berishning elektron shakllari joriy etilishini ta’minlashi lozimligi ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda internet tarmog‘ida yagona veb-sayt yaratib, unga lisenziyalanadigan faoliyat turlari va ruxsat berish tartib-taomillari ro‘yxatini, lisenziya va ruxsatnomalar olish uchun talab qilinadigan hujjatlar to‘g‘risidagi axborotni, shuningdek tegishli faoliyat turlarini amalga oshirish uchun lisenziya va ruxsatnomalar olgan tadbirkorlik sub’ektlari to‘g‘risidagi doimo yangilanib turadigan ma’lumotlarni joylashtirishi ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 18 iyulda “Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4455-sonli Farmoni qabul qilinishi mazkur yo‘nalishda amalga oshiriladigan ishlarning mantiqiy davomi bo‘ldi.

Mazkur Farmonni qabul qilishdan asosiy maqsad ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, korxonalarning faoliyati bilan bog‘liq tartib-taomillarning barcha turlarini qisqartirish, soddalashtirish va ochiq-oydinlik darajasini oshirish, biznesni yuritish shart-sharoitlarini baholash mezonlarining jahon amaliyotida hamma tomonidan qabul qilingan tizimini joriy etish va shu asosda mamlakatimiz ishbilarmonlik va investisiya muhiti darajasining xalqaro reytingini yanada oshirishdan iboratdir.

Farmonda hozirgi xalqaro amaliyotda qabul qilinganidek, reglamentga soluvchi tartib-taomillarni yanada soddalashtirish, arzonlashtirish va qisqartirish, davlat va nazorat qiluvchi organlar bilan tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning bevosita muloqotsiz elektron shakllarini hamma joyda keng tatbiq etish talab qilinishi belgilandi.

Mazkur Farmon 2-bandining ikkinchi xatboshisida tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, byurokratik g‘ovlarni tugatib borish, ro‘yxatga olish va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish hamda soddalashtirish, soliq va bojxona ma’muriyatichilagini, hisob-kitob va hisobot tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan qonun hujjatlarini mukammallashtirish evaziga mamlakatda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish uchun yanada qulayroq shart-sharoitlarni yaratish, xususiy mulkchilikning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi hissasini oshirish bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirishning g‘oyat muhim vazifalaridan biri etib belgilanganligi ko‘rsatilgan.

Farmon bilan 2012 yil 1 avgustdan boshlab tadbirkorlik faoliyati uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga yo‘naltirilgan, jumladan tadbirkorlik faoliyatini ro‘yxatdan o‘tkazish va amalga oshirishni boshlash sohasida aniq me’yor va chora-tadbirlar joriy qilinishi belgilandi. Xususan:

- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni (kredit tashkilotlari bundan mustasno) davlat ro‘yxatidan o‘tkazgunga qadar ustav fondining bir qismini to‘lash to‘g‘risidagi talab bekor qilindi. Shu bilan birga ushbu xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga ustav fondini bir yil muddat davomida shakllantirish majburiyati yuklandi;
- ro‘yxatga olish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tadbirkorlik sub’ektining firma nomini rezerv qilib qo‘yish uchun arizalarni qabul qilish Internet tarmog‘i orqali kecha-kunduz davomida statistika organlari tomonidan ta’milanishi ko‘rsatildi. Bunday arizalarni ko‘rib chiqish muddati 4 ish soati qilib belgilandi;
- elektron raqamli imzo kalitlarini Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Ro‘yxatga olish markazi tomonidan berishda to‘lanadigan to‘lov eng kam oylik ish haqining 20 foizidan 10 foiziga kamaytirildi;
- bank hisobraqamlarini ochish uchun imzo namunalarining notarial tasdiqlanishi, shuningdek kichik tadbirkorlik sub’ekti – mikrofirmalarning imzo namunalari kartochkalarida ikkinchi imzo, ya’ni buxgalter imzosi bo‘lishi zarurligi haqidagi talab bekor qilindi;
- suv ta’moti va suv-oqava tarmoqlariga ulanish uchun ariza berilgan kundan boshlab 2 ish kuni mobaynida ruxsat berilishi ko‘rsatildi;
- tadbirkorlik sub’ektlarining telefon tarmoqlariga ulanishlarini ta’minalash bo‘yicha ishlar 10 kun davomida amalga oshirilishi belgilandi.

2012 yil 20 dekabrdagi “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni e’lon qilindi va u kuchga kirdi.

Ushbu Qonunning 4-moddasiga muvofiq tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-qoidalari belgilab berildi. Unga ko‘ra “Bajarilishi va (yoki) amalga oshirilishi uchun ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish zarur bo‘lgan harakatlar va (yoki) faoliyat jumlasiga tadbirkorlik sub’ektlarining bajarilishi va (yoki) amalga oshirilishi tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga, jamoat xavfsizligiga ziyon hamda atrof-muhitga zarar yetkazilishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan, tartibga solinishi ruxsat berish tartib-taomillaridan tashqari boshqa usullar bilan amalga

oshirilishi mumkin bo‘lmaydigan harakatlari va (yoki) faoliyati kiritilishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari qonun hujjatlarida belgilanadi. Ruxsat berish tartib-taomillarining qonunda nazarda tutilmagan yangi turlarini joriy etish taqiqlanadi.”

Hozirgi qonunchilik amaliyotida keng qo‘llanilayotgan qoida “Tadbirkorlik sub’ektlarining vakolatli organlar bilan o‘zaro munosabatlarida tadbirkorlik sub’ektlari huquqlarining ustuvorligi prinsipi amal qiladi, unga muvofiq ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo‘lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik sub’ektlarining foydasiga talqin qilinadi” deb belgilanishi tadbirkorlik sub’ektlarini himoya qilish va kafolatlashning muhim prinsipidir.

Shuningdek, Qonunda ruxsat berish tartib-taomillarining asosiy prinsiplari, Vazirlar Mahkamasi va vakolatli davlat organining ruxsat berish tartib-taomillariga doir vakolatlari, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olish uchun tadbirkorlik sub’ekti tegishli vakolatli organga taqdim etadigan hujjatlar, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilish muddati cheklanmasligi, ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarning tasdiqlanishi va ularda ko‘rsatilishi zarur bo‘lgan holatlar va boshqa normalar belgilangan.

Ayniqsa, tadbirkorlik sub’ektining ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berish to‘g‘risidagi arizasini ko‘rib chiqish, uni berish yoki berishni rad etish muddatlari ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarda belgilanishi, tadbirkorlik sub’ektining arizasi barcha zarur hujjatlar bilan qabul qilib olingan sanadan e’tiboran, shu jumladan ruxsat etish xususiyatiga ega zarur hujjatlar «bir darcha» orqali beriladigan hollarda o‘ttiz ish kunidan oshmasligi, rad etish tartibi haqidagi normalarning belgilanganligi muhim ahamiyatga ega (Qonunning 18, 20-moddalari).

Qonunning 22-moddasiga muvofiq ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishi ruxsat berishga doir talablar va shartlar tadbirkorlik sub’ekti tomonidan buzilganligi aniqlanganda, tadbirkorlik sub’ekti tomonidan vakolatli organning tadbirkorlik sub’ekti zimmasiga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini yuklovchi qarori bajarilmaganda to‘xtatib turilishi mumkin.

Tadbirkorlik sub'ektining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini to'xtatib turish sud tartibida amalga oshirilishi belgilangan.

Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishi epidemiyalar hamda aholining hayoti va sog'lig'i uchun boshqa haqiqiy xavf yuzaga kelishining oldini olish bilan bog'liq holda o'n ish kunidan ko'p bo'lмаган muddatga vakolatli organ tomonidan to'xtatib turilishi mumkin.

Vakolatli organning ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori tadbirkorlik sub'ektiga qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini to'xtatib turish sabablari va qonun hujjatlarining normalari aniq ko'rsatilgan holda, yozma shaklda yetkazilishi zarur.

Qonunning 23-moddasida "Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishi ushbu modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan holda vakolatli organ tomonidan, ushbu modda birinchi qismining oltinchi, yettinchi va sakkizinchi xatboshilarida ko'rsatilgan hollarda esa, sud tomonidan tugatiladi".

Tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini tugatish huquqiy ta'sir choralaridan biri sifatida faqat sud tomonidan qo'llaniladi.

Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizda qabul qilingan qonunchilik talablariga ko'ra, davlat organlarining noqonuniy qarorlari, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari yoki harakatsizligi, shuningdek, qonunchilikka zid tarzda qabul qilingan idoraviy hujjat tufayli tadbirkorlik sub'ektlariga yetkazilgan zarar davlat tomonidan qoplanadi"⁷. Bu tadbirkorlik sub'ektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda davlat tomonidan berilgan kafolatdir.

"Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonun mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillariga doir munosabatlarni tartibga solish, tadbirkorlarning qonun oldidagi tengligini ta'minlash, ularning haq-huquqlarini himoya qilish, yo'l qo'yilayotgan har bir qonunbuzilish holatlariga qat'iy chek qo'yish tadbirkorlikning rivojlanishiga,

⁷ Karimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi". – T.: "O'zbekiston", 2010. 52–bet.

uning yanada mustahkamlanishiga, aholi farovonligining yuksalishiga keng imkoniyatlar yaratadi va ularning huquqiy asoslarini belgilab beradi.

O‘z o‘rnida qayd etib o‘tish lozimki, mamlakatimizda so‘nggi yillarda ortiqcha byurokratik g‘ovlarni bartaraf etish, zamon talablariga mos kelmaydigan lisenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish, ularni taqdim etish mexanizmini takomillashtirish hisobiga respublikada qulay ishbilarmonlik muhitini vujudga keltirish, biznes sub’ektlarini tashkil qilishni soddalashtirish va shunday sub’ektlarning yanada erkin faoliyat yuritishlarini ta’minalash borasida izchil hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Nazorat savollari:

1. Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari huquqlarini sanang.
2. Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari majburiyatlarini sanang.
3. Tadbirkorlik faoliyatining konstitusiyaviy kafolatlari nimalardan iborat?
4. Tadbirkorlik faoliyati sub’ekti huquqlarining ustuvorligi prinsipi mohiyatini tushuntiring
5. Tadbirkorlik faoliyatining yana qanday kafolatlар mavjud?
6. Tadbirokrlik sub’ektlarini tugatish tartibi va asoslarini sanab bering.
7. Qarzdorni bankrot deb e’lon qilish to‘g‘risida kimlar va qanday tartibda sudga murojaat etishga haqli?

4. O'zbekiston Respublikasida oila munosabatlarini tartibga solishning umumiy qoidalari

REJA:

1. Oila huquqi tushunchasi
2. Oila huquqining tamoillari
3. Oila huquqining tizimi
4. O'zbekiston Respublikasi oila huquqi sohasi manbalarining sharhi

1. Oila huquqi tushunchasi. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy xujayrasidir. U qancha mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shuncha mustahkam va tez rivojlanadi. Jamiyatimiz asosi-oila moddiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanmoqda. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar ahloq-odob va huquqiy qoidalari bilan tartibga solinadi. Oila huquqi huquqning mustaqil sohasi bo'lib, nikoh, qon-qarindoshlik, bolalarning nasl-nasabini belgilash, ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllaridan kelib chiqadigan munosabatlarni huquqiy tartibga soladi. Oila huquqini predmeti bo'lib, oila a'zolari o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlar hisoblanadi.

Shaxsiy munosabatlarga, er-xotinning familiyasi, bolalar tarbiyasi, oila turmushi masalalarini hal qilishi, mashg'ulot turi, kasb va turar-joy tanlash huquqlari kiradi.

Mulkiy munosabatlarga esa, er va xotinning nikoh davomida orttirgan umumiy mulklari, shuningdek nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha holat ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Ota-onas hamda bolalarning mulkiy huquq va majburiyatları, oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatları kiradi.

Huquqiy-demokratik davlat, erkin adolatli fuqarolik jamiyatida mulkiy bo'limgan nomulkiy shaxsiy munosabatlar asosiy belgilovchi, mulkiy munosabatlar esa bo'ysunuvchi hosila xarakterga ega. Oilaviy munosabatlar yig'indisida mulkiy bo'limgan shaxsiy munosabatlarni ustun bo'lishligining sababi, avvalo naslni davom ettirish va bolalarni tarbiyalash bilan bog'liqdir.

Shunday qilib, oila huquqi nikoh tuzish tartibi va shartlari, nikohning tugatilishi, nikohning haqiqiy emasligi, oilada er va xotin o'rtasida, ota-onas bilan bolalar o'rtasida, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolalarni oilaga tarbiyaga olish tufayli kelib chiqadigan munosabatlarni, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartiblarini belgilaydigan huquqiy normalar yig'indisidan iborat.

2. Oila huquqining tamoyillari (prinsiplari). Oila huquqi mohiyatini ochib berishda faqat uning tushunchasi, predmetini o'ziga xos xususiyati va shu bilan birga uning eng muhim tamoyillarini ham inobatga olish lozim, chunki

uning tamoyillari bu huquq sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Oila huquqi tamoyillari deganda, ushbu huquq sohasining mohiyatini aniqlab beradigan hamda huquqiy mustahkamlanganligi sababli umummajburiy ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy negiz, rahbariy qoidalar tushuniladi.

Oila huquqi tamoyillarini hisobga olmasdan uning normalarini to‘g‘ri sharhlab va qo‘llab bo‘lmaydi. Oila huquqi tamoyillari nafaqat huquqni qo‘llash amaliyoti uchun, balki shu bilan birga amaldagi oila qonunchiligining mohiyatini anglash hamda uning keyingi takomillashtirilishi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Oila huquqining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1) Oilani jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqi.

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega (O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 63-modda).

A) Oila davlat himoyasida.

Oila davlat himoyasida deyilganda avvalo vujudga kelgan oilalarni saqlab qolish va ularni mustahkamlashga qaratilingan davlat tomonidan ko‘rilgan tadbir choralarni tushuniladi.

Davlatning oila xususidagi g‘amxo‘rliги avvalombor hukumat yuritayotgan kuchli ijtimoiy siyosatda namoyon bo‘lmoqda. Davlat rahbarligida amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy islohiy chora-tadbirlarning bosh maqsadi inson, oila manfaatlarini qanoatlantirishdan iborat.

Oilaning davlat muhofazasida ekanligi Respublikamiz Prezidentining farmonlarida o‘z ifodasini topmoqda.

Jahonning bir guruh tadqiqotchi olimlari tomonidan respublikada oilani, onalik va bolalikni himoya qilish borasida qilinayotgan ishlar o‘rganib chiqildi. Natijalar chet ellardagi ahvol bilan taqqoslaganda, biror bir mamlakat Prezidenti elni, oilalarni ijtimoiy himoyalash borasida bizning YUrtboshimiz kabi ko‘p qaror va farmonlar qabul qilinganligi ma’lum bo‘ldi.

B) Oila jamiyat muhofazasida.

Jamiyat tomonidan oila muhofaza qilinadi deyilganda, mamlakatda mavjud bo‘lgan jamiyatlar va jamg‘armalar tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarni oilaga ham moddiy, ham ma’naviy yordam berishlari tushuniladi. Bu qoida mustaqil Respublikaning Konstitusiyasida belgilangan yangi qoidadir.

Mamlakatimizda jamoat tashkilotlari har xil jamg‘armalar hisobidan oilani mustahkamlash, bolalar manfaatini himoya qilish uchun turli moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatib kelmoqda.

Oila ayni vaqtida jamiyatning, avvalo, uning jamiyat manfaatlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligida hamda ijtimoiy vazifalarida yaqqol aks etadi.

2) Barcha fuqarolar – jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar qonun oldida tengligi.

Oila huquqida barcha fuqarolar millati, irqidan qat’iy nazar teng ekanligi ifodalangan «...barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, qonun oldida tengdirlar» (O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, 18-modda). Bu xalqlar do‘stligidan kelib chiqadigan o‘zgarmas

qoida bo‘lib oila huquqida o‘z ifodasini topib odamlarni har xil millatga tegishli ekanligi yoki irqiga mansubligi oilaviy munosabatlarda hech qanday ahamiyatga ega emasligini anglatadi.

Nikoh tuzish uchun fuqarolarni har xil millatga, dinga e’tiqod etishligi to‘siq bo‘lilmaydi.

Bolalarni farzandlikka olishda farzandlikka olishda farzandlikka oluvchilarni bolalardan boshqa millatga tegishli ekanligi ham monelik qilolmaydi.

Hayotimizda nikoh, farzandlikka olish tufayli fuqarolarning bir oilaga birlashganligini ko‘plab uchratish mumkin.

3) *Hamma oilaviy munosabatlarda ayol bilan erkak teng huquqlidirlar.*

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 46-moddasiga binoan, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Bu tamoyil konstitusion qoidaga aylandi.

Jamiyatda ayol bilan erkakning teng huquqliligi mamlakatimizda erishilgan jinsidan qat’iy nazar fuqarolarni siyosiy tengligiga asoslanid.

Bu tamoyil Oila kodeksining 2-moddasida quyidagicha ifodalangan: oila munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarining o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a’zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

4) *Oilaviy munosabatlarda ishtirok etuvchilarni ma’naviy va moddiy qo’llab-quvvatlash hamda ularning o‘zaro bir-biriga g‘amxo‘rlik qilishi.*

Bu tamoyil oilaviy munosabatlarning mazmunidan kelib chiqib ular moddiy hisob-kitoblardan holi bo‘lgan bir-biriga muhabbat, hurmat kabi hissiyotlarga asoslanadi.

Er va xotin, ota-onalar, bobo-buvilar, aka-ukalar va opasingillar, farzandlikka olganlar va farzandlikka olinganlar va hokazolar o‘rtasidagi munosabatlar-avvalo nikoh, qon-qarindoshlik yoki oilaviy rishtalar bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslar o‘rtasidagi shaxsiy munosabatlardir.

Oilaviy munosabat ishtirokchilarining bir-biriga munosabati umum ahloqiy tamoyilga va ma’naviy meyorlar bilan tartibga solinadi. Bu esa huquqiy demokratik davlatni muvaffaqiyat bilan qurayotgan jamiyat a’zolariga xosdir.

Oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi mana shu tamoyillarga tayanadi va ularga to‘la mos keladi. Ba’zi hollarda qonun oila a’zolarining o‘z yaqinlariga g‘amxo‘rlik qilish majburiyatini yuklaydi. Oila kodeksining 109-moddasiga binoan voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o‘z ota-onasiga ta’milot berishlari va ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishlari shart.

Amaldagi qonunda oila a’zolarining aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv tartibi e’tirof etiladi va ushbu tartib jamiyatda o‘rnatilgan fuqarolarning o‘zaro munosabatlari qurilishiga oid ahloqiy mezonlarga mos keladi.

Zarur hollarda oila a'zosi moddiy ta'minotni sudning hal qiluv qaroriga asosan undiriladi.

Ko'p hollarda oila a'zolarining bir-biriga aliment ta'minoti davlat va ijtimoiy fondlardan olinadigan mablag'larga qo'shimchadir. Bu fondlarning ko'payishi va ular orqali fuqarolar ehtiyojlarining yanada ko'proq qondirilishi bilan aliment majburiyatlari jamiyatda o'z ahamiyatini yo'qota boradi.

5) Davlat tomonidan onalik, otalik va bolalikni muhofaza etish va ularning manfaatlarini har taraflama himoya qilish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 65-moddasi 2-qismi va Oila kodeksining 4-moddasi 1-qismiga binoan oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir.

Insonni dunyoga kelishligi juda katta bahtdir. U muomala layoqatiga to'lib mustaqil ravishda o'z xohishi bilan nikoh munosabatiga kirib oilasida bolalar tug'ilsha unga berilgan eng ulug' nom, unvon bu onalik, otalik va bolalikdir.

Onalik. Demokratik huquqiy davlat va adolatlari fuqarolik jamiyatida onalikni himoya etishga alohida ahamiyat beriladi. Chunki ayolning asosiy vazifasi insoniyat zanjirini bardavom ettirish, onalik ham jamiyat hayotidagi muhim bir ish bo'lib qoladi. Onalikni boshqa hech bir vazifa bilan almashtirilishi mumkin emas.

Ayol kishi uchun dunyoda onalik baxtidan buyukroq baxt yo'q.

Ona bo'lish, farzand ko'rish, alla aytish ayol uchun baxtdir.

Otalik. Oila huquqining tamoyili bo'lgan «Onalik va bolalikni muhofaza qilinishi» jumlesi yoniga amaldagi Oila kodeksiga «Otalik» degan so'z ham qo'shildi. Bu mustaqillik sharofati tufayli bo'ldi. Chunki to'liq ma'noda «Oilaning, onalik, otalik va bolalikning muhofaza qilinishi» bilan belgilanadi.

Xotinni homiladorlik davri bo'lajak ota uchun ham jiddiy sinovdir. Bu davrda er bo'lajak ona va bola to'g'risida g'amxo'rlik qilishi, xotinning esonomon qutulib olishga tayyorlanib borishi uchun yaxshi shart-sharoit yaratib berishda qo'llidan kelgancha harakat qilishi lozim. Unga tegishlichcha ruhiy- iqtisodiy muhitning yaratilishi homiladorlikning sog'lom kechishini ta'minlaydi.

Otalikning davlat tomonidan himoya qilish kafolati sifatida oilasida har bir bola tug'ilganda erkaklarga ish haqi saqlangan holda bir haftalik ta'til berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki oilada bolani dunyoga kelishida erkak ham ayol bilan teng ishtirok etib u ham imtyozli huquqqa ega bo'lishi belgilansa to'g'ri bo'ladi.

Bolalik. Bola, ota-onaning quvonchi, faxri, baxti, er-xotinni bir-biriga payvand qiladigan ham farzanddir.

Bolaga mehr-muhabbat tuyg'usi onalarda juda kuchli bo'ladi. Ona o'z bolasini tug'ilmasidan ancha avval sevishga va unga jonini ham berishga qodir zot. Bola paydo bo'lganidan tug'ilgunga qadar onasi hisobiga oziqlanadi, rivojlanadi. «Ona o'z jonidan jon, o'z tanidan tan ado etadi», deb bejiz aytishmagan.

Aholisining yarmidan ko'prog'ini 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan bolalar tashkil etadigan respublikada bolalar huquqlarini ta'minlash alohida ahamiyatga ega.

6) Ixtiyoriy va erkin nikoh.

Nikoh tuzish ixtiyoriydir.

Nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziliginini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi (Oila kodeksining 14-moddasi).

Jamiyatda nikoh erkak bilan ayol o'rtasidagi tenglik va o'zaro xohish asosida tuzilgan erkin ittifoq va ahdnama bo'lib, maqsadi oila qurish, farzandlarni jamiyatning munosib kishilari qilib tarbiyalashdan iborat. Nikoh tuzishning muhim shartlaridan biri nikohlanuvchilarning ixtiyoriy va erkin ittifoqidir.

Nikohga kirishning o'zaro rozilik sharti buzilishi faqat uning haqiqiy emas, deb tanilishigagina emas, balki g'ayriqonuniy xatti-harakat sodir etib nikohga kirishga zo'rланган, aldagani va qo'rqtigan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishga ham asos bo'ladi.

7) Faqat yakka nikohlikni tan olish va uni mustahkamlash uchun yordam berish.

Ochiq adolatlari huquqiy jamiyatda fuqaro faqat bir nikohda bo'lishi mumkin. Yakka nikohlik tamoyili bizning mamlakatda mavjud bo'lgan yuksak istiqlol mafkurasi me'yorlaridan kelib chiqadi. Bunday qoida jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi oila munosabatlarining talablariga to'la javob beradi.

Amaldagi qonunda belgilangan yakka nikohlik hayotda mavjud bo'lgan haqiqat bilan muvofiq bo'lib odamlar xulq-atvoridagi qoidalarga mos keladi.

Bu qoidaning buzilishi faqat nikohni haqiqiy emas deb hisoblashdan tashqari qonunni buzgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishga ham asos bo'ladi.

8) Davlat tartibi asosida nikohdan erkin ajralish.

Davlat nazorati asosida nikohdan erkin ajralish (Oila kodeksining 37-moddasi).

Nikohdan ajralish er-xotinning shaxsiy huquqi, ammo nikohdan ajralish ijtimoiy manfaatga ta'sir etishligini, oilani buzilishligini hisobga olib davlat nikohdan ajralish tartibi va asoslarini belgilaydi, bunda er-xotinlarga yordam berib, o'ylamasdan qabul qilingan qarorni oldini olishni nazarda tutadi.

Amaldagi qonunchilik nikohdan erkin ajralish davlat tartibini belgilab yetarli darajada shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni himoya qilishni ta'minlaydi.

3. Oila huquqining tizimi. Ijtimoiy munosabatlarning muayyan turini tartibga soluvchi oila huquqi qoidalari betartib joylashtirilmasdan, ma'lum tizimga keltirilgan.

Oila huquqi – bu oila huquqi tuzilishi, uning muayyan ketma-ketlikdagi alohida institutlari va me'yorlari tarkibidir. Oila huquqi tizimi ob'ektiv ravishda tuzilib, oila huquqi predmetiga kiradigan ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xosligini aks ettiradi, hamda o'zaro bog'langan oilaviy-huquqiy institutlarning birligi va farqlanishida namoyon bo'ladi.

Huquqiy institut deganda turdosh va o'zaro bog'liq ijtimoiy munosabatlar guruhlarini kompleks tartibga solinishini ta'minlovchi alohidalashgan huquqiy

me'yorlar yig'indisi tushuniladi. Huquqiy institutlarga mazmun jihatdan turdoshlik, tartibga solinishi bo'yicha komplekslilik, shuningdek huquqiy alohidalilik xosdir.

Oila huquqi tizimi qonunchilikda, avvalo Oila kodeksi kabi kodifikasion xarakterdag'i aklarda, shuningdek oila huquqi fanida va «Oila huquqi» o'quv kursida o'z ifodasini topadi.

Oila huquqi tizimi o'z ichiga *umumi*y va *maxsus* qismlarni oladi.

Umumi *qism* oila huquqining maxsus qismidagi barcha institutlar uchun ahamiyatga ega bo'lgan me'yordan iborat, jumladan oila huquqining asosiy qoidalari va vazifalari, oila huquqi tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar doirasi va ushbu munosabatlar sub'ektlari va ob'ektlari, oila huquqi manbalari; oilaviy munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonun hujjatlarining qo'llanilishi, shuningdek oila to'g'risidagi va fuqarolik qonun hujjatlarining o'xshashlik bo'yicha qo'llanilishi; oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an'analarning qo'llanilishi (masalan, Oila kodeksi 1-9-moddalar).

Umumi qismga oilaviy huquqlarni amalga oshirish va oilaviy majburiyatlarni bajarish shartlarini, oilaviy huquqlarni himoya qilish tartibi va muddatlarini o'rnatuvchi me'yorlar kiradi (masalan, Oila kodeksi 10-11-moddalar).

Maxsus *qism* bir necha institutlardan tashkil topgan bo'lib, bu institutlarning har biri ijtimoiy munosabatlarning muayyan turini tartibga soladi. Ular quyidagilardan iborat:

- nikoh (nikoh tuzish shartlari va tartibi, nikohning tugatilishi, nikohning haqiqiy emasligi);
- er va xotinning huquq va majburiyatları (er va xotinning shaxsiy huquq va majburiyatları, er-xotin mulkinning qonuniy tartibi, er va xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibi, er va xotinning majburiyatlar bo'yicha javobgarligi);
- ota-onalarning huquq va majburiyatları (bolaning nasl-nasabini belgilash, voyaga yetmagan bolalarning huquqlari, ota-onalarning huquq va majburiyatları);
- oila a'zolarining aliment majburiyatları (ota-onalarning huquq va majburiyatları, qarindoshlar va boshqa shaxslarning aliment majburiyatları, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv, aliment to'lash va undirish tartibi);
- ota-onalarning qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalash shakllari (ota-onalarning qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish, bolalarni farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat));
- oila qonunchiligin chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarga nisbatan qo'llash.

Huquq tizimida oila huquqi huquqning boshqa sohalari bilan turli tutashda bo'ladi. Oila huquqi huquq sohalarining shunday guruhida joylashganki, u huquqning tartibga soluvchi tizimosti guruhlaridan biri hisoblanadi. Bu guruhning barcha sohalariga muayyan munosabatlarni ijodiy tashkil etishi uchun qo'llanilishi xosdir. Ushbu xususiyati bilan ular ijtimoiy munosabatlarni muhofa-

za qilish vazifasini bajaruvchi va shu sababli man etish orqali tartibga soluvchi jinoyat huquqidan farq qiladi. Shu bilan birga, tartibga soluvchi sohalar orasida oila huquqi ruxsat berish orqali tartibga soluvchi sohalar guruhiga mansub (fuqarolik, mehnat huquqlari kabi). Bu guruhning barcha sohalari singari, oila huquqi majburlash orqali tartibga soladigan (masalan, ma'muriy, moliya huquqlari) sohalardan farqlanadi, chunki bu sohalar asosan bir sub'ektning ikkinchisiga bo'y sunishi va boshqaruv organlari dalolatnomalar asosida shakllanadi. Ruxsat berish orqali tartibga soluvchi huquq sohalari guruhida esa oila huquqi o'z predmeti va metodi bo'yicha fuqarolik huquqiga yaqindir.

Oilaviy munosabatlar boshqa ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq. Shu sababli oila huquqi u yoki bu darajada deyarli barcha huquq sohalari bilan o'zaro bog'liq. Biroq bu bog'liqlikning daraja va shakllari turlichay namoyon bo'ladi.

Konstitusion va oila huquqi o'rtasida o'zaro bog'liqlikning o'ziga xos shakli mavjuddir. Konstitusion huquq jamiyatda oilaviy munosabatlar qurilishining bosh va asosiy qoidalarini o'z ichiga oladi (O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, 46, 63-66 moddalar). Oila huquqida ushbu qoidalar qayta ishlanadi, kengaytiriladi, rivojlantiriladi, aniqlashtiriladi.

O'zaro bog'liqlik aksariyat hollarda oila huquqi va huquqning sohalari me'yorlarining birgalikda qo'llanilishida ifodalanadi.

Ma'muriy huquq bilan oila huquqi yuridik faktlar sohasida qalin aloqadorlikda, chunki oilaviy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi va tugatilishi asoslari sifatida ko'p hollarda boshqaruv organlari aktlari xizmat qiladi (farzandlikka olish, vasiylik va homiylik belgilash va boshqalar). Fuqarolik jarayoni va oila huquqi me'yorlari nizolarni hal qilish, oilaviy huquqlarni himoya qilishda qo'llaniladi. Jinoyat huquqi oilaviy munosabatlarni muhofaza qilishda tatbiq etiladi. Shu sababli, oila huquqida jinoyat huquqiga havola qilishlar mavjud bo'lib, ular nikoh tuzishga to'sqinlik qiluvchi holatlarni yashirganlik uchun, farzandlikka olish siri va hokazolar uchun jinoiy javobgarlikka tortilishini nazarda tutadi.

Oila va fuqarolik huquqi me'yorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nisbati yuqori darajadadir. Qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan hollarda o'zaro bog'liqlik bir soha normalarini ikkinchi soha munosabatlarida qo'llanilishida ifodalanadi.

Oila huquqi va huquqning boshqa sohalari me'yorlarining o'zaro bog'liqligi ularning birlashib ketishiga olib kelmaydi. Lekin bu holat oila qonunchiligida faqat oila huquqi normalari emas, balki u bilan bog'liq bo'lgan huquq sohalari normalarining mavjud bo'lishida ham ifodalanadi. Ayniqsa bunda fuqarolik, ma'muriy, fuqarolik jarayoni huquqi normalarining ko'pligi ko'zga tashlanadi. Bu normalar oilaviy munosabatlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda sanab o'tilgan huquq sohalarining oilaviy munosabatlarni tartibga solishdagi xususiyatlarini aks ettiradi.

3. O'zbekiston Respublikasi oila huquqi sohasi manbalarining sharhi.
O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Oila huquqining asosiy manbai O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasidir. U o'n ikkinchi chaqiriq

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan.

Mustaqil Respublika Konstitusiyasining qabul qilinishi nikoh va oila qonuniga ham aniqlik kiritdi. Bundan so‘ng nikoh va oila kodeksi deyilmay, «Oila kodeksi», deb atalmoqda. Chunki Konstitusiyaning III bo‘lim, XIV mavzui «Oila» deb nomlanib, 63-66-moddalar oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qoidalardir. 46-moddada esa xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlir, degan oila huquqini tamoyilini asosiy qonunga kiritdi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Asosiy qonunda Oilaga maxsus mavzu ajratilgan. Bu mavzuni «Jamiyat va shaxs» bo‘limida berilishi ham ayni muddao, chunki oila jamiyatning bir bo‘lagi, uning asosiy bo‘g‘inidir.

Konstitusiyaning 63-moddasida shunday deyiladi: «Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega».

Bu moddani «Oila-otalik, onalik va bolalik davlat va har xil nodavlat jamg‘armalar himoyasida bo‘ladi», deyilgan jumla bilan to‘ldirilsa, yanada katta ahamiyat kasb etardi. Chunki to‘liq, keng ma’nodagi «Oila» so‘zi ilmiy ma’noda ota, ona va bolani o‘z ichiga oladi. Er-xotin o‘rtasidagi munosabatning asosida nikoh yotsa, ota-onasi va bola o‘rtasidagi munosabatning asosida qon-qarindoshlik yotadi. Chunki, bola ota qonidan paydo bo‘ladi, ona qornidan tug‘iladi. Oilani mustahkamlash ko‘p jahatdan unda otaning obro‘yini, ahamiyatini oshirish bilan bevosita bog‘liq. Ota bo‘lish muqaddas va mas’uliyatli vazifadir. Chunki, hayotiy tajribadan ma’lum bo‘lishicha, oilaning barcha ma’naviy va iqtisodiy tashvishlari otalarga yuklatilgan. Ota oila boshlig‘i, o‘z farzandi unib-o‘sishi, voyaga yetishi uchun birinchi mas’ul shaxs.

Ayni shu holat tili, dini, tarixi, taqdiri biz bilan mushtarak bo‘lgan yon va jon qo‘shnimiz Qozog‘iston Respublikasining 1993 yil 28 yanvarda qabul qilingan Konstitusiyasining 52-moddasida o‘z ifodasini topdi. U quyidagicha belgilandi: «Oila, onalik, otalik va bolalik jamiyat va davlat himoyasidadir». Bu ayni muddaodir.

Oila huquqining asosiy tamoyillari Konstitusiyada o‘z ifodasini topgan. Ular jumlasiga oilani jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lishligi, oilada erkak va ayolni teng huquqliligi, nikohning ixtiyoriy va teng bo‘lishligi, ota-onalar va bolalarni asosiy huquq va majburiyatlaridir.

O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Oila huquqining asosiy manbai butun keng qamrovli oila qonunchiligining «o‘zagi» O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksidir. U 1998 yil 30 aprelda birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining o‘n birinchi sessiyasida qabul qilinib, o‘sha yili 1 sentabrdan e’tiboran amalga kiritildi.

Oila kodeksi 8 bo‘lim, 30 mavzu, 238 moddadan iborat.

Amaldagi Oila kodeksi loyihasi birdaniga paydo bo‘lgani yo‘q. Uni tayyorlash to‘g‘risida 1996 yil Toshkentda bo‘lib o‘tgan «Fuqarolarni huquqiy himoya qilish va aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish» Mavzusiga bag‘ishlangan Respublika yuristlari konferensiyasida ham aytib o‘tilgandi.

Oilani yanada mustahkamlash va uning ijtimoiy ahamiyatini oshirish uchun huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy normalar

mustaqillik va milliy istiqlol mafkurasi g‘oyalari asosida tayyorlandi. U xalqaro normalarga va milliy mentalitetga mos ravishda ishlab chiqildi.

Oila to‘g‘risidagi qonunlarni yanada takomillashtirish bir qancha yo‘nalishlarda olib borildi.

Birinchidan, mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, Prezident farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, vazirliklar va idoralarning me’yoriy hujjatlari unga huquqiy asos qilib olindi. Chunki xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, jamiyatning asosiy hujayrasi hisoblangan oilani mustahkamlash, nikohning barqaror bo‘lishi, otalik, onalik va bolalikni muhofaza qilish, farzand tarbiyasida va moddiy ta’midotida ota-onaning huquq va majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 46, 63-66-moddalarida, shuningdek, maxsus qonunlarda, me’yoriy hujjatlarda o‘z ifodasini topgan.

Ikkinchidan, amaldagi oila qonunlarini takomillashtirishda uzoq yillar davomida sinovdan o‘tgan, o‘zining ijobiy natijalarini bergan qoidalar saqlab qolindi.

Uchinchidan, alohida e’tiborni Sharqda vujudga kelgan va rivojlangan musulmon huquqini, shariat va odob-axloq qoidalarini tiklash istiqbollarini va uning tamoyillarini yangi Oila kodeksiga kiritishga harakat qilindi.

To‘rtinchidan, oilaviy munosabatlar mustahkam bo‘lgan, bolalar tarbiyasi yaxshi yo‘lga qo‘ylgan ayrim xorijiy davlatlarning qonunchilik tajribasini yaxshi o‘rganib, mamlakatimizning yangi qonunlariga olib kirish masalasi ham o‘rganildi.

Beshinchidan, ilgari mamlakatda amalda bo‘lgan “O‘zbekiston SSRning Nikoh va oila kodeksi” (1969 yil 6 iyun), “SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalarning nikoh va oila to‘g‘risidagi qonun Asoslari” (1968yil 27iyun) asosida yozilgandi. Ularda respublika aholisining, ayniqsa o‘zbek halqining o‘ziga xos milliy va mahalliy xususiyatlari deyarli inobatga olinmagan.

Umuman olganda, ilgari amalda bo‘lgan Kodeks mamlakatimizda vujudga keltirilayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlarini chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va huquqiy tub o‘zgarishlarga javob beraolmay qoldi. O‘zbekiston Respublikasining yangi qabul qilingan Fuqarolik, Fuqarolik prosessual kodekslarida belgilangan qoidalarga zid kelib qoldi. Shuning uchun qonunchilikda bir butun yaxlitlikni saqlash maqsadida yangi Oila kodeksini tayyorlash va uni qabul qilish zururiyati paydo bo‘ldi.

Oltinchidan, oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilish tartibi va uning o‘ziga xos xususiyatlari Oila kodeksida berilishi lozim. Chunki moddiy huquqda belgilangan qoidalar prosessual huquqiy tartib asosida amalga oshiriladi.

Umuman, Oila kodeksi mamlakatimizda bunyod etilayotgan chinakam huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati, inson manfaatlari yo‘lida xizmat qilmog‘i lozim.

Oila kodeksi yana quyidagi vazifalarni o‘z oldiga qo‘ydi:

- xalqaro huquqiy qoidalarga asoslanib, tegishli milliy qonunlar yordamida oilani mustahkamlash, bolalar manfaatini himoya qilish;

- umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida oilalarning barqarorligini ta'minlash tizimini barpo etish;
 - mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi g'oyat murakkab davrida oilaga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish;
 - xonardonning serfayzligi, oila hayotining ravnaqi, ma'naviyatining yuksalishi, turmushining farovonligi asosan ayollarga bog'liqdir. Shuning uchun ham ayollarning oiladagi mavqeiga, huquqiy holatiga alohida e'tibor berish kerak. Bunda har bir oilaning o'ziga xos xususiyatini, millatimizning o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olish lozim;
 - sog'lom avlodni vujudga keltirishda milliy qadriyatlarimizga, xalqimizning azaliy an'analariga, islomiy axloqiy-ma'naviy aqidalarga amal qilgan holda ish yuritish joizdir;
 - bo'lajak onalarni tarbiyalashda milliy mafkura, urf-odat va an'analarni kengroq qo'llash maqsadga muvofiq;
 - sog'lom avlod haqida bola tug'ilmasdan oldin g'amxo'rlik qilish lozim;
 - oila qonunlarida belgilangan nikohga o'tish tartibi va shartlarini, oilada er-xotin, ota-onalar bilan bolalar, oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolani tarbiyaga olish tufayli kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarni tartibga solishga e'tiborni qaratishi;
 - oila to'g'risidagi qonun yosh oilalarning buzilayotganligi, tirik yetimlar ko'payayotgani, ayrim qiz-juvonlarimizning o'z joniga qasd qilayotgani, nopol yo'lga kirayotgani singari salbiy hodisalarning oldini olishga qaratilishi kerak edi.
- Yangi kodeksni tayyorlashda, unga ayrim huquqiy normalarni kiritishda quyidagi nazariy qoidalarga asoslanildi:
- oila huquqiga xos demokratik asoslarga tobora qat'iy amal qilish;
 - ayollar va erkaklarning oilada teng huquqlilagini ta'minlash;
 - oilaviy huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi sub'ektlarning shaxsiy va mulkiy huquqlari sud tomonidan himoya qilinishini yanada kengaytirish;
 - otalik, onalik va bolalik huquqlarining, oilaviy huquqning tartibga solinishini takomillashtirish;
 - oila a'zolarining shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlarini yanada to'la va aniq belgilash;
 - oila huquqiy normalari faqat katta yoshdagi shaxslargagina emas, balki kichik yoshdagi oila a'zolariga ham tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishini ta'minlash;
 - oila qonunlarida milliy va ma'naviy qadriyatlarga, mahalliy sharoitdan kelib chiqadigan eng yaxshi udum va an'analarga alohida e'tibor berish va boshqalar.
- Shuningdek, Kodeksga bajariladigan ish tartib qoidalarni soddallashtirish bo'yicha o'zgarishlar kiritildi;
- Kodeksdagi har bir mavzudagi yangi huquqiy qoidalari, ularning qonunchilikka kirib kelish sabablarini darslikda bat afsil yoritishga harakat qilindi.
- Qonun qabul qilingani hamma masala hal bo'ldi, degani emas. Qonun qabul qilinishini birinchi qadam deb tushunmoq kerak. Ikkinchisi, ya'ni asosiy hamda amaliy qadam fuqarolarning o'zlariga bog'liq: har qanday qonun ehtiyojga

aylangandagina to‘liq amal qila boshlaydi. Buning uchun, tabiiyki, oila a’zolari ularni o‘qib, o‘rganmoqlari va amal qilmoqlari kerak.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ish yuritish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomasi. Mazkur yo‘riqnomasi O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2013 yil 31 dekabrdagi 400-mh-sonli buyrug‘i bilan tasdilangan. Ushbu Yo‘riqnomasi O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalariga muvofiq fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ish yuritish tartibini belgilaydi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalari. Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 14 noyabrdagi 387-soni qarori bilan tasdiqlangan bo‘lib, u fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari, shaharchalar, qishloqlar va ovullar fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) va O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari hamda O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarining konsullik bo‘limlari tomonidan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartibini belgilaydi.

Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida Nizom. Nizom 2 bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘lim «Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka olish» deb nomlanib, u 1.Umumiy qoidalar – 1-4 bandlar. 2.Farzandlikka olinishi lozim bo‘lgan bolalarni va ularni farzandlikka olishni xohlagan shaxslarni hisobga olish – 5-11 bandlar, 3.Farzandlikka olish uchun talab qilinadigan hujjatlar – 12-14 bandlar, 4. Farzandlikka olish haqida hokimga taqdim etadigan tavsiyanomalarining tayyorlanishi – 15-band 4 paragrafdan iborat. 5. Farzandlikka olishni rasmiylashtirish va uni sir saqlash – 16-18 bandlar. 6. Farzandlikka olishning huquqiy oqibatlari – 19-20 bandlar. 7. Farzandlikka olishni bekor qilish uchun asoslar va uning oqibatlari – 21-25 bandlar. 8.Farzandlikka olinganlarning shaxsiy hujjatlarini saqlash tartibi – 26 band. 9.Chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan bolalarni farzandlikka olish – 27-29 bandlar. Ikkinci bo‘lim «Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat deb nomlanib, 1.Umumiy qoidalar – 1-3 bandlar. 2.Oilaga tarbiyaga beriladigan bolalarni va tutingan ota-onalarni hisobga olish – 4-7 bandlar. 3.Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to‘g‘risidagi kelishuv – 8-10 bandlar. 4.Tarbiyaga berilgan bolalarning moddiy ta’moti – 11-12 bandlar. 5.Bolalarni tarbiyaga olish to‘g‘risidagi kelishuvning bekor qilinishi – 13-14 bandlar. 6.Oilaga tarbiyaga olingan bolalarning huquqlari – 15-17 bandlar. 7.Tuttingan ota-onaning huquq va majburiyatlari – 18-20 bandlar.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar to‘g‘risida qoidalar. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida» 2000 yil 26 sentabrda qaror qabul qildi.

Unda voyaga yetmaganlar o‘rtasida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, ular tomonidan huqubzunarliklar sodir etilishining oldini olish, bu yo‘nalishda mas’ul

bo‘lgan davlat idoralari, jamoat tashkilotlari hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish va yanada takomillashtirish maqsadidagi masalalar o‘z ifodasini topdi.

Ushbu qarorga binoan voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar haqidagi Nizom hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiya tarkibi tasdiqlandi.

Bu komissiya har yarim yilda voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbarliklarning oldini olish hamda huquqiy-tarbiyaviy ishlarning ahvolini muhokama etib, bu borada mutasaddi idoralar rahbarlarining hisobotlarini eshitib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining oila huquqi masalalari bo‘yicha qarorlari. Oila huquqi qoidalarini to‘g‘ri tatbiq etishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining dasturiy ko‘rgazmalari katta ahamiyatga ega. Chunki yuridik fanlari doktorlari, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan armavzulari, professorlar F.Abdumajidov, G.P.Sarkisyans juda to‘g‘ri ta’kidlab o‘tganlaridek, Plenum ... Oila kodeksining ayrim moddalarini sudlarga tushuntirish bilan birga, nikohga o‘tish va nikohni bekor qilish, nafaqa undirish, otalikni belgilash, ota-onalik huquqidan mahrum qilish va boshqa masalalar bo‘yicha ham dasturiy tushuntirishlar berdi⁸.

Respublika Oliy sudi Plenumi qarorlari ichida oila ishlari bo‘yicha sud tajribasiga taalluqli bo‘lgan «Bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida» 1998 yil 11 sentabrdagi 23 sonli qarori⁹, «Sudlar tomonidan nikohdan ajratish haqidagi ishlarni ko‘rishda qonunlarni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida 1998 yil 11 sentabrdagi 22-sonli qarori¹⁰, «Otalikni belgilash haqidagi ishlarni ko‘rishda sudlar tomonidan qonunlarning tatbiq etilishi to‘g‘risida» 2001 yil 1 iyundagi qarori bor¹¹.

Nazorat savollari:

1. Huquqiy tizmlardan kelib chiqib oila huquqiga ta’rif bering.
2. O‘zbekiston Respublikasi oila huquqi prinsiplarini tahlil qiling.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenum qarori oila huquqining manbai bo‘ladimi?
4. Oila huquqi manbalarini kvalifikasiya qiling.

⁸ O‘zbekiston Respublikasining Oliy sudi. -T.: "O‘zbekiston", 1994y. 164 bet.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlarining to‘plami. 1991-1998. ikki jildli. 2-jild. T.: 1999, 110-127 betlar.

¹⁰ Yuqoridagi asar. 127-148 betlar.

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi. T.: 2001 yil, 30-37 betlar.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg‘ulot. Tadbirkorlik faoliyatida shartnomalar, ruxsat berish tartib-taomillari

1-topshiriq

“Fayz” MChJ (dastlabki kreditor), “Samo” xususiy korxonasi (yangi kreditor) va “Ilhom” AJ (qarzdor) o‘rtasida 2016 yil 15 aprelda talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish to‘g‘risidagi voz kechish to‘g‘rsida shartnomalar tuzilgan, unga ko‘ra “Ilhom” AJ majburiyat asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan talab qilish huquqini “Samo” hususiy korxonasiga o‘tkazishi, “Samo” hususiy korxonasi esa ushbu talab qilish huquqini qabul qilib olishi hamda “Fayz” MChJ va “Ilhom” AJ o‘rtasida 2015 yil 13 noyabrda tuzilgan.

2015/20-sonli asosiy shartnomalar bo‘yicha yangi kreditor bo‘lishi belgilangan.

Shuningdek, 2014 yil 10 dekabrda tuzilgan 67-sonli oldi-sotdi shartnomasiga asosan “Fayz” (sotib oluvchi) olingan mahsulot uchun “Ilhom” AJ (yetkazib beruvchi) dan 100 mln (100 000 000) so‘m qarzdor bo‘lgan. Ushbu oldi sotdi-shartnomasiga asosan mavjud 100 mln (100 000 000) so‘m qarzdolikni hisob-kitob qilish maqsadida, “Fayz” MChJ va “Ilhom” AJ o‘rtasida 2015 yil 13 noyabrda tuzilgan 2015/20-sonli asosiy shartnomalar bo‘yicha “Fayz” MChJ, “Samo” xususiy korxonasi va “Ilhom” AJ o‘rtasida 2016 yil 15 aprelda talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish to‘g‘risida shartnomalar tuzilgan.

Samarqand viloyat prokururaturasi tomonidan o‘tkazilgan rejadan tashqari tekshuruv natijasida “Fayz” MChJ, “Samo” xususiy korxonasi va “Ilhom” AJ o‘rtasida tuzilgan shartnomani haqiqiy emas deb topish to‘g‘rsida sudga ariza bilan murojaat qilgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

2-topshiriq

“Asaka” bank va “Hosilot” MChJ o‘rtasida 2018 yil 14 aprelda tuzilgan 827-son avtokredit shartnomasiga asosan, bank mas’uliyati cheklangan jamiyatga kredit mablag‘larini bergen.

Kredit mablag‘larining qaytarilishi ta’minoti sifatida bank va MChJ notarial tartibda tuzilgan garov shartnomasiga asosan mas’uliyati cheklangan jamiyatga tegishli avtomashinalar garovga qo‘yilgan va har bir avtomashinaning kelishilgan (boshlang‘ich sotuv) bahosi 47 500 000 so‘m miqdorida belgilangan.

Shuningdek, bank, mas’uliyati cheklangan jamiyatni va sug‘urta kompaniyasi o‘rtasida garovga qo‘yilayotgan transport vositalarini sug‘urtalash

bo‘yicha tuzilgan sug‘urta shartnomasi shartlariga ko‘ra, sug‘urta kompaniyasi belgilangan muddatga qadar mas’uliyati cheklangan jamiyatiga tegishli garovdagи avtomashinalarga yo‘l-transport hodisasi, yong‘in, portlash, transport vositasiga predmetlarning tushib ketishi, tabiiy ofatlar, uchinchi shaxslar noqonuniy harakatlari bilan ifodalangan sug‘urta hodisalari natijasida yuzaga kelgan zararni shartnomada nazarda tutilgan shartlarda mas’uliyati cheklangan jamiyatni yoki bank (benifisiar)ga qoplash majburiyatini, mas’uliyati cheklangan jamiyatni esa, sug‘urta mukofotini to‘liq va o‘z vaqtida to‘lash majburiyatini olgan hamda sug‘urta qiymati 95 000 000 so‘m miqdorida belgilangan.

Fuqaro I. Xotamov mas’uliyati cheklangan jamiyatining yo‘l varaqasi asosida o‘z boshqaruvida bo‘lgan, mas’uliyati cheklangan jamiyatiga tegishli avtotransport vositasi bilan yo‘l-transport hodisasi sodir qilgan. “Mulk baholash” mas’uliyati cheklangan jamiyatining xulosasiga ko‘ra, yo‘l-transport hodisasi natijasida avtotransportga 22 000 000 so‘m miqdorida shikast yetkazilganligi aniqlangan. Shu sababli mas’uliyati cheklangan jamiyatni sug‘urta tovonini undirish yuzasidan sudga murojaat qilgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

2-amaliy mashg‘ulot. Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish, raqobat va monopoliya, tadbirkorlik sub’ektlarining huquq va majburiyatları

1-topshiriq

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni maqsad qilgan A.Salimov advokatga murojaat qilib, undan davlat organlari tadbirkorlarni qay tartibda tekshirilishi, tekshirish davrida qaysi qonun hujjatlariga asosan tekshiruv o‘tkazilishini haqida huquqiy maslahat berishni so‘radi. Shuningdek, A.Salimov tekshirish, taftish va nazorat tartibida tekshirish haqida ham tasavvurlari mavjud emasligini aytdi.

Advokat sifatida unga qanday maslahat bergen bo‘lardingiz?

2-topshiriq

Navoiy viloyat statistika boshqarmasi “Sardor” MChJning faoliyatiga tekshirish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Qarorda MChJ uch yil davomida amalga oshirilgan faoliyat bo‘yicha statistik ma’lumotlarni boshqarmagan taqdim qilmaganligi, shuningdek korxonaning ustavi va boshqa ta’sisi hujjatlari, xodimlar shtatlar jadvali berilganligi ko‘rsatilgan edi. “Sardor” MChJ rahbari

tekshiruv noqonuniy ekanligini, o‘zi qonunga rioya qilgan holda mahsulot ishlab chiqarishini, bu harakatni xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning faoliyatiga aralashmaslik prinsipiiga zidligini ta’kidladi. Tadbirkorning qarshiligiga qaramasdan statistika organlari tomonidan tekshiruv o‘tkazilib, jarima qo‘llash haqida qarorga kelindi.

Tadbirkor va davlat organlari vakili nuqtai nazaridan vaziyatga huquqiy baho bering.

3-amaliy mashg‘ulot. Bankrotlikni huquqiy tartibga solish, tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini tugatishning huquqiy asoslari

1-topshiriq

Fuqaro Egamov yosh tadbirkorlardan biri. U O‘zbekistondagi eng yirik va moliyaviy jihatdan ancha barqaror bo‘lgan “Parvina bank”ning omonat jamg‘armasiga 50 000 000 so‘m pul mablag‘larini omonatga qo‘ygan edi. Biroq vaqt o‘tishi bilan ushbu bankning moliyaviy ahvoli og‘irlashib bordi. Natijada O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunining 53-moddasi va “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 14-moddasiga asosan, amaldagi bank qonunchiligi talablarini buzganligi sababli O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki “Parvina bank” tijorat bankidan bank operasiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi lisenziyani chaqirib oldi.

Tadbirkor Egamov sizdan yuridik yordam olish uchun murojaat qilib, uning omonatga qo‘ygan mablag‘larining taqdiri nima kechishi, qanday qilib o‘z omonatini qaytarib olishi, uning tartibi va asoslari, shuningdek bankning tugatish tartibi va bunda omonatchilar huquqlarining kafolatlari bo‘yicha huquqiy maslahat so‘radi.

Vaziyatni qonun hujjatlari asosida tahlil qiling.

2-topshiriq

Avvalgi qilmishi tufayli xalqaro jinoyat sodir etgan va hozirgi vaqtida jazodan ozod etilgan AQSh fuqarosi bo‘lgan ishbilarmon o‘z kompaniyasi, ya’ni mobil telefonlar ishlab chiqaruvchi “Technology” kompaniyasi orqali o‘z filialini O‘zbekiston Respublikasida ochishni maqsad qilib qo‘ydi. Shu asnoda ushbu ishbilarmon tomonidan investisiya kiritish istagi ham borligi uning o‘z filialini ochayotgan vaqtida ma’lum qilindi. O‘z mahsulotlarini sotish va ularni ishlab

chiqarish sifatida Jizzax viloyatida ochishni rejalashtirdi hamda investisiya sifatida 50 mln. AQSh dollarlik investision kelishuvni tuzish va energiya ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan AES qurishni bildirib o'tdi. Ammo, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan ushbu investisiya bitimi tuzilishi rad etildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

4-amaliy mashg'ulot. Nikoh tuzish, bekor qilish va uni haqiqiy emas deb topish asoslari

1-topshiriq

Gulnora Rajapova turmushga chiqquniga qadar og'ir jarrohlik operasiyasini boshidan o'tkazadi va shifokorlarning tibbiy xulosasiga ko'ra u kelajakda farzand ko'ra olmasligi aniqlanadi. Kamolov YAshar bilan nikoh munosabatiga kirishib, Rajapova o'zining farzand ko'ra olmasligini yashiradi, lekin Kamolov YAshar esa kelajakda farzandlari bo'lishini xohlar edi.

Ularning nikohlari qayd etib o'tilganidan bir necha oy o'tganidan so'ng Kamolov YAshar xotinining farzand ko'ra olmasligini bilib qoladi va FHDYO organlarini nazorat qiluvchi yuqori organga tuman FHDYO bo'limi mudirining ustidan shikoyat yozmoqchi ekanligini, chunki ularning nikohini qayd etgan FHDYO bo'limi mudiri Kamolovning fikricha, o'z vazifasini bajarmay Rajapova Gulnoraning salomatligi xususida bo'lajak erini ogohlantirmagan.

Kamolov YAsharning arzi o'rinnimi? Rajapova Gulnora va Kamolov Yashar o'rtalaridagi nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bormi?

2-topshiriq

Emansipasiya holatida bo'lgan Norova Zulfiya Ashurov Nodir bilan birgalikda nikoh tuzishlari haqida kelishib oladilar. Lekin qizning onasi Norova qizining hali voyaga yetmaganligi, to'la muomala layoqatiga ega emasligini vaj qilib, ularning nikoh tuzishlariga rozilik bermaydi. Shunday bo'lsa-da, Norova va Ashurov FHDYO organiga ariza bilan murojaat qilib, o'zlarining nikohlarini qayd ettiradilar. Bunga norozi bo'lgan Zulfiyaning onasi sudga murojaat qilib, qizining nikohni haqiqiy emas deb topishni va farzandini Ashurov bilan bo'lgan nikohidan ajratishlarini so'raydi.

Ushbu holat bo'yicha fuqarolik ishlari bo'yicha tuman sudi sudyasi qanday qaror chiqarishi lozim? Nikohni haqiqiy emas deb topish uchun qanday asoslar mavjud bo'lishi kerak? Onaning arizasi qanoatlantiriladimi?

5-amaliy mashg‘ulot. Ota-onha hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatları, aliment masalalari

1-topshiriq

Sudga da’vogar A.Suyunov da’vo ariza bilan murojaat qilib, fuqarolik ishlari bo‘yicha Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumanlararo sudining 2012 yil 18 apreldagi sud buyrug‘iga asosan undan undiruvchi R.I.Bozorovaning foydasiga ikki nafar 2007 yil 3 may kuni tug‘ilgan Otamurodov Abdiaziz Abdug‘affor o‘g‘li va 2003 yil 13 oktabr kuni tug‘ilgan Otamurodov Faxriddin Abdug‘affor o‘g‘li ismli farzandlari ta’minoti uchun 2012 yil 16 yanvar kunidan boshlab aliment undirish belgilanganligi va undan har oydagisi sh haqi va (yoki) boshqa daromadining uchdan bir qismi miqdorida aliment undirilayotganligi, bundan tashqari fuqarolik ishlari bo‘yicha Uchtepa tumanlararo sudining 2013 yil 9 aprel kungi sud buyrug‘iga asosan undan undiruvchi M.F.Karimovaning foydasiga ikki nafar 2010 yil 16 aprel kuni tug‘ilgan Suyunov Zuxriddin Abdug‘affor o‘g‘li va Suyunov Jaloliddin Abdug‘affor o‘g‘li ismli farzandlari ta’minoti uchun undan har oydagisi sh haqi va (yoki) boshqa daromadining uchdan bir qismi miqdorida 2013 yil 9 apreldan boshlab aliment undirish belgilanganligi, hozirgi kunda barcha alimentlarni to‘lab kelayotganligini, oyligi kamligi sababli to‘lashga qiynalib yashayotganligi haqida ko‘rsatma berib, da’vosini qanoatlantirishni, **aliment undirish miqdorini kamaytirib**, aliment miqdorini oylik sh xaqqini ikkidan bir qismida belgilashni so‘ragan.

Mazkur holatga huquqiy baho bering.

2-topshiriq

O‘zbekiston Respublikasi oila qonunchiligidan kelib chiqib aliment turlarini tasniflang, ya’ni ularni guruhlarga birlashtiring.

Bunda alimentlarni tasniflash mezonlari tinglovchi tomonidan mustaqil tanlanadi.

6-amaliy mashg‘ulot. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish masalalari sohasiga oid qonunchilikdagi so‘ngi islohot va ilmiy izlanishlar

1-topshiriq

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish masalalari sohasiga oid qanday mavzulavrda ilmiy izlanishlar olib borish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi

Topshiriq sharti: bunda har bir tinglovchi dolzarb bo‘lgan uchta mavzu tanlash va ushbu mavzularda ilmiy tadqiqotlar olib borish nima uchun dolzarbliги asoslash hamda ushbu tadqiqotdan kutilayotgan natija nimadan iboratligini ko‘rsatib berish lozim.

2-topshiriq

Ermatov va Boboevalar FXDYO organiga ularning nikohini qayd etishlarini so‘rab murojaat qiladilar. Shundan bir necha kun o‘tganidan so‘ng, FXDYO bo‘limi mudiriga Ermatov va Boboevalarning nikohga kirish uchun ariza bergenliklarinidan xabar topgan Mirobidova ularning nikohini rasmiylashtirmasliklarini, chunki Mirobidova Mavjuda bir necha yildan beri Ermatov bilan birga yashayotganligini, ushbu davr ichida ular o‘rtasida hech qanday nizo yo‘qligi, ular o‘rtasida 5 yoshli o‘g‘illari borligini, lekin ular qonuniy nikohda emasliklarini bildiradi. Ermatov o‘zini o‘g‘lining otasi ekanligini tan olganligini Mirobidova ta’kidlab o‘tadi.

FXDYO bo‘limi mudirasi Mirobidovaga qanday tushuntirish berishi lozim? FXDYO organi Ermatov va Boboevalarning nikohini rasmiylashtirmaslikka haqlimi?

V. KEYSALAR BANKI

Amaliy yo‘naltirilgan, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlovchi uslublar o‘z xususiyatlari ko‘ra innovation hisoblanadi. Ularga: tashkiliy-faoliyatli o‘yinlar (TFO‘), ishchan va rolli o‘yinlar, personallarning muloqoti, ijodiy ishlar, psixotexnika, rolli trening, “Case-study” va boshqalar kiradi. “Case-study” – turli vaziyatlarning tavsifidan, ya’ni keyslardan foydalangan holda o‘quvchilarda aniq ko‘nikmalarini shakllantirish texnikasidir.

Keys — biror tashkilotdagi qandaydir aniq real vaziyatning yozma tavsifidir. Undan foydalanish mobaynida o‘quvchilardan vaziyatni tahlil qilish, muammoning mohiyatini ko‘rib chiqish, mumkin bo‘lgan variantlarni taklif etish va ulardan eng maqbulini tanlash so‘raladi.

Ixtiyoriy *keys* o‘qituvchiga, uni ta’lim jarayonining ixtiyoriy bosqichlarida, jumladan, o‘qitish va uning natijalarini nazorat qilish mobaynida foydalanish imkoniyatini beradi.

1-masala

“Sleepy” AJ jamiyatning aksiyalar nominal qiymatini oshirish yo‘li bilan ustav fondini 15 foizga ko‘paytirish to‘g‘risida kuzatuv kengashi a’zolarining ko‘pchilik ovozi bilan qaror qabul qilindi. Ammo bu qarordan norozi bo‘lgan imtiyozli aksiyalar egalari ushbu masala jamiyat umumiyligiga yig‘ilishida barcha aksiyadorlar ishtirokida, shu jumladan, imtiyozli aksiyadorlar ovoz berish huquqi asosida hal qilinishi lozimligini qayd etishdi. Ushbu qarorni bekor qilish uchun imtiyozli aksiyalar egasi iqtisodiy sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilishdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

2-masala

“Epsilon” AJ direktori xizmat safaridaligida uning shartnomalar tuzishga ishonchnomasi bo‘lgan o‘rinbosari mustaqil ravishda, kuzatuv kengashi bilan

kelishmasdan 100 mln. so‘mlik qurilish ishlarini bajarishga “Berrak” MChJ bilan shartnomani imzoladi, o‘rnbosar “Berrak” MChJning ustav fondida 22 foizlik ulushga ega. “Berrak” MChJning hisob-kitob raqamiga 15 mln so‘m bo‘nak o‘tkazildi.

Safardan qaytgach, rahbar pudrat shartnomasini bekor qilishni talab qildi, chunki unda pudrat ishlari summasi oshirib yuborilgan edi. “Berrak” MChJga bir necha bor xat yozildi. Biroq “Berrak” MChJ rahbariyati shartnomani bekor qilishdan bosh tortdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

3-masala

“Treklizing” AJ va “Parvon” fermer xo‘jaligi o‘rtasida 2014 yil 12 iyunda lizing shartnomasi tuzilgan. Mazkur shartnomaga asosan “Treklizing” AJ (lizingga beruvchi) “Parvon” fermer xo‘jaligi (lizingga oluvchi)ning topshirig‘iga binoan “Bernard” MChJ (sotuvchi)dan 1 dona TTZ-80.11-rusumli traktorni sotib olib uni 5 yil muddatga lizing oluvchiga lizingga berishi, lizingga oluvchi esa traktor uchun oldindan uning bahosini 15 foizi miqdorida avans to‘lab berishi, shuningdek lizing to‘lovlarining qolgan qismini to‘lov jadvali asosida to‘lab borishi belgilangan. 2014 yil 15 iyunda “Treklizing” AJ va “Bernard” MChJ o‘rtasida oldi-sotdi shartnomasi tuzilib, unga ko‘ra “Bernard” MChJ 1 dona TTZ-80.11-rusumli traktorni 24 000000 so‘mga “Treklizing” AJga berish, “Treklizing” AJ esa traktor haqini to‘lab berish majburiyatini olgan.

Oldi-sotdi shartnomasining 5.3-bandida traktor qiymatining 15 foizi oldindan to‘lanishi, to‘loving qolgan qismi 90 kun ichida amalga oshirilishi belgilangan. Shartnomaning 4.1-bandida lizing ob’ekti shartnoma tuzilgan kundan boshlab 30 kun muddat ichida sotuvchi omborida topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan lizing beruvchi tomonidan lizing oluvchiga topshirilishi belgilangan.

Biroq shartnomada belgilangan muddat ichida lizing ob’ekti lizing oluvchiga topshirilmagan. 2014 yil 2 sentabrda sotuvchi omborida yong‘in

yuzaga kelishi natijasida lizing ob'ekti yonib ketgan. Sotuvchi oldi-sotdi shartnomasida belgilangan muddatlarda lizing ob'ekti olib ketilmaganligi sababli traktor uchun amalga oshirilmasdan qolgan 22 400000 so'mni lizingga beruvchi va lizingga oluvchidan solidar tartibda undirishni so'ragan.

4-masala

“Zamin” Agrofirmasi va ko‘p tarmoqli “Asadbek” fermer xo‘jaligi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga ko‘ra, “Zamin” Agro firmasi 2018 yil 20 fevral kunida tirik vazni 5 tonnaga teng bo‘lgan, go‘shti istemol qilishga mo‘ljallangan zotdor parranda etkazib majburiyatini oladi. Shartnoma mahsulotlarni etkazib berish joyi sifatida “Zamin” Agro firmasiga qarashli Qibray tumani “Baytqo‘rg‘on” mahallasida Qumqurg‘on ko‘chasi 5-uy manzilidagi parrandachilik fabrikasi belginadi.

2018 yil 19 fevral kuni “Zamin” Agrofirmasi “Asadbek” fermer xo‘jaligini mahsulotlarni shartnoma belgilangan kuni olib ketish mumkinligi xususida xabardor qildi. Biroq “Asadbek” fermer xo‘jaligi 29 fevral kuni kelib, shartnoma nazarda tutilgan mahsulotni talab qiladi. “Zamin” Agrofirmasi mahsulotlarni o‘z vaqtida olib ketmaganligi, ularni yana saqlash ortiqcha xarajat talab qilishi, “Asadbek” fermer xo‘jaligining shartnomada belgilangan muddatda olib ketmaganlini, uning sotib olish xohishi yo‘q deb hisoblashiga sabab bo‘lganligi vaj qilib ko‘rsatib, boshqa shaxsga sotib yuborganligin ma’lum qiladi.

5-masala

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan berilgan 2015 yil 14 iyundagi lisenziyaga asosan “ESSA” MChJga O‘zbekiston Respublikasi hududida tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi o‘tkazish bo‘yicha auditorlik faoliyatini amalga oshirishga ruxsat etilgan.

2019 yil 15 sentabrda Moliya vazirligi tomonidan o‘tkazilgan tekshiruv natijasida “ESSA” MChJning ikki nafar auditorining auditor malaka sertifikatlarining amal qilish muddati 2019 yil 4 avgustda tugaganidan keyin auditorlik tashkilotining birorta auditorga ega emas bo‘lib qolganligi aniqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi “ESSA” MChJga berilgan lisenziyaning amal qilishini tugatishni so‘rab sudga murojaat qilgan.

6-masala

Yangi tashkil etilayotgan “Zamon” xususiy aksiyadorlik tijorat banki lisenziya olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga tegishli tartibda ariza va ta’sis hujjatlarini taqdim etdi. Markaziy bank ushbu tijorat bankning ta’sis hujjatlarini o‘rganib, olti oy muddatga taxminiy ruxsatnoma berdi. Shu muddat davomida xususiy aksiyadorlik tijorat banki ustav kapitalining eng kam miqdorini shakllantira olmadi. Muddat tugagach, mazkur bank Markaziy bankka lisenziya berishini so‘rab hamda ustav kapitalining eng kam miqdorini lisenziya olgandan so‘ng ikki oy davomida shakllantirishi haqida murojaat qildi.

7-msala

“Nation Gaz” MChJ neft gaz mahsulotlarini realizasiya qilish foliyati bilan shug‘ullanadi. Vakolatli organlar tomonidan MJCh faoliyatida majburiy sertifikatlashtirish qoidalariга rioya etilishi yuzasidan tekshirish o‘tkazilganida 2019 yilda 1 martida sertifikatlanishi lozim bo‘lgan lekin sertifikatlanmagan gaz mahsulotini realizasiya qilish holati aniqlangan.

Tekshirishda mas’uliyati cheklangan jamiyat tomonidan 2017 yilning 19 iyulidan 1 oktabriga qadar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo‘lgan, ammo sertifikatlanmagan 154,2 million so‘mlik 519,9 ming m³ siqilgan tabiiy gaz mahsuloti sotilganligi aniqlangan va bu holat yuzasidan 2019 yil 1 martda tegishli dalolatnoma tuzilgan.

Mazkur tekshirish natijalari bo‘yicha viloyat standartlashtirish va metrologiya boshqarmasining 2019 yil 10 apreldagi qarori bilan mas’uliyati cheklangan jamiyatga nisbatan 154,2 million so‘m moliyaviy jarima hisoblangan va jarima summasini o‘n kun muddatda ixtiyoriy ravishda to‘lab berish to‘g‘risida mas’uliyati cheklangan jamiyatga talabnoma berilgan.

Biroq, mas’uliyati cheklangan jamiyat tomonidan ushbu moliyaviy jarima summasi ixtiyoriy ravishda to‘lab berilmaganligi sababli arizachi -viloyat standartlashtirish va metrologiya boshqarmasi javobgar – mas’uliyati cheklangan jamiyatga nisbatan 154,2 million so‘m miqdorida moliyaviy sanksiya qo‘llashni va undirishni so‘rab iqtisodiy sudiga ariza bergen.

“Nation Gaz” MChJ esa korxonaga qo‘yilgan jarima qonun hujjatlariga nomuvofiq ekanligini vaj qilib jarima to‘lashdan bosh tortmoqda.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

8-masala

Soliq to‘lovchi “A” MChJ soliq to‘lashni kechiktirishni so‘rab soliq organiga ariza bilan murojjat qildi. Keyin aniq bo‘ldiki, ushbu shaxs ikki yil oldin ham soliq to‘lashni kechiktirishni so‘ragan va kechiktirish bilan bog‘liq qoidalarni buzgan. Biroq, soliq to‘lovchi tabiiy ofat tufayli katta zarar ko‘rganligini aytib, yaqin yillarda soliq to‘lay olmasligini bildiradi. Soliq organi soliq to‘lovchining bankiga murojaat qilib, undan barcha hisob raqamlari haqidagi ma’lumotlarni taqdim qilishni so‘raydi. Bank 5 kun muddat ichida ushbu ma’lumotlarni beradi. Shularni o‘rgangan holda, murojaat qanoatlantirilib, uch yilga soliq qarzlarini to‘lash kechiktiriladi. Bir yildan keyin ushbu shaxsga nisbatan soliq audit joriy qilinadi. Shaxs barcha hujjatlar uchinchi shaxsda ekanligini aytadi. Uchinchi shaxs soliq to‘lovchi “A”ning hisob hujjatlarini taqdim qilishni rad qiladi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

9-masala

Rossiya Federasiyasining “EUROPE CHEMICAL FERTILIZER” korxonasi tomonidan kimyoviy o‘g‘itlar ishlab chiqarish uchun investisiya shartnoma loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiyalar va savdo vazirligiga taklif etgan. Mazkur shartnoma loyihasini tekshirish davomida Adliya vazirligining xulosasi olinmaganligi aniqlandi. Shuningdek, ushbu shartnomani amalga oshirish va uni har tomonlama o‘rganishda soliq organlaridan xulosa, shartnomaning manbai bo‘yicha qo‘srimcha materiallar talab etildi va loyiha korxonaga qaytarib berildi. Ammo ushbu korxona tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 2 avgustdagi 180-son qaroriga 2-ILOVA “Investisiya shartnomalarini tuzish va amalga oshirish

tartibi to‘g‘risida” gi Nizomga ko‘ra faqat xulosalar berishi lozimligi, shuningdek, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga ko‘ra “qonun hujjatlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo‘lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik faoliyati sub’ektining foydasiga talqin etiladi”, deb asos keltiradi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

10-masala

Hindiston Respublikasi fuqarosi Jonu Dilagar nikohdan ajralish, bolani olish, mol-mulkni bo‘lish to‘g‘risidagi da’vo talabi bilan xotini O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan va Hindiston Respublikasi fuqaroligini olgan, hozirda Chilonzor tumani S-15 mavzesida vaqtinchalik yashayotgan javobgar Dilu Dilagarga nisbatan Chilonzor tumanlararo fuqarolik ishlari bo‘yicha sudiga murojaat qiladi. Da’vo arizasida ko‘rsatilishicha, hozirda xotini bilan ajrashmoqchi ekanligini, oralarida ikki nafar farzandlari borligini, xotini yashab turgan uyni ham o‘zi olib bergenligini, faqat uni Toshkent shahrida yashovchi singlisi Mamedova F. nomiga rasmiylashtirilganligini, sud orqali bolalarini ham olib ketmoqchi ekanligini, uyni ham sotmoqchiligin, vaqt-vaqt bilan tijorat maqsadida Toshkentga kelganida bolalarini onasiga ko‘rsatib turishligini, lekin o‘zi Toshkentda butunlay yashay olmasligini, chunki u Hindiston fuqarosi ekanligini, u erda ota-onasiga qarash kerakligini ko‘rsatib o‘tadi.

Savol: xorijiy mamlakatlar qonunchiligining O‘zbekiston Respublikasi sudlarida oila masalalari bo‘yicha tadbiq qilishini sharhlang.

11-masala

Tolipova sodir etgan jinoyati uchun 5 yil ozodlikdan mahrum qilingan eri Tolipov bilan nikohdan ajratilish to‘g‘risida FHDYOga ariza beradi. Arizaga ilova qilib Tolipovning ozodlikdan mahrum qilinganligi to‘g‘risidagi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmidan ko‘chirmani ham keltiradi. Tolipova FHDYO

xodimlariga Oila kodeksining 43-moddasini ro‘kach qilib “o‘rtada voyaga etmagan bolalari borligidan qat’i nazar” uni nikohdan ajratib berishlarini so‘raydi. Biroq FHDYO xodimi Oila kodeksining 219-moddasida keltirilgan “bolalar va mol-mulk xususida erida nizosi” yo‘qligi haqidagi tilxatni ola kelishni so‘raydilar. FHDYO organining bu harakati asoslimi?

Agar ayol tilxatni ololmasa, masala qanday hal qilinadi? (buning alohida tartibini bilish uchun Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi Qaroriga (ilovasiga) murojaat eting va butun prosedurani tushuntiring).

Oilaning, onalik, otalik va bolalikning muhofaza qilinishi: milliy va xorijiy tajriba xususida mulohaza yuriting. Mulohazangizni ushbu masala bilan ham ko‘rib chiqing.

12-masala

Bo‘lajak er-xotinlar Ahrorov va YAngiboevalar YUnusobod tumani 1-sonli FHDYO organiga nikohlarini rasmiylashtirishni so‘rab ariza bilan murojaat qiladilar. Ular o‘zlarining arizalarida Ahrorov va YAngiboevalar familiyasini umumiy familiya qilib qoldirishlarini so‘raganlarida, FHDYO mudirasi ularga faqatgina bitta familiyani umumiy familiya qilib tanlash yoki har biri o‘zining turmushga qadar bo‘lgan familiyasini qolishi mumkinligini tushuntirganda, ular o‘z e’tirozlarini bildirib, FHDYO bo‘limi mudirasi ustidan shikoyat qilishlarini ma’lum qiladilar.

Aytingchi, Oila huquqida nikoh munosabatlariga kirishayotgan shaxslarga ikkita familiyani umumiy familiya qilib tanlash huquqi beriladimi? Ahrorov va Yangiboevalarning e’tirozlari asoslimi?

13-masala

Emansipasiya holatida bo‘lgan Norova Zulfiya Ashurov Nodir bilan birgalikda nikoh tuzishlari haqida kelishib oladilar. Lekin qizning onasi Norova qizining hali voyaga etmaganligi, to‘la muomala layoqatiga ega emasligini vaj qilib, ularning nikoh tuzishlariga rozilik bermaydi. Shunday bo‘lsa-da, Norova va Ashurov FHDYO organiga ariza bilan murojaat qilib, o‘zlarining nikohlarini

qayd ettiradilar. Bunga norozi bo‘lgan Zulfiyaning onasi sudga murojaat qilib, qizining nikohini haqiqiy emas deb topishni va farzandini Ashurov bilan bo‘lgan nikohidan ajratishlarini so‘raydi.

Ushbu holat bo‘yicha fuqarolik ishlari bo‘yicha tuman sudi sudyasi qanday qaror chiqarishi lozim? Nikohni haqiqiy emas deb topish uchun qanday asoslar mavjud bo‘lishi kerak? Onaning arizasi qanoatlantiriladimi?

14-masala

Mirzo Ulug‘bek tumani FHDYO bo‘limiga 15 yoshga to‘lgan Iqbolova noqonuniy tug‘ilgan farzandiga tug‘ilganlik haqida guvohnoma berilishini so‘rab murojaat qildi. FXDYO bo‘limi mudirasi Iqbolovaning hali to‘la muomala layoqatiga ega emasligini inobatga olib, ota-onasidan nabiralarining tug‘ilganligini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga roziliklari hamda uni tarbiyalashda ishtirok etib, moddiy jihatdan ta’minlashlari xususida yozma rozilik berishlari kerakligini uqtiradi.

Iqbolovaning ota-onasi bunga e’tiroz bildirib, qizlarining qilgan hatti-harakatlari ustidan norozi ekanliklarini bildiradilar va hech qanday moddiy va ma’naviy yordam bera olmasliklarini bildiradilar.

FHDYO bo‘limi mudirasining talablari o‘rinlimi? Voyaga etmagan ota-onaning bolaga nisbatan qanday huquq va majburiyatlar mavjud?

15-masala

Mirzo Ulug‘bek tumani FHDYO bo‘limiga 15 yoshga to‘lgan Iqbolova noqonuniy tug‘ilgan farzandiga tug‘ilganlik haqida guvohnoma berilishini so‘rab murojaat qildi. FXDYO bo‘limi mudirasi Iqbolovaning hali to‘la muomala layoqatiga ega emasligini inobatga olib, ota-onasidan nabiralarini tug‘ilganligini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga roziliklari hamda uni tarbiyalashda ishtirok etib, moddiy jihatdan ta’minlashlari xususida yozma rozilik berishlari kerakligini uqtiradi.

Iqbolovaning ota-onasi bunga e'tiroz bildirib, qizlarining qilgan hatti-harakatlari ustidan norozi ekanliklarini bildiradilar va hech qanday moddiy va ma'naviy yordam bera olmasliklarini bildiradilar.

FHDYO bo'limi mudirasining talablari o'rinnimi? Voyaga etmagan ota-onaning bolaga nisbatan qanday huquq va majburiyatlari mavjud?

VI. GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Tadbirkorlik (biznes) huquqi subektlari	belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar	legal entities and individuals who are duly registered and engaged in business activities
Tadbirkorlik faoliyati	(tadbirkorlik) tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir. Tadbirkorlik subektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning tadbirkorlik subektlarining ro‘yxatdan o‘tkazish ma’lumotlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Tadbirkorlik sub’ektlari yagona davlat reestriga kiritish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlari	(entrepreneurship) is an entrepreneurial activity carried out by business entities in accordance with the legislation, aimed at obtaining income (profit) at their own risk and under their own property liability. State registration of a business entity - registration actions of business entities related to the inclusion of registration data in the Unified State Register of Entrepreneurs in the manner prescribed by law
Tijoratchi bo‘lмаган ташкilot	foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot yuridik shaxs	an organization that does not make such a profit is a legal entity
Tijoratchi ташкilot	foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan yuridik shaxs	a legal entity whose main purpose is to make a profit

Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari	ulushlarga (qo‘shilgan hissalarga) yoki muassislarning (ishtirokchilarning) aksiyalariga bo‘lingan ustav fondi (ustav kapitali) ga ega bo‘lgan tijoratchi tashkilotlar	commercial organizations that have a charter fund (charter capital) divided into shares (contributions) or shares of the founders (participants)
Xususiy korxona	mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot	a commercial organization created and managed by a single individual owner
Yuridik shaxs	o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan u shbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulk iy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot	who has separate property in his / her property, economic management or operational management and is liable for his / her obligations with this property, who may have property or personal non-property rights on his / her behalf and an organization that can perform, fulfill its obligations, be a plaintiff and a defendant in court
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirish, yangi tovarlarni tayy orlash, shu jumladan tovarlarni ularning asosiy xususiyatlarini qayta ishlash mahsulotlarida saqlab qolgan holda montaj qilish, yig‘ish yoki qismlarga	carrying out business activities by an individual (sole proprietor) without the formation of a legal entity, production of new goods, including assembly,

	ajratish	assembly or disassembly of goods while retaining their basic properties in processed products
Barter shartnomasi	kelishib olingan miqdordagi bir tovari boshqa bir tovarga o‘zaro hisob kitoblarni valyutada amalga oshirmsandan almashtirishni nazarda tutuvchi shartnoma	an agreement that provides for the exchange of one agreed amount of goods for another without the need for mutual settlements in foreign currency
Majburiyatlarni lo zim darajada bajarish	majburiyatlarni shartnoma shartlariga va qonun hujjatlari talablar iga muvofiq, bunday shartlar va talabl ar bo‘limganida esa ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo‘yiladigan boshqa talablarga muvofiq tarzda bajarish	to perform the obligations in accordance with the terms of the contract and the requirements of the legislation, and in the absence of such conditions and requirements, in accordance with the customs of business or other requirements
Shartnoma shartlari	o‘zaro huquq va majburiyatlarni belgi lab olish usuli	a way of defining mutual rights and obligations
Fors-major	tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog‘liq bo‘limgan tabiat hodisalari (zilzila, ko‘chki, bo‘ron, qurg‘oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko‘zlab import va eksportni taqiqlash va	natural disasters (earthquakes, landslides, hurricanes, droughts, etc.) or socio-economic circumstances (state of war, siege, banning imports

	boshqalar) sababli yuzaga kelgan shar oitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqul odda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlardir	and exports in the interests of the state, not related to the will and activities of the parties, and others) are emergencies, unavoidable and unforeseen circumstances that prevent the parties from fulfilling their obligations under the circumstances
Tadbirkorlik shartnomasi	ikki yoki undan ortiq tadbirkorlik subektlarining huquq va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish va bekor qilish haqidagi foyda olishni maqsad qilib qo‘ygan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq o‘zaro kelishuvidir	is a mutual agreement between two or more business entities to carry out business activities aimed at making a profit on the creation, modification and termination of their rights and obligations
Tadbirkorlik shartnomasining redmeti	bir tarafning ikkinchi taraf foydasiga majburiyatlarni bajarish bo‘yicha amalga oshirishi kerak bo‘lgan harakatlari natijasi bo‘lgan etkaziladigan mahsulot, bajariladigan ishlar yoki ko‘rsatiladigan xizmatlar	the goods, works or services to be delivered as a result of the actions of one party to perform the obligations in favor of the other party
Tadbirkorlik shartnomasining taraflari	shartnomaga imzo qo‘yish yoki boshqa tarzda shartnomada yuzasidan huquqlarga ega bo‘ladigan va majburiyat(lar)ni zimmasiga oladigan, shuningdek shart nomada nomi taraf sifatida e’tirof etilgan shaxs	a person who has the right to sign the contract or otherwise under the contract and assumes the obligation (s), as well as the person whose name is recognized as a

		party to the contract
Lisenziya	lisenziyalovchi organ tomonidan yuri dik yoki jismoniy shaxsga berilgan, lisenziya talablari va shartlar iga so‘zsiz rioya etilgani holda faoliyatning lisenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (huquq)	Permit (right) issued by a licensing body to a legal entity or an individual to carry out the licensed type of activity with unconditional compliance with the terms and conditions of the license
Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomili (ruxsat berish tartib-taomili)	harakatlarni bajarish va (yoki) muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berish to‘g‘r isidagi arizaning topshirilishi va ko‘rib chiqilishi, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning berilishi, amal qilish muddatining uzaytirilishi, to‘xtatib turilishi, qayta tiklanishi, tugatilishi, qayta rasmiylashtirilishi va bekor qilinishi jarayoni bilan bog‘liq tadbirlar majmui	submission and consideration of the application for the issuance of a permit for the performance of actions and (or) the implementation of certain activities, the issuance of a permit, extension, suspension, reinstatement, a set of measures related to the process of liquidation, re-registration and cancellation
Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat	vakolatli organ tomonidan qabul qilinadigan va tadbirkorlik subektiga beriladigan, tadbirkorlik faoliyati soha sida harakatlarni bajarish va (yoki) muayyan faoliyatni amalga oshirish huquqini beradigan hamda ruxsatnoma, kelishuv, xulosa shaklida, shuningdek qonun hujjatlarida nazard a tutilgan boshqa shakllarda ifodalana digan qaror	a decision adopted by the competent authority and issued to the business entity, giving the right to perform actions and (or) to carry out certain activities in the field of entrepreneurial activity and

		expressed in the form of permits, agreements, conclusions, as well as other forms provided by law
Nazorat qiluvchi organlar	tadbirkorlik subektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishga qonun hujjatlari bilan vakolat berilgan vazirliklar va idoralardir	ministries and agencies authorized by law to control the activities of business entities by the state
Tekshirish	deganda tadbirkorlik subektlari tomon idan qonunlar hamda o‘z faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari qanday bajaril ayotganligini nazorat qiluvchi organlarning bir marta nazorat qilishi tushuniladi	means a one-time control by law enforcement agencies over the implementation of laws and other legislation governing their activities
Raqobat	xo‘jalik yurituvchi subektlarning (raq obatchilarining) musobaqalashuvi bo‘lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi	competition of economic entities (competitors), in which their independent actions exclude or limit the possibility of unilateral influence of each of them on the general conditions of commodity circulation in the commodity or financial market
	raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida xo‘jalik yurituvchi subektl	actions prohibited

Raqobatga qarshi harakatlар	ar uchun man etilgan harakatlar, shuningdek davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda ular mansabдор shaxslarining raqobatni cheklashga qaratilgan harakatlari (har akasizligi)	by the competition legislation for business entities, as well as actions (inaction) of public administration bodies, local authorities and their officials aimed at restricting competition
Insofsiz raqobat	xo‘jalik yurituvchi subektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo‘lishga qaratilgan, qonun hujjatlariga, ish muomalasi odatlariga zid bo‘lgan hamda boshqa xo‘jalik yurituvchi subektlarga (raqobatchilarga) zarar etkazadigan yoki zarar etkazishi mumkin bo‘lgan yoxud ularning ishchanlik obro‘siga putur etkazadigan yoki putur etkazishi mumkin bo‘lgan harakatlari	aimed at gaining an advantage of the business entity or group of persons in the implementation of economic activities, which contradicts the legislation, business practices and causes or may cause harm to other business entities (competitors) or their actions that may or may not damage the business reputation
Oila	Bu nikoh, er-xotinlik, farzandlar, ota-onalar hamda o‘zaro qarindosh, qondosh, qarindosh bo‘lgan shaxslarning umumiy ro‘zg‘or, umumiy xo‘jalik hamda oiladagi maishiy-madaniy ishlarni g‘amxo‘rlik, o‘zaro hurmat, hamjihatlik asoslarida	It is a group of persons, marriage, couple, children, parents and relatives, cousins, relatives who

	yurituvchi shaxslar guruhi, ittifoq, xonardon	carry out the common household, common economic and family affairs on the basis of care, mutual respect, solidarity, union, household
Oila huquqi	Bu oila huquqi tuzilishi, uning muayyan ketma-ketlikdagi alohida institutlari va me'yorlari tarkibidir. Oila huquqi tizimi ob'ektiv ravishda tuzilib, oila huquqi predmetiga kiradigan ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xosligini aks ettiradi, hamda o'zaro bog'langan oilaviy-huquqiy institutlarning birligi va farqlanishida namoyon bo'ladi	It is the structure of family law, the composition of its individual institutions and norms in a particular sequence. The system of family law is objectively structured and reflects the specificity of the social relations that are the subject of family law, as well as the unity and differentiation of interconnected family law institutions
Nikoh	Nikoh yoshiga etgan, qonunga muvofiq oila qurishni istagan erkak va ayolning ixtiyoriy roziligi hamda teng huquqliligiga asoslangan, rasmiylashtirilgan, o'zaro shaxsiy va mulkiy huquq	An alliance based on the voluntary consent and equality of a man and a

	va majburiyatlarni vujudga keltiradigan ittifoq	woman who have reached the age of marriage and wish to marry in accordance with the law, and form a mutual personal and property rights and obligations
Soxta nikoh	Oilaviy hayotda yashashni maqsad qilmagan holda biron-bir manfaatni ko‘zlab (misol uchun mol-mulkka ega bo‘lish) tuzilgan nikohdir	It is a marriage entered into for any benefit (for example, property) without the intention of living in a family
Farzandlikka olish	Ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan voyaga etmagan bolalarni oilaga joylashtirish shakli. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning (shaxsning) arizasiga ko‘ra, vasiylik va homiylik orgalarining farzandlikka olishning asosliligi va farzandlikka olinayotgan bola manfaatlariga to‘g‘ri kelishi haqidagi xulosasi hisobga olingan holda sud tomonidan amalga oshiriladi	A form of family placement of minors deprived of parental care. Adoption is carried out by the court at the request of the person (person) wishing to adopt the child, taking into account the conclusion of the guardianship and trusteeship authorities on the validity of the adoption and

		the interests of the adopted child
Vasiylik	O‘n to‘rt yoshga to‘lmaqan etim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni, shuningdek, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga ta’minot, tarbiya va ta’lim berish, ularning mulkiy va shaxiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli	A legal form of placement of orphans and children deprived of parental care under the age of fourteen, as well as citizens declared incompetent by a court in order to provide them with support, upbringing and education, to protect their property and personal non-property rights and legitimate interests
Homiylik	O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan etim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta’minot, tarbiya va ta’lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli	A legal form of placement of orphans and children deprived of parental care, as well as citizens with disabilities from the age of fourteen to eighteen, for the purpose of providing them with support,

		upbringing and education, protection of their property and personal non-property rights and legitimate interests
Nikoh yoshi	bu nikohlanuvchi shaxslarning qonun doirasida belgilangan yoshga etishlari	that is, that the persons to be married reach the age prescribed by law
Nikoh tuzishning ixtiyoriyligi	nikohlanuvchi shaxslarning o‘zga shaxslar tomonidan majbur etilmasdan oila qurish uchun erkin, tenglik va o‘zaro ixtiyoriylik asosida nikohni rasmiylashtirishlari	the registration of marriage on the basis of freedom, equality and mutual voluntariness of the parties to the marriage to be married without coercion by other persons
Nikoh shartnomasi	nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotining nikohda bo‘lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi	an agreement between the parties to the marriage or the husband and wife during their marriage and (or) in the event of the divorce of the husband and wife, defining their property rights and obligations
Nikohdan ajralish	er-xotin o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarning kelajak vaqt uchun	termination of the legal relationship

	tugatilishi	between the couple for the future
Nikohning tugatilishi	ma'lum yuridik faktlar tufayli er-xotin o'rtasida vujudga kelgan nikoh huquqiy munosabatlarining tugallanishi	the termination of the marital legal relationship between the couple due to certain legal facts
ilaviy munosabatlarda fuqarolarning tengligi	O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 3-moddasiga asosan, barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga ega ekanliklari normalangan bo'lib, nikoh tuzish chog'ida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeい hamda boshqa holatlarga qarab, huquqlarni muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan	According to Article 3 of the Family Code of the Republic of Uzbekistan, all citizens have equal rights in family relations. direct or indirect restriction, direct or indirect preference, and interference in family relations
Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi	jismoniy imkoniyatlari cheklangan (nogironlar, jismoniy nuqsoni bo'lgan hamda asab va ruhiyati buzilgan bolalar, surunkali og'ir kasallikklardan azob chekuvchi bolalar), ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlarga kiradigan bolalarni (etimlar, ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar qarovisiz qolgan bolalar, notinch oilalar bolalari), shuningdek ijtimoiy moslashuvda qiyinchilikka ega bo'lgan, biroq xatarli guruhlarga kirmaydigan alohida iqtidorli bolalarni (umumiy maxsus qobiliyatli bolalarni, xususan: sportga, badiiy, ilmiy va boshqa qobiliyatlarga ega	children with disabilities (disabled, physically challenged, mentally and emotionally disturbed, chronically ill), socially and legally at-risk groups (orphans, children left without parental care, children from troubled families)

	bo‘lgan bolalarni) (keyingi o‘rinlarda bolalar deb ataladi) ijtimoiy moslashtirish muammolarini o‘rganuvchi mustaqil tashkilot hisoblanadi), as well as an independent organization that studies the problems of social adaptation of gifted children (children with general special abilities, in particular: children with sports, artistic, scientific and other abilities) (hereinafter referred to as children) who have difficulty in social adaptation but do not belong to risk groups
Soxta nikoh	oilaviy hayotda yashashni maqsad qilmay, biron-bir mol-mulkka, boylikka, uy-joyga hamda uy-joyga doimiy ro‘yxatdan o‘tishni maqsad qilib tuzilgan nikoh	a marriage entered into for the purpose of permanent registration of any property, wealth, home, and dwelling, without the intent to live in a family life
Farzandlikka olish	ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan voyaga etmagan bolalarni oilaga joylashtirish shakli. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning (shaxsning) arizasiga ko‘ra, vasiylilik va homiylik organlarining farzandlikka olishning asosliligi va	a form of family placement of minors deprived of parental care. Adoption is carried out by the court at the request of the person (person)

	farzandlikka olinayotgan bola manfaatlariga to‘g‘ri kelishi haqidagi xulosasi hisobga olingan holda sud tomonidan amalga oshiriladi	wishing to adopt the child, taking into account the conclusion of the guardianship and trusteeship authorities on the validity of the adoption and the interests of the adopted child
Er va xotinning xususiy mulki	nikohga qadar o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulki, shuningdek, ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulki	property belonging to him before marriage, as well as property received by each of them during the marriage as a gift, inheritance or on the basis of other free agreements
Er-xotinning birgalikdagi umumiyl mulki	er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkulari, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar bo‘lajak er-xotinning umumiy mablag‘lari hisobiga olingan mol-mulkulari	property acquired by the husband and wife during the marriage, as well as property acquired at the expense of the total resources of the future couple before the marriage is registered
Aliment	qarindoshlarning va boshqa shaxslarning biri ikkinchisiga qonunda belgilangan holatlarda va miqdorda moddiy ta’minot berishi	to provide material support to one of the relatives and other persons in the cases and in the amount

		established by law
Alimentni indeksasiya qilish	Sudning hal qiluv qaroriga asosan pul bilan to‘lanadigan qat’iy summada undirilayotgan alimentlarni indeksasiya qilish alimentlar ushlab qolinayotgan joyda qonun hujjatlari bilan belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga mutanosib ravishda amalga oshiriladi	According to the decision of the court, the indexation of alimony collected in a fixed amount paid in cash is carried out in proportion to the minimum amount of wages established by law in the place where alimony is withheld
Aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzish	Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv (aliment miqdori, shartlari va to‘lash tartibi) aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxs bilan aliment oluvchi o‘rtasida tuziladi. Agar aliment oluvchi muomalaga layoqatsiz bo‘lsa, kelishuv uning qonuniy vakili bilan tuziladi	An agreement on the payment of alimony (amount, conditions and procedure for payment of alimony) is concluded between the person who is obliged to pay alimony and the recipient of alimony. If the alimony recipient is incapacitated, the agreement is concluded with his legal representative
	Oila kodeksini 91-moddasiga binoan, ota-onva bolalarning alohida-alohida mulki bo‘lishi mumkin va birga yashab turganda ular bir-	According to Article 91 of the Family Code, parents and

Ota-on va bolalarning alohida mol-mulki	birlarining roziligi bilan bunday mulkka egalik qilishlari va undan foydalanshlari mumkin	children may have separate property and while living together they may own and use such property with the consent of each other
Ota-on va bolalarning umumiy mulki	Amaldagi Oila kodeksini 92- moddasiga binoan, ota-on va o'n to'rt yoshga to'lgan voyaga etmagan bolalar o'rtasida qonunda belgilangan tartibda umumiy mulk huquqi vujudga kelishi mumkin	According to Article 92 of the current Family Code, a common property right may be established between a parent and a minor who has reached the age of fourteen in accordance with the procedure established by law

VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Oliy Majlisga murojaatnomasi. – T.: “O'zbekiston”, 2020. – 112 b.
2. Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: “O'zbekiston”. – 2017.– 102b.
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
5. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: “O'zbekiston”, 2016. – 56 b.
6. Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizasiya qilishni qat'iyat bilan davom ettirish yo'lida. T.21. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – 384 b.
7. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T .: O'zbekiston, 2015.-302 b.

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T., 2018.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi №O'RQ-328, 02.05.2012 //O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari

to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 y., 5-6-son, 140-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.–2012. 18-son 201-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat, 2014. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 2-songa ilova.;

4. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Rasmiy nashr. –Toshkent: Adolat, 2018.;

5. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi –T.: Adolat, 2018 y. – 568 b.;

6. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y., 39-son, 446-modda.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 9-son, 225-modda.

8. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 11-12-son, 295-modda.

9. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizasiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarishdan iborat // Xalq so‘zi. 2015 yil 6 dekabr.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktabrdagi PF–4850-son «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 40-son, 467-modda.

Maxsus adabiyotlar

1. Riches S, Allen V. Keenan and Riches’ business law, 11 the ed, Ashford Color Press.2013. 760 p

2. Essential Contract Law, Cavendish Essential series, Geoff Monahan, Second edition, London. 2001. P.254.

3. Do'stov U.N., Yuldashev J.I., Isakov T.U., Xaitbaev M.M. Xo'jalik shartnomalari. O'quv qo'llanma. -T.: TDYUI. 2009. – 158 b.
4. Zankovskiy S.S. Predprinimatelskie dogovory/Otv. red. V.V. Laptev. - "Volters Kluver", 2004 g. -304 s.
5. K. McConnel, S. Brew. Economics: Principles, problems and policy, 1992
6. Qodirov K. Xo'jalik sharnomasi: rasmiylashtirish tartibi, bajarilishini ta'minlash usullari va amaliyoti.-T.: "Yangi asr avlodi"-2003. – 691 b.
7. Narziev O. Xozyaystvennye (predprinimatelskie) dogovory. Uchebnoe posobie. Otvetstvennyy redaktor: d.yu.n, prof.O.Okyulov. – T.: TGYUI, 2010. – 206 s.
8. Otaxonov F., Qodirov K., Otaxonov S., Xajiev N. Fuqarolik-huquqiy shartnomalar. -T.: "Print Media", 2011. – 560 s.
9. Tadbirkorlik huquqi. Darslik. 1-2 tom. Sh.N.Ro'zinazarov va boshqalar. -Toshkent: Konsauditinform, 2002.
10. Xozyaystvennoe predprinimatelskoe) pravo. Uchebnik. //pod red. Okyulova O. - T.: TGYUI, 2010. 560 s.
11. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi (lotin alifbosida). Mualliflar jamoasi. Otaxonov F.X.ning umumiy tahriri ostida -Toshkent: Adolat, 2007. – 466 b.
12. Yuridik xizmat va shartnoma munosabatlarini tartibga solishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami / R.A. Muhibdinovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Adolat, 2009. -400 b.
13. Oila huquqi. Mualliflar jamoasi. .-Toshkent: TDYUU, 2017. 182 b.;
14. Oila huquqidan o'quv-uslubiy qo'llanma. Yuldasheva Sh.R., U.Sh.Shoraxmetova, B.R.Topildiev. –Toshkent: TDYUI, 2011.;
15. Do'stov U.N., Yuldashev J.I., Isakov T.U., Xaitbaev M.M. Xo'jalik shartnomalari. O'quv qo'llanma. -T.: TDYUI. 2009. – 158 b.

Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.gov.uz>
2. <http://www.lex.uz>
3. <http://www.edu.uz>
4. <http://www.norma.uz>
5. <http://www.gov.uz>
6. <http://www.my.gov.uz>
7. <http://www.parliament.gov.uz>
8. <http://www.zionet.uz>

II. TAQRIZLAR

М. Таджибаева ва Г. Мамараимовалар томонидан тайёрланган Тошкент давлат юридик университети хузуридаги Юридик кадрларни халқаро стандартлар бўйича профессионал ўқитиш маркази Қайта тайёрлаш ва малака ошириш курслари учун тайёрланган “Оила ва бизнес ҳукуқи” модули йўкув услубий мажмуасига

ТАҚРИЗ

Тошкент давлат юридик университети хузуридаги хузуридаги Юридик кадрларни халқаро стандартлар бўйича профессионал ўқитиш маркази Қайта тайёрлаш ва малака ошириш курслари учун М. Таджибаева ва Г. Мамараимовалар томонидан “Оила ва бизнес ҳукуқ” модули йўкув услубий мажмуаси тайёрланган.

Мазкур УМК мажмua Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июнданги “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сон, 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон, 2019 йил 27 августдаги “Олий таълим муассасалари педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПФ-5789-сон, 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармонлари, 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПК-2909-сон, 2017 йил 27 июлдаги “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармокларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПК-3151-сон, шунингдек Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 сентябрдаги “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 797-сон карориларида белгиланган устувор вазифалар мазмунидан келиб чиқкан ҳолда тузилган.

Мазкур ўқув услубий мажмуаси тингловчиларга оила ва бизнес ҳукукига оида фанларни ўқитиш методикаси, таълим-тарбия вазифалари, мазмuni, метод ва усусларини таҳлил этиш кўникмасини шакллантириш, унинг ўзига хос хусусиятлари, методлари, воситалари, дарс ва унинг турлари ва тузилиши тўғрисида маълумотлар беради. Бундан ташкири, ўқув услубий

мажмуада ҳар бир мавзуга доир маъруза матнлари, амалий машгулот материаллари, кейслар ва глоссарийлар ҳамда адабиётлар рўйхати келтирилган.

Ушбу мажмуа Ўкув услубий мажмуасига қўйилган талабларга тўлик жавоб беради ва уни оммавий эълон қилишга тавсия берамиз.

“Фуқаролик процессуал ва
иқтисодий процессуал ҳуқуқи”
кыфедраси мудири



ю.ф.и., проф.Д.Хабибуллаев

**М. Таджилбеков ва Г. Мамаримовалар томонидан тайёрланган
Ташкент давлат юридик университети ҳузури шиги
Юридик кадрларни ҳаляқро стандартлар бўйича професионал ўқитиш
маркази Кийта тайёрлаш на маълака ошириш курслари учун тайёрланган
“Оила ва бизнес ҳукуки” модули Ўкув услубий мажмусига**

ТАКРИЗ

Ўзбекистон Республикаси мустакиллик ёришгани дастлабки кунларданоқ, марказлаштирилган маъмурӣ-бўйруқбоиликка асосланган иктисадиётдан юз кечиб маҷтакат ривожланнининг устувор йўналиши сифатида бозор иктисадиётини шакллантириш белгилаб олиниди. Төъкидлаш жонъки, мустакиллик йилларида ислоҳотларнинг асосини, хусусий мулкчиликни шакиллантириш, кўчмас мулк бозорини модернизация килиш ва ривожлантириш, шунингдек кўчмас мулк бозорларида рақобат мухитини шакллантириш хўжалик юритувчи субъектларнинг тадбиркорлик фалолияти соҳасини ислоҳ килиш ташкил этмоқда.

Төъкидлаш жонъки, жамиятда бўладиган ижтимоий муносабатларнинг дастлабки элементи онада вужудга келади ва шаклланади. Оиладаги катталаарнинг бир-бири, бошқалар билан атроф-муҳит, молмудка бўлган муносабати ёшлиарнинг шу массалаларга муносабатини шаклланиши учун ўринак бўлади. Шу билан бирга бутунги кунда онла муносабатларни тартибга солувчи норматив ҳукукий ҳужжатлар ва ҳукукшунос олимларнинг наъарий фикрларини ўрганиш долзарб аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 Йил 12 июнданги “Олий таълим муассасаларнинг раҳбар ва педагог кадрларини кийта тайёрлаш ва маълакасини олиниш тизимини янада тикомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сон, 2017 Йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегигиси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон, 2019 Йил 27 августдаги “Олий

таълим муассасалари педагог кадрларининг узлуксиз маддасини ошириш тизимини жорий этиш тўгрисида"ги ПФ-5789-сон, 2019 йил 8 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўгрисида"ги ПФ-5847-сон Фармонлари, 2017 йил 20 апрелдаги "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирларни тўгрисида"ги ПК-2909-сон, 2017 йил 27 июлдаги "Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иктиносидёт соҳалари ва тармоқтарининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўгрисида"ги ПК-3151-сон, шунингдек Вазирлар Мажхамасининг 2019 йил 23 сентябрдаги "Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг маддасини ошириш тизимини янада таомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўгрисида"ги 797-сон карориларида белгиланган устувор вазифалар мазмунидан келиб чиккан холда тузилган булиб, у замонавий талаблар асосида кайта тайёрлаш ва малака ошириш жараёнтарининг мазмунини таомиллаштириш ҳамда олий таълим муассасалари педагог кадрларининг касбий компетентлигини мунтазам ошириб боришини максад қилади. Муаллифлар томонидан тайёрланган ушбу ластур ҳам ана шу максадларга эришиниш яўлида хизмат юлади.

Юкорида кайд этилган холатларни ётиборга олиб, муаллифларининг "Оила ши битиес ҳукуки" модули бўйича ўкув услубий мажмусини нашрга тавсия этиш мумкин деб хисоблайман.

ТДЮУ Бизнес ҳукуки кафедраси ўқитувчиси
юридик фанлари номзоди, PhD.

Л.И.Ачилова